

**B.BOLTAYEV, A.AZAMATOV, SH.XIDIROV, B.XURRAMOV  
VA K.ISKANDAROV**

**ALGORITMLASH  
VA PASKAL  
DASTURLASH TILI  
BO'YICHA BERILGAN  
MISOL VA  
MASALALARNI YECHISH  
USULLARI**



**TOSHKENT 2012**

УДК: 004.421

КБК 22.12

A45

*Математик шарниб*  
**Algoritmlash va Paskal dasturlash tili bo'yicha Berilgan  
misol va masalalarni yechish usullari** / B. Boltayev [va boshq.]. –  
Тошкент: Nihol, 2012. – 164 б.

ISBN 978-9943-23-057-6

УДК: 004.421

КБК 22.12

Respublika Ta'lim Markazi huzuridagi Informatika ilmiy metodika  
kengashining 2012-yil 11-sentyabrdagi yig'ilishida o'qituvchilar  
uchun metodik qo'llanma sifatida chop etishga tavsiya etildi

#### **Taqribzehilar:**

**A.Usmonov** - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti  
texnika fanlari nomzodi;

**Z.Xudayberdiyeva** – Toshkent shahar 157-umumta'lim maktabining  
informatika o'qituvchisi.

**R.Muxtorova** – Toshkent viloyati Piskent tumani 6- umumta'lim  
maktabining I-toifali informatika o'qituvchisi.

Umumiyl o'rta ta'limda «Informatika va hisoblash texnikasi asoslariga» ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga kompyuterda  
masalalar yechish texnologiyalari va uning asosiy bosqichlari haqida  
bilim berishni ifodalaydi. Ushbu uslubiy qo'llanmada 9-sinf «Informatika»  
darsligidagi algoritmlash va Paskal dasturlash tili bo'yicha berilgan  
misol va masalalar yechimlari to'liq yoritilgan.

ISBN 978-9943-23-057-6

Alisher Navoiy

2013/18

Δ630

Газиевон МК

40689  
10  
2

© “Offset Print” MChJ, “Nihol” nashriyoti, 2012

## ***SO'ZBOSHI***

Zamonaviy kompyuterlarda turli dasturlash tillari keng qo'llaniladi. Bu dasturlar iqlisodiyot, boshqarish, xizmat ko'rsatish va ayniqsa sanoat va ishlab chiqarishning turli sohalarida muhim ahamiyatga molik masalalarni hal etishda ba'zan yagona omilga aylanmoqda. Bu esa o'z navbatida muxandislik va boshqarish sohasi xodimlari uchun kompyuterlardan unumli va oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Kompyuterda biror muammoni hal qilish bir necha bosqichlarga bo'linadi. Avvalambor, tahlil ctilayotgan jarayon yoki inshootning zarur jixatlarini o'zida mumkin qadar to'liq aks ettirgan matematik in'ikosi (modeli) tuzib olinadi.

Odatda, matematik model formula va tenglamalar sistemasi ko'rinishida ifodalanadi. Keyingi qadamda hosil bo'lgan matematik masalani yechish uchun eng maqbul hisoblash algoritmi tuziladi.

Va nihoyat, biror algoritmik til asosida tuzilgan dastur bo'yicha olingan natijalar tahlil qilinadi va ular asosida o'rganilayotgan jarayon uchun xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar aniqlanadi.

Algoritm – biror masalaning yechilishi uchun zarur bo'lgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligi bo'lib, odatda so'zlar yordamida yoki blok-sxema ko'rinishida tasvirlanadi. Algoritm blok-sxema ko'rinishi o'quvchilar uchun ko'rinishli va ko'proq tushunarlidir. Bloklardan foydalanib ixtiyoriy masalani yechish uchun algoritmlar tuzish mumkin, bunda algoritmnинг asos tuzilmalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu uslubiy qo'llanma 9-sinf «Informatika» darsligiga to'la mos keladi. Darslikdagи algoritmlash va Paskal dasturlash tili bo'yicha berilgan misol va masalalar yechimlari to'liq yoritilgan.

Qo'llanmadan maktab o'qituvchilari va o'quvchilaridan tashqari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarini ham foydalanishlari mumkin.

Mualliflar uslubiy qo'llanmaning sifatini yaxshilashga qaratilgan barcha fikr-mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qildi.

## 1 – dars. Massalalarni kompyuterda yechish bosqichlari mavzusiga

**M-1.** Turg'un suvdagi tezligi 15 km/soat bo'lgan qayiqning daryo oqimi bo'y lab 2 soatdagi bosib o'tgan masofasi oqimiga qarshi 3 soatda bosib o'tgan masofasiga teng bo'lsa, daryo oqimining tezligini toping (yo'llanma: tezlik=yo'l / vaqt).

Bu mavzudagi masalalarni hal etishda dasturlash bilan bog'liq bosqichdan tashqari kompyuterda masala yechishning barcha bosqichlarini ko'rib chiqamiz.

### Masalaning qo'yilishi.

Berilgan:

$V_T = 15 \text{ km/soat}$  {qayiqning turg'un suvdagi tezligi}

$T_{ob} = 2 \text{ soat}$  {ob - oqim bo'y lab}

$T_{oq} = 3 \text{ soat}$  {oq - oqimiga qarshi}

Topish kerak:  $V_{do}$  {daryo oqimining tezligi}

### Masalaning modelini tuzish.

$$S_{ob} = (V_T + V_{do}) \cdot T_{ob}; S_{oq} = (V_T - V_{do}) \cdot T_{oq}.$$

$$\text{Shartga ko'ra: } S_{ob} = S_{oq} \text{ yoki } (V_T + V_{do}) \cdot T_{ob} = (V_T - V_{do}) \cdot T_{oq}.$$

Bundan quyidagi model hosil bo'ladi:


$$V_{do} = (V_T \cdot T_{oq} - V_T \cdot T_{ob}) / (T_{ob} + T_{oq}).$$

**Algoritm tuzish.** {Bajarilayotgan amallar aniq va tushunarli bo'lishi uchun A, B, D, E kabi belgilashlar kiritib olingan}

- 1)  $A = V_T \cdot T_{oq};$
- 2)  $B = V_T \cdot T_{ob};$
- 3)  $D = T_{ob} + T_{oq};$
- 4)  $E = A - B;$
- 5)  $V_{do} = E/D.$

### Natija olish va tahlil etish.

- 1)  $A = 15 \cdot 3 = 45;$
- 2)  $B = 15 \cdot 2 = 30;$
- 3)  $D = 2 + 3 = 5;$



$$4) E=45-30=15;$$

$$5) V_{do}=15/5=3.$$

Natijaning tahlili:  $S_{ob}=(15+3)\cdot 2=36$ ,  $S_{oq}=(15-3)\cdot 3=36$ . Demak, natija to‘g‘ri.

Javob:  $V_{do}=3$  km/soat.

**M-2.** To‘g‘ri burchakli to‘rtburchakning tomonlari, mos ravishda, 4 sm va 3 sm bo‘lsa, uning diagonalini toping (yo‘llanma: to‘g‘ri to‘rtburchakning diagonali to‘rtburchakni ikkita to‘g‘ri burchakli uchburchakka ajratadi, demak, diagonal gipotenuza bo‘ladi).

### Masalaning qo‘yilishi.

Berilgan:

to‘rtburchak to‘g‘ri burchakli, demak diagonali to‘rtburchakni ikkita to‘g‘ri burchakli uchburchakka ajratadi

$$a=4 \text{ sm}$$

$$b=3 \text{ sm}$$

Topish kerak: c diagonal

### Masalaning modelini tuzish.

$$\text{Pifagor teoremasi: } c^2 = a^2 + b^2;$$

**Algoritm tuzish.** {Bajarilayotgan amallar aniq va tushunarli bo‘lishi uchun AA, BB, CC kabi belgilashlar kiritib olingan}

$$1) AA=a\cdot a;$$

$$2) BB=b\cdot b;$$

$$3) CC=AA+BB;$$

$$4) c=\sqrt{CC}.$$

### Natija olish va tahlil etish.

$$1) AA=4 \text{ sm} \cdot 4 \text{ sm}=16 \text{ sm}^2;$$

$$2) BB=3 \text{ sm} \cdot 3 \text{ sm}=9 \text{ sm}^2;$$

$$3) CC=16 \text{ sm}^2 + 9 \text{ sm}^2 = 25 \text{ sm}^2;$$

$$4) c=\sqrt{CC}=\sqrt{25 \text{ sm}^2}=5 \text{ sm}.$$


Natijani tahlili:

$$(5 \text{ sm})^2=(4 \text{ sm})^2+(3 \text{ sm})^2 \text{ yoki } 25 \text{ sm}^2=16 \text{ sm}^2+9 \text{ sm}^2.$$

Demak, natija to‘g‘ri.

Javob:  $c=5$  sm.

### Chizmasi



## 2 – dars. Model va uning turlari mavzusiga

**M-1.** Obyekt: viloyatlar (yo'llanma: nomi, maydoni, aholisi soni, asosiy iqtisodiy mahsuloti, ...).

Viloyatlar tavsifi	Nomi	Maydoni	Aholi soni	Asosiy iqtisodiy mahsuloti
1	Andijon	4.2 ming km <sup>2</sup>	2451.2 mingta	paxta, avtomobil
2	Surhondaryo	20.1 ming km <sup>2</sup>	1992.1 ming ta	paxta, bug'doy

**M-2.** Obyekt: sinfdoshlar (yo'llanma: jinsi, bo'yli, soch rangi, og'irligi, ko'z rangi, ...).

Sinfdoshlar tavsifi	Ismi	Jinsi	Bo'yli	Og'irligi	Ko'z rangi
1	Bahodirjon	Erkak	172 sm	65 kg	Qora
2	Hilolaxon	ayol	165 sm	52 kg	Moviy

**M-3.** Obyekt: kitoblar (yo'llanma: nomi, sahifa soni, rangliliqi, og'irligi, narxi, ...).

Kitoblar tavsifi	Nomi	Muallifi	Mavzusi	Sahifa soni	Og'irligi
1	Informatika	B.Boltayev va b.	Darslik	144	250 gr
2	O'tkan kunlar	Abdulla Qodiriy	Roman	250	480 gr

### 3 – dars. Masalalarini kompyuterda yechish bosqichlari va modelning turlari mavzularini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi masalalar shartini tablil qiling va bosqichlarga bo'lib hal eting.

A. Katetlari **a** va **b** bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasini hisoblang.

B. Katetlari **a** va **b** bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakning yuzasini hisoblang.

**A** va **B** masalalar yechimi avvalgi mavzudagi masala kabi ifodanadi.

D. Tomoni **a** bo'lgan teng tomonli uchburchakning balandligini toping.

**Masalaning qo'yilishi.**

Berilgan:

uchburchak teng tomonli. demak barcha tomonlari uzunligi **a** ga teng.

Topish kerak: **h** balandlik

### Masalaning modelini tuzish.

Masalani modelini tuzish uchun uchburchak yuzasini hisoblashning quyidagi ikki formulasidan foydalanamiz va balandlikni aniqlaymiz.

1) Geron formulasi:

$$p = \frac{a + a + a}{2} = \frac{3 \cdot a}{2};$$

$$\begin{aligned} S &= \sqrt{p \cdot (p - a) \cdot (p - a) \cdot (p - a)} = \\ &= \sqrt{\frac{3 \cdot a}{2} \cdot \left(\frac{3 \cdot a}{2} - a\right) \cdot \left(\frac{3 \cdot a}{2} - a\right) \cdot \left(\frac{3 \cdot a}{2} - a\right)} = \\ &= \sqrt{\frac{3 \cdot a}{2} \cdot \frac{a}{2} \cdot \frac{a}{2} \cdot \frac{a}{2}} = \left(\frac{a}{2}\right)^2 \cdot \sqrt{3}; \end{aligned}$$

$$2) S = \frac{a \cdot h}{2};$$

$$3) h = \frac{2 \cdot S}{a}.$$

### Algoritm tuzish.

$$1) S = \left(\frac{a}{2}\right)^2 \cdot \sqrt{3};$$

$$2) h = \frac{2 \cdot S}{a}.$$

### Natija olish va tahlil etish.

Bu bosqichda uchburchak tomoni bo'lgan **a** ni qiymatini turlicha olib natijani tahlil etish mumkin.


**M-2.** Quyidagi obyektlarni tavsifi va tavsif qiymatini yozing.

a) Obyekt: o'zingiz yashaydigan viloyat (shahar) kollejlari (yo'llanma nomi, qurilgan yili, yo'nalishlari, qabul qilinadigan o'quvchilar soni,...).

b) Obyekt: Asaka avtomobil zavodi ishlab chiqaradigan avtomobilлari (markasi, ishlab chiqarila boshlangan yili, soni, ranglari, ...).

**a)** va **b)** mashqlar yechimi avvalgi mavzudagi jadvaldagi kabi ifodanadi.

### Chizmasi



**M-3.** Quyidagi masalalarga mos model tuzing va hal eting.

A. Bankka yiliga A foizli daromad olish uchun qo'yilgan B so'm pulning M yildan keyingi holatini ifodalovchi model tuzing.

**Yechim.** 1-yil oxirida olinadigan daromad  $\frac{B}{100} \cdot A$  so'm bo'ladi.

Shuning uchun yil oxirida bankdagi pul  $\frac{B}{100} \cdot A + B = B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)$

so'm bo'ladi. Ikkinci yil oxirida olinadigan daromad  $B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) \cdot \frac{A}{100}$  so'm bo'ladi. Ikkinci yil oxirida bankdagi pul

$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) \cdot \frac{A}{100} + B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) = B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) = B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^2$

so'm bo'ladi.

Quyidagicha jadval tuzib olamiz:

Yillar	Foiz daromadi	Bankdagi pul miqdori
1-yil oxirida	$\frac{B}{100} \cdot A$	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)$
2-yil oxirida	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right) \cdot \frac{A}{100}$	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^2$
3-yil oxirida	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^2 \cdot \frac{A}{100}$	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^3$
4-yil oxirida	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^3 \cdot \frac{A}{100}$	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^4$
...	...	...
M-yil oxirida	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^{M-1} \cdot \frac{A}{100}$	$B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^M$

Demak, masalaga mos matematik model: M yildan keyin bankdagi pul  $B \cdot \left( \frac{A}{100} + 1 \right)^M$  so'm.

B. Samolyot orasidagi masofa 2100 km bo'lgan A shahardan B shahargacha 3 soat, orasidagi masofa 4800 km bo'lgan B shahardan M shahurgacha 6 soat uchdi. Samolyot qanday o'rtacha tezlikda uchgan? (yo'llanma: o'rtacha tezlik = (1-yo'l + 2-yo'l) / (1-vaqt + 2-vaqt)).

**Yechim** berilgan yo'llanmaga usoskanib yoziladi, ya'nii masakanı

modeli quyidagicha:

$$V_{O'R} = \frac{S_{AB} + S_{BM}}{T_{AB} + T_{BM}}, \quad \{ V_{O'R} - A \text{ shahardan } M \text{ shahargacha uchishda-} \\ \text{gi o'rtacha tezlik. } S_{AB} - A \text{ shahardan } B \text{ shahargacha, } S_{BM} - B \text{ shahar-} \\ \text{dan } M \text{ shahargacha bo'lgan masofalar, } T_{AB} - A \text{ shahardan } B \text{ shahar-} \\ \text{gacha, } T_{BM} - B \text{ shahardan } M \text{ shahargacha uchish vaqli}\}$$

## 4 – dars. Algoritm tushunchasi mavzusiga

**T-4.** Darslikdan berilgan mavzuni topish algoritmini tuzing.

**T-5.** “Oshpalov” pishirish algoritmini tuzing.

**T-6.** Kompyuterni ishga tushirish algoritmini tuzing.

O'quvchilar bu topshiriglarga mos algoritm tuza oladilar, lekin keyingi darsda izohlanadigan aniqlik yoki tushunarllilik xossalariiga e'tibor berishmaydi.

Masalan, berilgan mavzuni topish algoritmida “mundarijaga qaral-sin” (mundarija kitobning qayerida joylashgan), “kerakli tartib raqamli sahifa ochilsin” (qanday qilib, bir chekkadan varaqlabmi?), u holda mundarijani nima keragi bor).

“Oshpalov” pishirish algoritmida esa yog’, suv yoki tuz qaneha so-linishida adashishadi. Ko'pincha, “ozgina” yoki “keragicha” so'zlar ishlatishadi. Lekin bu kabi ko'rsalmalar Ijrochiga tushunarli bo'lmaydi.

O'quvchilarga nomini aytmagan holda shu xossalarni buzilishi qanday oqibatlarga olib kelishinini ko'rsatib o'tish bilan keyingi darsga zamin tayyorlanadi. Yana, o'quvchilar Ijrochi nimalarini “tushunadi” (Ijrochining ko'rsatmalar sistemasi) degan savolga javob berishi ham ularni algoritm haqidagi tasavvurlarini kengaytiradi.

## 5 – dars. Algoritmining asosiy xossalari mavzusiga

**T-5.** Algoritming diskretllilik xossasini misollar asosida tushuntiring.

Masalan, bir joydan boshqa joyga o'tish uchun oyoglarimiz bir necha yuz marta takrorlanadigan “o'ng oyoq oldinga qo'yilsin”, “zehap oyoq oldinga qo'yilsin” buyruqlari ketma-ket oyoglarga ketma-ket beriladi. Bu buyruqlar baravar berilsa nima hodisa ro'y berishini o'quvchilarni o'zi izohlashi maqsadga muvofiq.

Kompyuterda matn yozishda ham klaviaturadan har bir belgi ketma-ket berilgan alohida buyruqlar asosida yoziladi. Birdaniga bir necha o'n klavishni bosish mungkinikan?

**T-6.** Algoritmnинг natijaviylik xossasini misollar asosida tushuntiring.

Natijaviylik xossasi algoritm qadamining chekliligin anglatadi.

Ichida ovqati yo'q bo'sh qoshiqni og'izga solish ham natija beradi: ishtahani ochaqdi yoki, qoshiqni og'izga oborishni mashq qildiradi. Umuman, biror maqsadga harakat qilinsa, shu maqsadga erishish ijobiy, maqsadga erishmaslik salbiy natija bo'ladi.

**T-7.** Natijaviylik xossasi bajarilmaydigan ko'rsatmalar ketma-ketligiga misol keltiring.

Masalan:

- 1) daryodan bir chelak suv olinsin;
- 2) chelakdag'i suv daryoga solinsin;
- 3) 1-bandga o'tilsin.

Bu algoritm chekli qadamda tugamaydi, demak natijasi yo'q.

**T-8.** Algoritmnинг ommaviylik xossasini misollar asosida tushuntiring.

Al-Xorazmiyning ustunli qo'shish algoritmi barcha o'qli kasr ko'rinishidagi sonlar uchun o'rinci, Evklid algoritmi barcha natural sonlar uchun o'rinci, kvadrat tenglama yechish algoritmi barcha haqiqiy sonlar uchun o'rinci, oyoq kiyimi kiyishda avval paypoq keyin tuflı kiyish (teskarisi emas) barcha aqli raso inson uchun o'rinci.

**T-9.** Evklid algoritmi yordamida bir nechta natija oling.

$N=15$  va  $M=25$  bo'lsa:

$$(15, 25) \rightarrow (15, 25-15) \rightarrow (15, 10) \rightarrow (15-10, 10) \rightarrow (5, 10) \rightarrow (5, 10-5) \rightarrow (5, 5), \text{ javob } 5.$$

$N=18$  va  $M=39$  bo'lsa:

$$(18, 39) \rightarrow (18, 39-18) \rightarrow (18, 21) \rightarrow (18, 21-18) \rightarrow (18, 3) \rightarrow (18-3, 3) \rightarrow (15, 3) \rightarrow (15-3, 3) \rightarrow (12, 3) \rightarrow (12-3, 3) \rightarrow (9, 3) \rightarrow (6, 3) \rightarrow (6-3, 3) \rightarrow (3, 3), \text{ javob } 3.$$

$N=91$  va  $M=65$  bo'lsa:

$$(91, 65) \rightarrow (91-65, 65) \rightarrow (26, 65) \rightarrow (26, 65-26) \rightarrow (26, 39) \rightarrow (26, 39-26) \rightarrow (26, 13) \rightarrow (26-13, 13) \rightarrow (13, 13), \text{ javob } 13.$$

## **6 – dars. Algoritm tushunchasi va algoritmning asosiy xossalari mavzularini takrorlash darsi mavzusiga**

**M-1.** Ijrochi sifatida quyidagi ko'rsatmalardan qaysilarini bajara olmaysiz va nima uchun?

- A. 200 kg lik tosh ko'tarilsin. B. 7 ga 2 ko'paytirilsin.  
D. 1 dan 31622400000 gacha sanalsin.

A ko'rsatmani bajara olmaydi, chunki o'quvchining fizik imkoniyati cheklangan.

D ko'rsatmani bajara olmaydi, chunki o'quvchi to'xtamasdan sekundiga beshta sonni aytsa  $6324480000 \text{ sekund} = 105408000 \text{ minut} = 1756800 \text{ soat} = 73200 \text{ sutka} = 200 \text{ yil kerak bo'ladi.}$

**M-2.** Algoritim Ijrochisi qo'yilgan maqsadga erishishi uchun qanday sodda ko'rsatmalarni bajara olishi lozimligini, ya'ni ijrochining ko'rsatmalar sistemasini aniqlang.

- A. Ochiq eshik ijrochining chap yonida 5 qadam narida bo'lsa, maqsad "eshikdan chiqish".

IKS={chapga buril; bir qadam oldinga yur}.

- B. Ijrochi jo'mrak va silindrik stakan oldida turgan bo'lsa, maqsad "yarm stakan suv olish".

IKS={jo'mrak ochilsin; jo'mrak yopilsin; stakanning ochiq tomoni qirrasi va unga yopiq tomondagi qarama-qarshi qirra gorizontal holatda ushlansin}.

- D. Berilgan  $44 \cdot 15 + 12 \cdot 15 : 20 - 43$  sonli ifoda qiymati aniqlansin.

IKS={bir son ikkinchisiga qo'shilsin; bir son ikkinchisidan ayrlisin; bir son ikkinchisiga ko'paytirilsin; bir son ikkinchisiga bo'linsin}.


**M-3.** Berilgan ko'rsatmalar yordamida masala yechimiga olib keluvchi algoritm yozing.

- A. "Bo'ri, echki va karam" nomli qadimiylar masala. Dehqon daryoning chap qirg'ida bo'ri, echki va karam bilan turibdi. U bularni hammasini o'ng qirg'oqqa o'tkazishi kerak. Uning qayig'i juda kichik bo'lgani uchun faqat bitta yo'lovchini olishi mumkin – yoki bo'rini, yoki echkini, yoki karamni. Yana, agar bo'ri va echki bir qirg'oqda qoldirilsa bo'ri echkini yeh qo'yadi, agar echki va karamni bir qirg'oqda qoldirilsa echki karamni yeh qo'yadi. Hayvonlar faqat dehqon borligidagina tinch turishadi. Dehqonning ko'rsatmalar sistemasi quyidagicha:

{echkini o'tkaz; bo'rini o'tkaz; karamni o'tkaz; suzib o't}.

echkini o'tkaz suzib o't bo'rini o'tkaz echkini o'tkaz karamni o'tkaz suzib o't echkini o'tkaz	yoki	echkini o'tkaz suzib o't karamni o'tkaz echkini o'tkaz bo'rini o'tkaz suzib o't echkini o'tkaz
--	------	--

B. Bo'g'irsoq uchun "oldindagi" katak qalpoqchasi ko'rsatayotgan katakdir. U o'ngga burilganda ko'rinishda bo'ladi. Bo'g'irsoq 1 ta oldindagi katakka yura oladi yoki turgan katagida o'ngga burila oladi, ya'ni {oldinga; o'ngga} ko'rsatmalarini bajara oladi. Bo'g'irsoq bir katakdan bir necha marta o'tishi mumkin, lekin shaklidagi to'siqli katakdan o'ta olmaydi. Bo'g'irsoq o'zi turgan katakdan bilan belgilangan katakka biror yo'l bilan bora oladigan bo'lsa, zaruriy ko'rsatmalar ketma-ketligini yozing.



Qadamlar soni	1-algoritm	2-algoritm
1	1) o'ngga;	1) o'ngga;
2	2) o'ngga;	2) oldinga;
3	3) o'ngga;	3) o'ngga;
4	4) oldinga;	4) o'ngga;
5	5) oldinga.	5) oldinga;
6		6) oldinga;
7		7) oldinga.

## 7 – dars. Algoritmnini tasvirlash usullari mavzusiga

**M-1.** Paint grafik muharririда “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat!” matnidagi so'zlarni tagma-tag yozdirish uchun so'zlar yordamida algoritm tuzing.

- 1) boshlansin;
- 2) Paint grafik muharriri ishga tushirilsin;
- 3) Paint grafik muharriri Uskunalar panelidan ("Yozuv") uskunasini tanlansin;
- 4) Ishchi maydonida o'chhami 300x30 pikselga teng yozuv maydoni hosil qilinsin;

- 5) Klaviaturada “**O‘zbekiston**” matni terilsin;
- 6) Klaviaturada Enter klavishi bosilsin;
- 7) Klaviaturada “**kelajagi**” matni terilsin;
- 8) Klaviaturada Enter klavishi bosilsin;
- 9) Klaviaturada “**buyuk**” matni terilsin;
- 10) Klaviaturada Enter klavishi bosilsin;
- 11) Klaviaturada “**davlat!**” matni terilsin;
- 12) Klaviaturada Enter klavishi bosilsin;
- 13) tugallansin.

**M-2.** MS Word dasturining WordArt obyekti yordamida “**O‘zbekiston vatanim manim!**” iborasini yozish algoritmini qulay usulda tasvirlang.

- 1) boshlansin;
- 2) MS Word dasturi ishga tushirilsin;
- 3) “Chizish” uskunalar panelidan “WordArt” uskunasi tanlansin;
- 4) “WordArt” kolleksiasidan yozish usuli tanlansin;
- 5) Klaviaturada Enter klavishi bosilsin;
- 6) “WordArt” uskunasi matn maydoniga “**O‘zbekiston vatanim manim!**” matni yozilsin;
- 7) “OK” tugmasi bosilsin;
- 8) tugallansin.

**M-3.** Berilgan ikki natural sonning eng kichik umumiylar karralishini topish algoritmini tuzing.

- 1) boshlansin;
- 2) M va N sonlari qiymati aniqlansin;
- 3) M va N sonlar ko‘paytmasi EKUK deb olinsin;
- 4) agar  $N = M$  bo‘lsa,  $N$  soni EKUB deb olinsin va 7)-bandga o‘tilsin;
- 5)  $N$  va  $M$  sonlarning kattasi aniqlansin va o‘zi bilan kichik sonning ayirmasiga teng deb olinsin;
- 6) 4)-bandga o‘tilsin;
- 7) EKUK ni EKUB ga nisbatli EKUK deb olinsin;
- 8) javob sifatida EKUK yozilsin;
- 9) tugallansin.

## 8 – dars. Algoritmnini tasvirlash usullari mavzusiga oid amaliy mashg‘ulot mavzusiga

**M-1.** Quyidagi masalalar algoritmlarini so‘zlar yordamida tuzing.

A. Berilgan  $x$  da  $y = 23 \cdot x - 1963$  funksiyasining qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

- 1) boshlansin;
- 2)  $x$  ning qiymati aniqlansin;
- 3)  $x$  ni 23 ga ko‘paytirib z deb olinsin;
- 4) z dan 1963 ni ayirib y deb olinsin;
- 5) javob sifatida y yozilsin;
- 6) tugallansin.

B. Ijrochining ko‘rsatmalar sistemasi faqat **{5 ni qo‘sh; 3 ni ayir}** ko‘rsatmalaridan iborat. Bu ijrochi 0 sonidan 11 sonini hosil qilishi uchun algoritm tuzing.

Qadam	Ko‘rsatma	Natija
0	–	0
1	5 ni qo‘sh	5
2	5 ni qo‘sh	10
3	5 ni qo‘sh	15
4	5 ni qo‘sh	20
5	3 ni ayir	17
6	3 ni ayir	14
7	3 ni ayir	11

D. Ijrochi ko‘rsatmalar sistemasi faqat **{1 ni qo‘sh; 2 ga ko‘paytir}** ko‘rsatmalaridan iborat. Bu ijrochi 0 sonidan 17 sonini hosil qilishi uchun 3 xil usulda algoritm tuzing.

Qadam	Ko‘rsatma	Nati-ja	Ko‘rsatma	Nati-ja	Ko‘rsatma	Natija
0	–	0	–	0	–	0
1	1 ni qo‘sh	1	1 ni qo‘sh	1	1 ni qo‘sh	1
2	2 ga ko‘paytir	2	1 ni qo‘sh	2	2 ga ko‘paytir	2
3	2 ga ko‘paytir	4	2 ga ko‘paytir	4	2 ga ko‘paytir	4
4	2 ga ko‘paytir	8	2 ga ko‘paytir	8	1 ni qo‘sh	5
5	2 ga ko‘paytir	16	2 ga ko‘paytir	16	2 ga ko‘paytir	10


6	I ni qo'sh	17		I ni qo'sh	17		2 ga ko'paytir	15
7	-	-		-	-		I ni qo'sh	16
8	-	-		-	-		I ni qo'sh	17

E. A=5 va B=8 bo'lganda Ijrochi 4 litr suv o'lchab olishi uchun algoritm tuzing.

Ko'rsatma	A [5 litr]	B [8 litr]
-	0	0
A ni to'ldir	5	0
A dan B ga quy	0	5
A ni to'ldir	5	5
A dan B ga quy	2	8
B ni bo'shat	2	0
A dan B ga quy	0	2
A ni to'ldir	5	2
A dan B ga quy	0	7
A ni to'ldir	5	7
A dan B ga quy	4	8

**M-2.** Quyidagi masalalar algoritmlarini blok-sxema yordamida tuzing.

A. Radiusi  $R$  ga teng aylana ichiga chizilgan kvadratning tomonini topish algoritmini tuzing.




B. Uchta tanga berilgan. Ulardan biri soxta va og'ir. Tortish uchun ikki pallali tarozi o'lchov toshlarisiz berilgan. Soxta tangani aniqlash algoritmini tuzing.

**Izoh:** Joyni iqtisod etish uchun mazkur qollanmada barcha blok sxemadagi kiritilsin so'zi o'rniga ( $\rightarrow$  hiror belgi); chop etilsin so'zi o'rniga (hiror belgi  $\rightarrow$ ) kabi belgilashni qo'llashni lozim topildi.

Avval tangalarni A, B, D kabi nomlaysiz.


- 1) Agar A va B tangalar taroziqa qo'yilganda og'irligi teng bo'lsa, u holda D tanga soxta.
- 2) Aks holda A va B tangalardan og'ir tomondagi tanga soxta bo'ladi.



D. Uchta tanga berilgan. Ulardan biri soxta va faqat og'irligi bilan farqlanadi (aniq og'ir yoki yengilligi ham ma'lum emas). Tortish uchun ikki pallali tarozi o'lcov toshlarisiz berilgan. Eng kam tortish yordamida soxta tangani aniqlash algoritmini tuzing.

Avval tangalarni A, B, D kabi nomlaysiz.

- 1) Agar A va B tangalar taroziqa qo'yilganda og'irligi teng bo'lsa, u holda D tanga soxta.
  - 2) Agar A va D tangalar taroziqa qo'yilganda og'irligi teng bo'lsa, u holda B tanga soxta.
  - 3) Aks holda A tanga soxta.
- Demak, soxta tangani ikki marta tortishda aniqlash mumkin.




## 9 – dars. Algoritmning asosiy turlari mavzusiga

**M-1.** Uchta sondan kattasini (UKT) aniqlab beruvchi algoritm tuzing.

A sonni kattasi deb olamiz. Katta sonni keyingi sonlar bilan birin ketin taqqoslaymiz va agar keyingi son katta bo'lsa, keyingi sonni kattasi deb olamiz:

- 1) boshlansin;
- 2) A, B, D sonlar qiymati aniqlansin;
- 3) A soni max deb olinsin;
- 4) Agar max soni B sondan kichik bo'lsa B son max deb olin sin;.
- 5) Agar max soni D sondan kichik bo'lsa D son max deb olin sin;
- 6) javob sifatida max yozilsin;
- 7) tugallansin.



**M-2.** Quyidagi algoritmlar qanday algoritm turiga misol bo'lishini va natijasini aniqlang:

a) $a:=3$ ; $x:=2*a+a*a$ . $a=?$ , $x=?$	Chiziqli algoritm: $a=3$ , $x=2*3+3*3=6+9=15$
b) $x:=1$ ; $x:=x+11$ , $x:=x*x-4$ . $x=?$	Chiziqli algoritm: $x=1$ ; $x=1+11=12$ ; $x=12*13-4=144-4=140$
d) $a:=15$ ; $b:=a$ ; $a:=a-b$ . $a=?$ , $b=?$	Chiziqli algoritm: $b=15$ ; $a=15-15=0$

e) 1) $a:=3$ ; 2) agar $a>2$ bo'lsa, u holda $x:=2*a+a*a$ va 4-bandga o'tilsin, aks holda 3-bandga o'tilsin; 3) $x:=9-a*x$ ; 4) natija x yozilsin; 5) tugallansin.	Tarmoqlanuvchi algoritm. $a=3$ ; $a (=3)>2$ shart bajariladi, shuning uchun $x=2*a+a*a=$ $=2*3+3*3=6+9=15$ Javob: $x=15$
--	--

f) 1) $x:=1$ ; 2) agar $x > 2$ bo'lsa, u holda $x:=x+11$ va 4-bandga o'tilsin, aks holda 3-bandga o'tilsin;	Tarmoqlanuvchi algoritm. $x=1$ ; $x (=1)>2$ shart bajarilmaydi A 630 nomidagi O'zbekiston MK
--	--

- 3)  $x := x * x - 4$ ;  
 4) natija x yozilsin;  
 5) tugallansin.


di, shuning uchun  $x = x * x - 4 = -1 * -1 - 4 = 1 - 4 = -3$   
 Javob:  $x = -3$

- g) 1)  $a := 15$ ;  
 2)  $b := a$ ;  
 3) agar  $a > b$  bo'lsa, u holda  $a := a - b$  va 5-bandga o'tilsin, aks holda 4-bandga o'tilsin;  
 4)  $a := a + b$ ;  
 5) natija a, b yozilsin;  
 6) tugallansin.

Tarmoqlanuvchi algoritm.  
 $a = 15$ ;  
 $b = a (= 15)$ ;  
 $a (= 15) > b (= 15)$  shart bajarilmaydi, shuning uchun  
 $a = a + b = 15 + 15 = 30$   
 Javob:  $a = 30$ ;  $b = 15$

**M-3.** Berilgan sonni ishorasini aniqlovchi algoritmini blok-sxema yordamida tuzing.


Ma'lumki, A soni manfiy, musbat yoki nol bo'ladi. Shuning uchun avval A sonini 0 dan kichiklikka tekshiramiz, agar son 0 dan kichik bo'lsa "A manfiy" deb javob chiqarib algoritmini tugatamiz. Aks holda A sonni 0 dan kattalikka tekshiramiz, agar son 0 dan kichik bo'lsa "A musbat" deb javob chiqarib algoritmini tugatamiz.



Aks holda A soni mansiy ham, musbat ham bo'lmaydi, shuning uchun "A nol" deb javob chiqarib algoritmini tugatamiz.

**M-4.**  $y = x^2 - 1$  funksiyasini x ning [1; 10] oraliqdagi butun qiymatlarida hisoblash algoritmini blok-sxema shaklida tuzing.

[1; 10] oraliqda x ning butun qiymatlari 1; 2; 3; ...; 10 bo'ladi. Demak, algoritim takrorlanuvchi bo'ladi. Avval  $x=1$  da funksiyani hisoblaymiz, javob sifatida x ni qiymatini va unga mos y ning qiymatini chiqaramiz. Agar x ning qiymati 10 dan kichik bo'lsa, uni qiymatini bittaga oshiramiz, ya'ni  $x=x+1$ , so'ng yana funksiya qiymatini hisoblab, x va unga mos y qiymatni chiqaramiz.




Agar  $x=9$  bo'lsa, funksiya qiymatini hisoblab x va unga mos y qiymatni chiqaramiz. Bu holda ham  $x (=9) < 10$  bo'ladi, shuning uchun x ni qiymatini bit-

taga oshiramiz, ya'ni  $x=x+1$  ( $=10$ ), funksiya qiymatini hisoblab x va unga mos y qiymatni chiqaramiz. Endi  $x=10$  (10 dan kichik emas) bo'lgani uchun algoritmi tamomlaymiz.

## 10 –dars. Algoritmning asos tuzilmalari mavzusiga

**1-masala.** Uchta  $a$ ,  $b$ ,  $c$  sonlar berilgan.  $a$  va  $b$  sonlar yig'indisi yarminini,  $a$  va  $c$  sonlar ayirmasini modulini,  $b$  va  $c$  sonlar ko'paytmasini kvadratini hisoblash algoritmini tuzing.


Bu masala algoritmi chiziqli bo'ladi, chunki faqat qiymat berish va oddiy hisoblashlardan iborat.



Algoritm blok-sxemasiidagi bloklarni tagidan yoki yonidan yozish mumkin.

**2-masala.** Radiusi  $R$  ga teng aylana uzunligi, doira yuzi va shar hajmini hisoblash algoritmini tuzing (yo'llanma:  $L=2\pi R$ ;  $S=\pi R^2$ ;  $V=\frac{4}{3}\pi R^3$ ).


Avvalgi masala kabi bu masala algoritmi ham chiziqli bo'ladi. Algoritm blok-sxemasi ham farq qilmaydi, faqat formulalar o'zgaradi.



**3-masala.** Berilgan  $a$  son musbat bo'lsa, u holda uning kvadratini va kvadrat ildizini hisoblash algoritmini tuzing.


Bu masala algoritmi tarmoqlanuvchi bo'lib, faqat bir holatda, ya'ni  $a > 0$  shart bajarilganda amallar bajarilishi talab etilmoqda. Shuning uchun tarmoqlanish tuzilmasini qisqa ko'rinishidan foydalanish qulay.

**boshlansin**  
a kiritilsin  
**agar  $a > 0$**   
**u holda**  
 $kv := a^2$   
 $kvi := \sqrt{a}$   
kv, kvi chiqarilsin  
**oxiri**  
**tamomlansin**



**4-masala.** Uchta  $a, b, c$  sonlar berilgan. Ular ichida manfiy bo'limgan sonlar kvadrat ildizini hisoblash algoritmini tuzing.


Bu masala algoritmi ham tarmoqlanuvchi bo'lib, faqat bir holatda, ya'ni berilgan sonlar manfiy bo'limganda, ya'ni berilgan sonlar musbat yoki 0 bo'lгanda, amallar bajarilishi talab etilmoqda. Shuning uchun tarmoqlanish tuzilmasini qisqa ko'rinishidan foydalanish qulay.



**5-masala.** Uchta  $a, b, c$  sonlar berilgan.  $a < b - c$  shart bajarilsa "Ha", aks holda "Yo'q" deb javob chiqaruvchi algoritm tuzing.


Bu masala algoritmi ham tarmoqlanuvchi, lekin shart bajarilsa ham bajarilmasa ham amallar bajarilishi talab etilmoqda. Shuning uchun bu holda tarmoqlanish tuzilmasini to'liq shaklidan foydalanish qulay.

**boshlansin**  
 a, b, c kiritilsin  
**agar**  $a < b - c$   
**u holda**  
     “Ha” chiqarilsin  
**aks holda**  
     “Yo‘q” chiqarilsin  
**oxiri**  
**tamomlansin**



**6-masala.**  $a$  va  $b$  sonlar berilgan. Agar ularning ko‘paytmasi mustab bo‘lsa, ularning har birini kvadratini, aks holda ularning har biriga 100 ni qo‘sib chiqaruvchi algoritm tuzing.

Bu masala algoritmida ham tarmoqlanuvchi tuzilmani to‘liq shaklidan foydalanish qulay. Hisoblash jarayonida hajarilayotgan amallar qiymatini saqlab turish uchun yordamchi belgililar kiritish yoki bor belgilardan foydalanish mumkin.



**7-masala.** Natural  $x$  ning qiymati berilgan  $a$  sonidan kichik bo‘lganda  $y=ax^2+20$  funksiyaning qiymatlarini hisoblash algoritmini tuzing.

Demak,  $x$  ning  $a$  dan kichik har bir qiymatida  $y$  funksiyani hisoblash kerak. Lekin, takrorlanishlar soni avvaldan ma’lum emas, shuning uchun shart bo‘yicha takrorlash tuzilmasidan foydalanish qulay.

**boshlansin**

a kiritilsin

x:=1

**toki**  $x < a$


$$y := ax^2 + 20$$

x, y chiqarilsin

$$x := x + 1$$

**oxiri**

**tamomlansin**



**8-masala.** Berilgan A va B musbat sonlarning qiymatlari teng bo'lguncha bu sonlarni kattasidagi kichigini ayirmasi bilan almashtirib boruvchi algoritmda shart bo'yicha takrorlash tuzilmasidan foydalanish qulay.

Bu masalada A va B sonlarni kattasidagi kichigini ayirish orqali tenglashtirish talab qilingan. Kattasidagi kichigini ayirish jarayoni necha marta takrorlanishi avvaldan noma'lum. Shuning uchun algoritmda shart bo'yicha takrorlash tuzilmasidan foydalanish qulay.

**boshlansin**

A, B kiritilsin

**toki**  $A \neq B$

agar  $A > B$

u holda

$$A := A - B$$

aks holda


$$B := B - A$$

**oxiri**

**oxiri**


A, B chiqarilsin

**tamomlansin**



**9-masala.** "O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat!" iborasini shu o'quv yilida Vatanimiz mustaqilligining nishonlangan sonicha yozdirish algoritmini tuzing.

Masaladan takrorlanishlar sonini aniqlash mumkin. Shuning uchun parametrlı takrorlash tuzilmasidan foydalanish qulay.




**M-1.** Tezligi  $V$  km/soat bo'lgan mashinaning  $T$  soatda bosib o'tgan yo'lini hisoblash algoritmini tuzing.

Masala algoritmi chiziqli bo'ladi, chunki faqat qiymat berish, chiqarish va oddiy hisoblashdan iborat. Bosib o'tgan yo'lni formulasiga:  $S=V \cdot T$ . Algoritmnini blok-sxemasidagi bloklarni tagma-tag yoki yonma-yon yozish mumkin.

**So'z orqali:**

**boshlansin**  
 $V, T$  kiritilsin  
 $S:=V \cdot T$   
 $S$  chiqarilsin  
**tamomlansin**




**M-2.** Radiuslari, mos ravishda,  $R_1, R_2, R_3$  ga teng doiralarning umumiy yuzini kvadratini hisoblash algoritmini tuzing.

Masala algoritmi chiziqli bo'ladi, chunki faqat qiymat berish, chiqarish va oddiy hisoblashdan iborat. Kerakli formulalar:  $S_1=\pi R_1^2$ ;  $S_2=\pi R_2^2$ ;  $S_3=\pi R_3^2$ ;  $S=S_1+S_2+S_3$  yoki yuzani bitta formula bilan ham ifodalash mumkin  
 $S=\pi(R_1^2+R_2^2+R_3^2)$ .

**So'z orqali:**


**boshlansin**  
 $R_1, R_2, R_3$  kiritilsin  
 $S:=\pi(R_1^2+R_2^2+R_3^2)$   
 $S$  chiqarilsin  
**tamomlansin**



**M-3.** Tomonlari, mos ravishda,  $a$  va  $b$  bo'lgan kvadratlarning yuzalari farqini modulini topuvchi algoritm tuzing.

Masala algoritmi chiziqli bo'ladi.  
 Kerakli formulalar:  
 $S1=a^2$ ;  $S2=b^2$ ;  $\text{farq} = |S1-S2|$ .  
 Farqni bitta formula bilan ham ifodalash mumkin:  
 $\text{farq} = |a^2 - b^2|$ .


**So'z orqali:**  
**boshlansin**  
 a, b kiritilsin  
 $\text{farq} = |a^2 - b^2|$   
 farq chiqarilsin  
**tamomlansin**



**M-4.** Ikkita  $a$  va  $b$  sonlar berilgan. Agar  $b$  son  $a$  dan kichik bo'lsa, u holda  $b$  ni nol bilan almashtiruvechi, aks holda  $b$  o'zgarishsiz qoldiruvchi algoritm tuzing.

Bu masala algoritmi tarmoqlanuvchi bo'lib, faqat bir holatda, ya'ni  $b < a$  shart bajarilganda amallar bajarilishi talab etilmoqda. Shuning uchun tarmoqlanish tuzilmasini qisqa ko'rinishidan foydalanish qulay.


**So'z orqali:**  
**boshlansin**  
 a, b kiritilsin  
**agar b < a**  
holda  
 $b:=0$   
**oxiri**  
 a, b chiqarilsin  
**tamomlansin**



**M-5.**  $a$ ,  $b$  va  $c$  sonlar berilgan. Agar  $a$  son toq bo'lsa uchchala sonni ko'paytmasini, aks holda uchchala sonni yig'indisining chorak qismini hisoblash algoritmini tuzing.

Bu masala algoritmi ham tarmoqlanuvchi va shart bajarilsa ham bajarilmasa ham amallar bajarilishi talab etilmoqda. Shuning uchun bu holda tarmoqlanish tuzilmasini to'liq shakiidan foydalanish qulay.


**So'z orqali:**  
**boshlansin**  
 a, b, c kiritilsin  
**agar  $|a/2| \neq a/2$**   
holda  
 $k := a * b * c$   
**aks holda**  
 $k := (a+b+c)/4$   
**oxiri**  
 k chiqarilsin  
**tamomlansin**



**M-6.**  $a$ ,  $b$ ,  $c$  sonlar berilgan.  $a+b+c < 0$  shart bajarilsa  $y = a^2 - b^2$  ni, aks holda  $y = a^2 + c^2$  ni hisoblash algoritmini tuzing.

Bu masala algoritmi ham tarmoqlanuvchi va shart bajarilsa ham bajarilmasa ham amallar bajarilishi talab etilmoxda. Shuning uchun bu holda tarmoqlanish tuzilmasini to'liq shaklidan foydalanish qulay.

**So'z orqali:**  
**boshlansin**  
 a, b, c kiritilsin  
**agar**  $a+b+c < 0$   
**u holda**  
 $y := a^2 - b^2$   
**aks holda**  
 $y := a^2 + c^2$   
**oxiri**  
 y chiqarilsin  
**tamomlansin**




**M-7.** -100 dan 50 gacha bo'lgan sonlar oralig'idagi toq sonlar ko'paytmasini hisoblash algoritmini tuzing.

Masalani ikki xil usulda hal etamiz:

1-usul. Masalada takrorlanishlar soni avvaldan ma'lum, shuning uchun parametrlı takrorlash tuzilmasidan foydalanish mumkin.

2-usul. Shart bo'yicha takrorlash tuzilmasidan foydalanish mumkin.

Ko'paytma hisoblanayotgani uchun ikkala usulda ham p ning boshlang'ich qiymati 1 deb olinadi.



## 11 – dars. Takrorlashga doir topshiriqlar

**T-1.** Kompyuterda masalalar yechishning birinchi uch bosqichini tomoni  $a$  ga teng bo'lgan kvadratga ichki chizilgan doiraning yuzini topish masalasi asosida ko'rsatib hering.

## Masalaning qo‘yilishi.

Berilgan:

kvadrat{ya'ni, barcha tomoni teng}

kvadrat tomoni a

kvadratga doira ichki chizilgan

Tonish kerak: Sa (doira yuzi)

#### Masalaning modelini tuzish

### **Masalaning modelini tuzish.**

Chizmaga asosan:  $a=2 \cdot R$  yoki  $R = \frac{a}{2}$

Daire yüzey formülasyonu:  $S_d = \pi \cdot R^2$


Bundan quyidagi model hosil bo'ldi:

$$S_d = \pi \cdot \left( \frac{a}{2} \right)^2$$

## Algoritm tuzish

Soz' orgali:

- 1) boshlansin;
  - 2) a ni qiymati aniqlansin;
  - 3)  $S_d := 3,14 \cdot \left(\frac{a}{2}\right)^2$ ;
  - 4) javob sifatida  $S_d$  yozilsin;
  - 5) tugallansin.



**T-2.** Kompyuterda masalalar yechishning birinchi uch bosqichini tomoni  $a$  ga teng bo'lgan kvadratga tashqi chizilgan aylananing uzunligini topish masalasi asosida ko'rsatib bering.

## Masalaning qo‘yilishi.

Berilgan:

kvadrat{ya'ni, barcha tomoni teng{

kyadrat tomoni a

kvadratga aylana tashqi chizilgan

Topish kerak: L. *javiana* uzunligi:


#### **Masalaning modelini tuzish**

Chizmaga ya Pifagor teorema

Cuzmagá va Phagor teoremasiga awoodan, a  $\tau$  a ( $\in R$ ) yoki a


$$R = \frac{a}{\sqrt{2}}$$

Aylana uzunligi formulası:  $L=2\pi R$




Chizmasi

Chizmasi



Bundan shunday model hosil bo'ladi:  $L = \sqrt{2} \cdot \pi \cdot a$ .

### Algoritm tuzish.



**T-3.** Kompyuterda masalalar yechishning birinchi uch bosqichini quyidagi masalani hal etish asosida ko'rsatib bering: 50 litrlik idishda 5 kilogramm osh tuzi qo'shilgan 20 litr aralashma bor. Agar idishga yana 10 litr suv qo'shilsa aralashmadagi tuz miqdorini foiz hisobida toping.

#### Masalaning qo'yilishi.

Berilgan:

20 litr aralashmada 5 kg tuz bor

aralashmaga 10 litr suv qo'shildi

Topish kerak: tuz miqdori {foiz hisobida}

#### Chizmasi



#### Masalaning modelini tuzish.

1 litr suv 1 kg bo'lgani uchun, 20 litr aralashmada  $20 \text{ kg} - 5 \text{ kg} = 15 \text{ kg} = 15 \text{ litr suv bor}$

10 litr suv qo'shilganda idishda 25 litr suv va 5 kg tuz bo'ladi


30 kg aralashma – 100 %

5 kg tuz – X %


Proporsiya yordamida quyidagiga ega bo'lamiz:

$$X = (5 \text{ kg} : 100\%) : 30 \text{ kg}$$

## Algoritm tuzish.



**T-4.** Berilgan  $x$  da  $y = \begin{cases} 19 \cdot x^2 - 50, & \text{agar } x \leq 2 \\ x - 3, & \text{agar } x > 2 \end{cases}$  funksiyaning qiymatini hisoblash algoritmini so‘zlar va blok-sxema yordamida tuzing.




**T-5.** 1 dan 100 gacha bo‘lgan sonlar ichidan 11 ga karrali sonlarning P ko‘paytmasini topish algoritmini so‘zlar yordamida tuzing.


1-usul:	2-usul	3-usul
<b>boshlansin</b>	<b>boshlansin</b>	<b>boshlansin</b>
$P := 1$	$P := 1$	$P := 1$
$K := 1$	$K := 1$ dan 100 gacha	$K := 1$
<b>toki</b> $K \leq 100$	<b>agar</b> $[K/11] = K/11$	<b>toki</b> $K \leq 100$
<b>    agar</b> $[K/11] = K/11$	<b>    u holda</b>	$P := P * K$
<b>        u holda</b>	<b>        u holda</b>	$K := K + 11$
$P := P * K$	$P := P * K$	<b>    oxiri</b>
<b>oxiri</b>	<b>oxiri</b>	$P$ chiqarilsin
$K := K + 1$	$P$ chiqarilsin	<b>tamomlansin</b>
<b>oxiri</b>	<b>tamomlansin</b>	

P chiqarilsin  
**tamomlansin**

**T-6.** 1 dan 500 gacha oraliqda bo'lgan toq sonlarning S yig'indisini topish algoritmini blok-sxema shaklida tuzing.



**T-7.** A natural son berilgan. 1 dan 1000 gacha bo'lgan sonlar ichida raqamlari ko'paytmasi A songa teng bo'lgan sonlar S yig'indisini topish algoritmini blok-sxema shaklida tuzing.



## **12 – dars. Dastur va dasturlash tillari mavzusiga**

**T-4.** Dasturlash tillari elektron hisoblash mashinalarining turlariga bog'liq bo'ladi? Javobingizni asoslang.

Albatta bog'liq bo'ladi. Har bir dasturlash tili yoki uning biror naqli (versiyasi) kompyuter imkoniyatlariga talab qo'yadi, masalan: ra-zryadiga, tezkor xotira hajmiga, adreslar sohasiga va hokazo. Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan kompyuterlar uchun ularga mos dasturlash tillarining naqlari ishlab chiqarilmoqda.

## **13 – dars. Turbo Pascal 7.0 integrallashgan muhiti mavzusiga**

**M-a)** O'zbekiston Respublikasi madhiyasining birinchi to'rtligini kriting;

Mashqning bajarilishi: Turbo Paskal integrallashgan muhiti ishga tushiriladi. **File** menyusidan **New** buyrug'i tanlanadi. Hosil bo'lgan dastur matn muharriri oynasining matn maydoniga Bloknot matn muharriridagi kabi O'zbekiston Respublikasi madhiyasining birinchi to'rtligi kiritiladi.

**M-b)** Yangi oyna oching va unga Respublikamiz madhiyasining ikkinchi to'rtligini kriting;

Mashqning bajarilishi: **File** menyusidan **New** buyrug'i tanlanadi. Hosil bo'lgan ikkinchi dastur matn muharriri oynasining matn maydoniga O'zbekiston Respublikasi madhiyasining ikkinchi to'rtligini kiritamiz.

**M-d)** 2-oynadagi matnning (madhiyaning 2-to'rtligi) nusxasini olib, 1-oynadagi madhiyaning 1-to'rtligini davomiga joylashtiring.

Mashqning bajarilishi: Faol oynadagi O'zbekiston Respublikasi madhiyasining ikkinchi to'rtligi matnni bosh qismiga yurgichni joylashtiramiz. So'ng, **Shift** klavishini bosib turgan holda zaruratga qarab ↓ yoki → yo'nalish klavishini yurgich matn oxiriga kelgunga qadar bosib turamiz. Natijada matn (rangli fonda aks etadi) belgilab olinadi. Endi belgilangan qismni xotira buferiga olish uchun **Edit** menyusining **Copy** buyrug'i tanlanadi yoki **Ctrl+Ins** tezkor klavishlar justligi bosiladi. **F6** klavishini bosish orqali birinchi oyna faollashtiriladi. Yurgichni faol oynadagi matn maydonini kerakli joyiga joylashtiriladi.

Xotiradagi matn nusxasini joylashtirish uchun **Edit** menyusining **Paste** buyrug'i tanlanadi yoki **Shift+Ins** tezkor klavishlar juftligi bosiladi. Natijada nusxa madhiyaning birinchi to'rtligi davomiga joylashadi.

**M-e)** 1-oynadagi matnni "Madhiya.txt" nomi bilan saqlang;

Mashqning bajarilishi: O'zbekiston Respublikasi madhiyasining birinchi va ikkinchi to'rtligi yozilgan birinchi oynadagi matnni saqlash uchun **File** menyusining **Save** yoki **Save as** buyruqlaridan biri tanlanadi yoki **F2** tezkor klavish bosiladi. Natijada saqlash muloqot oynasi hosil bo'ladi. Ushbu oynaninig **Save file as** darchasining yurgich tur-gan joyiga Madhiya.txt yozilgach **OK** tugmasi tanlanadi yoki **Enter** klavishi bosiladi.

**M-f)** 2-oynani saqlamasdan yoping.

Mashqning bajarilishi: Yuqoridagi vazifalarni bajarib bo'lgandan so'ng **F6** klavishini bosish orqali ikkinchi oyna faollashtiriladi. Faol oynani yopish uchun yopish  to'rburchagini tanlash yoki **Alt+F3** tezkor klavishlarini bosish mumkin. Natijada so'rov oynasi hosil bo'ladi. Ushbu oynadan  tugmasi tanlansa ma'lumotlar saqlanmasdan yopiladi.

## 14 – dars. Paskal dasturlash tili alifbosi va tuzilishi mav-zusiga

**M-1.** O'ng ustundagi belgilarni chap ustundagi to'plamiga mosini aniqlang.

Yechim:

Mantiqiy amallar
Munosabat belgilari
Maxsus belgilari

NOT, OR
<, <=, >, >=

**M-2.** Chap ustundagi iboralarga o'ng ustundagi tavsiflarni mosini aniqlang.

Yechim:

Modularni qo'llash
Nishonlarni tavsiflash
Dasturni nomlash
O'zgaruvchini tavsiflash

Uses Crt;
Label 19;
Program 9_sinf;
Var a21: integer;

**M-3.** Identifikator nomlarini “To‘g‘ri yozilgan” va “Noto‘g‘ri yozilgan” guruhlariga ajrating va sababini izohlang.

a	1kun	MeningBirinchiDasturim	BMA
Chegara#4	Keyingi yil	Kun_21_iyul_1963	and

Yechim:

To‘g‘ri yozilgan			
a	MeningBirinchiDasturim	BMA	Kun_21_iyul_1963

Noto‘g‘ri yozilgan	
1kun	Identifikator nomi lotin harfi yoki tagchiziq belgisidan boshlanadi, raqamdan boshlanishi mumkin emas
Chegara#4	Identifikator nomida lotin harfi, tagchiziq belgisi va raqam ishtirok etadi, # belgisi ishtirok etishi mumkin emas
Keyingi yil	Identifikator nomida probel belgisi ishtirok etishi mumkin emas
and	Identifikator nomida Paskal tilining zaxira so‘zi ishtirok etishi mumkin emas

## 15 – dars. O‘zgarmas va o‘zgaruvchi miqdorlar mavzusiga

**M-1.** Quyidagi o‘zgamaslarni turlarini aytib bering.

- a) ‘7!‘; ‘informatika‘; ‘-987378‘; ‘BMA‘; – bu o‘zgarmaslar satrli o‘zgarmaslar turiga kiradi, chunki belgilari apostrof ichida yozilgan va bittadan ortiq.
- b) ‘.; ‘u‘; ‘0‘; ‘\*‘; – bu o‘zgarmaslar belgili o‘zgarmaslar turiga kiradi, chunki o‘zgarmaslar apostrof ichiga olingan va bitta belgidan iborat.
- d) 99; -200; 101; 87; – bu o‘zgarmaslar sonli o‘zgarmaslar turining butun turiga kiradi.
- e) 0.01; 8.909; 132.001; 878887.1; – bu o‘zgarmaslar qo‘zg‘almas nuqtali sonli o‘zgarmaslar turiga kiradi, chunki ular o‘nli kasr ko‘rinishida berilgan.
- f) 0.07 E-3; -9.8 E6; – bu o‘zgarmaslar qo‘zg‘aluvechi nuqtali sonli o‘zgarmaslar turiga kiradi, chunki ular eksponensial ko‘rinishida berilgan (E yoki e yordamida ifodalangan).
- g) True; False; – bu o‘zgarmaslar mantiqiy o‘zgarmaslar turiga kiradi. Bu yerda, mantiqiy o‘zgarmaslar True (rost), False (Yolg‘on) qiymatli.

## M-2. Quyidagi o'zgaruvchilarni turlarini aniqlang va izohlang.

- a) men : Boolean; – **men** nomli o'zgaruvchini mantiqiy o'zgaruvchi turiga mansubligi **Boolean** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, u True yoki False qiymatlarni qabul qilishi mumkin.
- b) bahodir : String[7]; – **bahodir** nomli o'zgaruvchini 7 ta belgili satrli o'zgaruvchi turiga mansubligi **String[7]** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, demak, bahodir nomli o'zgaruvchiga xotiradan 7 bayt joy ajratiladi va u 7 ta belgidan oshmaydigan belgili o'zgarmaslar qiymatini qabul qilishi mumkin.
- d) hayot : Real; – **hayot** nomli o'zgaruvchini haqiqiy sonli o'zgaruvchi turiga mansubligi **Real** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, demak, hayot nomli o'zgaruvchi  $-2,9 \cdot 10^{-9} \dots 1,7 \cdot 10^{38}$  oraliqdagi sonli o'zgarmaslar qiymatini qabul qilishi mumkin.
- e) son : char; – **son** nomli o'zgaruvchini qiymati belgili o'zgaruvchi turiga **Char** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, demak u belgili o'zgarmaslar qiymatini qabul qilishi mumkin.
- f) baxt : Integer; – **baxt** nomli o'zgaruvchini butun sonli o'zgaruvchi turiga mansubligi **Integer** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, demak, baxt nomli o'zgaruvchi  $-32\,768 \dots 32\,767$  oraliqdagi butun sonli o'zgarmaslar qiymatini qabul qilishi mumkin.
- g) ser : Single; – **ser** nomli o'zgaruvchini haqiqiy sonli o'zgaruvchi turiga mansubligi **Single** maxsus so'z orqali ta'kidlanmoqda, demak, ser nomli o'zgaruvchi  $-1,5 \cdot 10^{-48} \dots 3,4 \cdot 10^{38}$  oraliqdagi haqiqiy sonli o'zgarmaslar qiymatini qabul qilishi mumkin.

## 16 – dars. O'zgarmas va o'zgaruvchi miqdorlar mavzusini takrorlash mavzusiga

### M-1. Quyidagi o'zgarmaslarni turlarini ayтиб беринг.

a) $-9.22 \cdot 10^{-2}$ ; $0.01 \cdot 10^5$ ; $1.11 \cdot 10^{-4}$ ;	– qo'zg'aluvchan nuqtali
b) 21; 21; 7; 7; 19; 19; 63; 63; -	– butun sonli o'zgarmaslar
d) true; true; true; false; false; false;	– mantiqiy o'zgarmaslar
e) '555'; 'aar'; 'mmr'; 'bbj'; 'aga';	– satrli o'zgarmaslar
f) 'Muqaddas'; 'Vatan'; 'Mustaqil';	– satrli o'zgarmaslar
g) 'i'; 'n'; 's'; 'o'; 'n'; 'i'; 'y'; 'a'; 't';	– belgili o'zgarmaslar

### M-2. O'zgaruvchilarga nom berib turiga mos tavsiflang.

a) belgili <b>b:char;</b> <b>aa21:char;</b>	b) haqiqiy <b>h:real;</b> <b>ha:real;</b>	d) mantiqiy <b>m:boolean;</b> <b>g20: boolean;</b>	c) satrli <b>s:string;</b> <b>h19:string;</b>
f) belgilari 7 tadan oshmaydigan satrli <b>satr:string[7]; ss: string[7];</b>			

**M-3.** Har bir bandda bitta o'zgaruvchining barcha qiymati berilgan yoki xususiyati ifodalangan. Shu o'zgaruvchilarga nom bering va tavsiflang.

a) -5; 0; 7; 58; -15; 9.  <b>b: ShortInt; m:integer;</b>	b) 'Xalq'; 'Vatan'; 'Ona'.  <b>a:string[5]; g: string;</b>
d) 7.21; 4.2; 50.1902; -1.23.  <b>h:Single; haq:string;</b>	e) birinchi 7 ta tub son.  <b>t:byte; tub:word;</b>
f) true; true; false; true; false.  <b>man:boolean; s: boolean;</b>	g) '000'; '001'; '002'; '003'.  <b>aa:string[3]; ag: string;</b>
h) alifbo harflari.  <b>al:char; bel:string;</b>	i) 'Yuksak'; 'ma'naviyat', 'yengilmas'; 'kuch'.  <b>ss:string[10]; kia:string;</b>

**M-4.** Barcha qiymati berilgan butun o'zgaruvchilarga nom berib tavsiflang. O'zgaruvchini turini tanlashda xotiradan kam joy olishiga erishing.

a) -4; 0; -4; 8; 12;  <b>sho: ShortInt;</b> bu holda <b>sho</b> xotiradan 1 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi -127..128; 1 bayt joy egallaydigan <b>byte</b> turini olib bo'lmaydi, chunki bu turda o'zgaruvchi qiymati manfiy bo'la olmaydi	b) 1; 16; 256; 4096; 65536;  <b>w2: word;</b> bu holda <b>w2</b> xotiradan 2 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi 0 .. 65536; xotiradan 2 bayt joy egallaydigan <b>integer</b> turini olib bo'lmaydi, chunki bu turda qiymat chegarasi -32768 .. 32767
d) 0; 2; 4; 6; 8; 10;  <b>juft: byte;</b> bu holda <b>juft</b> xotiradan 1 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi 0..255; <b>ikki: ShortInt;</b> bu holda <b>ikki</b> xotiradan 1 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi -127..128; boshqa butun turlarda xotiradan kamida 2 bayt joy oli-	e) 29350; -2; 8000; 250;  <b>son1: integer;</b> bu holda <b>son1</b> xotiradan 2 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi -32768 .. 32767; 1 bayt joy egallaydigan <b>byte</b> yoki <b>shortint</b> turlarni olib bo'lmaydi, chunki bu sonlar turlarni qiymat chegarasidan chiqib

nadi	ketadi
f) 5; -32767; 46; 0; 32767; <b>son2: integer;</b> bu holda <b>son2</b> xotiradan 2 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi -32768..32767; 1 bayt joy egallaydigan <b>byte</b> yoki <b>shortint</b> turlarni olib bo'lmaydi, chunki bu sonlar turlarni qiymat chegarasidan chiqib ketadi	g) 200000; 2000; -20; 99999; <b>son3: longint;</b> bu holda <b>son3</b> xotiradan 4 bayt joy egallaydi, qiymati chegarasi -2147483648 ..2147483647; 2 bayt joy egallaydigan <b>word</b> yoki <b>integer</b> turlarni olib bo'lmaydi, chunki bu sonlar turlarni qiymat chegarasidan chiqib ketadi

**M-5.** Berilgan va amallar natijasida hosil bo'ladigan o'zgaruvchilarni tavsiflang.

a) f: butun; g: haqiqiy; d:=f*g+f+g; Arifmetikadan ma'lumki, butun songa haqiqiy son qo'shilsa haqiqiy son hosil bo'ladi, masalan $5+0,3=5,3$ . Shuning uchun d o'zgaruvchi turi haqiqiy bo'ladi. U holda quyidagi o'rinni: <b>Var f: integer; g, d: real;</b>	b) d: butun; n: butun; k:=d+2*n; Arifmetikadan ma'lumki, butun songa butun son qo'shilsa yoki butun songa butun son ko'paytirilsa butun son hosil bo'ladi. Shuning uchun k o'zgaruvchi turi butun bo'ladi. U holda quyidagi o'rinni: <b>Var d, b, k: integer;</b>
d) s: mantiqiy; e: mantiqiy; q:=not(s or e); Har qanday mantiqiy amal yana mantiqiy natijaga olib keladi. Shuning uchun q o'zgaruvchi turi mantiqiy bo'ladi. U holda quyidagi o'rinni: <b>Var s, e, q: boolean;</b>	e) k: toq; m: juft; vvv:= k+m/2; Paskalda bo'lish amali natijasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar haqiqiy turga mansub hisoblanaadi. Shuning uchun vvv o'zgaruvchi turi haqiqiy bo'ladi. Toq va juft sonlar butundir. U holda quyidagi o'rinni: <b>Var k, m: integer; vvv: real;</b>

## 17 – dars. Jadval ko‘rinishidagi miqdorlar mavzusiga

**M-1.** Quyida keltirilgan ketma-ketliklar qanday o‘lchovli massivlarni ifodalashini va nechta elementdan iboratligini aniqlang.

a) A[0], A[1], A[2], A[3], ... , A[99]; [ va ] qavslari ichida faqat bitta son yozilgan, demak massiv bir o‘lchovli. Elementlari sonini darslikdagi formula yordamida hisoblaymiz: $99-0+1=100 \text{ ta.}$	b) B[0,0], B[0,1], B[0,2], ... , B[3,5]; [ va ] qavslari ichida vergul bilan ajratilgan ikkita son yozilgan, demak massiv ikki o‘lchovli. Elementlari sonini darslikdagi formula yordamida hisoblaymiz: $(3-0+1) \cdot (5-0+1)=4 \cdot 6=24 \text{ ta.}$
d) M[0,0,0], M[0,0,1], ... , M[1,1,1]. [ va ] qavslari ichida vergul bilan ajratilgan uchta son yozilgan, demak massiv uch o‘lchovli. Elementlari sonini hisoblaymiz: $(1-0+1) \cdot (1-0+1) \cdot (1-0+1)=2 \cdot 2 \cdot 2=8 \text{ ta.}$	e) G[-22,3], G[-22,4], G[-22,5], ..., G[-20,5]. [ va ] qavslari ichida vergul bilan ajratilgan ikkita son yozilgan, demak massiv ikki o‘lchovli. Elementlari sonini darslikdagi formula yordamida hisoblaymiz: $(-20-(-22)+1) \cdot (5-3+1)=3 \cdot 3=9 \text{ ta.}$

**M-2.** Butun turdag'i, chiziqli 100 ta elementli jadval qaysi javobda to‘g‘ri tavsiflangan?

a) var B: array [1..100] of real; Tavsif bo‘yicha B massiv bir o‘lchovli, elementlari soni 100– $1+1=100$ ta, elementlari real, ya’ni haqiqiy turda. Xato javob.	b) var M: array [1..100] of char; Tavsif bo‘yicha M massiv bir o‘lchovli, elementlari soni 100– $1+1=100$ ta, elementlari char, ya’ni belgili turda. Xato javob.
d) var A: array [0..99] of string; Tavsif bo‘yicha A massiv bir o‘lchovli, elementlari soni 99– $0+1=100$ ta, elementlari string, ya’ni satrli turda. Xato javob.	c) var G: array [5..104] of integer; Tavsif bo‘yicha G massiv bir o‘lchovli, elementlari soni 104– $5+1=100$ ta, elementlari integer, ya’ni butun turda. To‘g‘ri javob.
f) var M: array [1..10,1..10] of integer; Tavsif bo‘yicha M massiv ikki	g) var A: array [5..104] of string; Tavsif bo‘yicha A massiv bir o‘lchovli, elementlari soni 104–

o'lchovli, elementlari soni $(10-1+1) \cdot (10-1+1) = 100$ ta, elementlari integer, ya'ni butun turda. Xato javob.	$5+1=100$ ta, elementlari string, ya'ni satrli turda. Xato javob.
---	---

**M-3.** 2-mashqdagি massivlarni turini, o'lchovini va elementlari sonini aniqlang.

Avvalgi mashqda bajarildi.

**M-4.** Bittadan bir o'lchovli butun va belgili jadvallarni hamda ikki o'lchovli haqiqiy turdagи jadvalni tavsiflang.

Bir o'lchovli butun turdagи jadval tavsifi:

var B: array [10..100] of integer;

Bir o'lchovli belgili turdagи jadval tavsifi:

var A: array [7..21] of string;

Ikki o'lchovli haqiqiy turdagи jadval tavsifi:

var M: array [1..23,10..10] of real;

## 18 – dars. Jadval ko‘rinishidagi miqdorlar mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** To‘g‘ri to‘rtburchakli haqiqiy turdagи sakkiz satrli va o‘n bir ustunli F jadval qanday tavsiflanishini aniqlang.

a) var A: array [8..11] of real;  
Tavsif bo‘yicha A massiv bir o'lchovli, elementlari soni  $11-8+1=4$  ta, elementlari real, ya'ni haqiqiy turda. Xato javob.

b) var B: array [1..8,1..11] of integer;  
Tavsif bo‘yicha B massiv ikki o'lchovli, elementlari soni  $(8-1+1) \cdot (11-1+1) = 88$  ta, elementlari butun, ya'ni haqiqiy turda. Xato javob.

d) var D: array [8..11,8..11] of real;  
Tavsif bo‘yicha D massiv ikki o'lchovli, elementlari soni  $(11-8+1) \cdot (11-8+1) = 16$  ta, elementlari real, ya'ni haqiqiy turda. Xato javob.

e) var M: array [0..8,0..10] of integer;  
Tavsif bo‘yicha M massiv ikki o'lchovli, elementlari soni  $(8-0+1) \cdot (10-0+1) = 99$  ta, elementlari integer, ya'ni butun turda. Xato javob.

f) var F: array [0..7,0..10] of real;

Tavsif bo'yicha F massiv bir o'lchovli, elementlari soni  $(7-0+1)\cdot(10-0+1)=88$  ta, elementlari real, ya'ni haqiqiy turda. To'g'ri javob.

g) var F: array [0..7,0..10] of char;

Tavsif bo'yicha F massiv bir o'lchovli, elementlari soni  $(7-0+1)\cdot(10-0+1)=88$  ta, elementlari char, ya'ni belgili turda. Xato javob.

**M-2.** I-mashqda tavsiflangan massivlarni turini, o'lchovini va elementlari sonini aniqlang.

Avvalgi mashqda bajarildi.

**M-3.** Pifagor jadvalini tuzing. Jadval elementlarini tahlil qiling. Massivga nom berib tavsiflang.

Pifagor jadvali quyidagi ko'rinishdagi karra jadvalidir:

Pif	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	1	2	3	4	5	6	7	8	9
2	2	4	6	8	10	12	14	16	18
3	3	6	9	12	15	18	21	24	27
4	4	8	12	16	20	24	28	32	36
5	5	10	15	20	25	30	35	40	45
6	6	12	18	24	30	36	42	48	54
7	7	14	21	28	35	42	49	56	63
8	8	16	24	32	40	48	56	64	72
9	9	18	27	36	45	54	63	72	81

Jadvalga **Pif** deb nom beramiz. Jadval ikki o'lchovli. Jadval elementlari satr bo'yicha ham 1 dan 9 gacha, ustun bo'yicha 1 dan 9 gacha tartiblangan. Jadval elementlari soni  $(9-1+1)\cdot(9-1+1)=81$  taga teng. Jadval elementlari 255 dan oshmaydigan butun musbat sonlar. Shuning uchun quyidagicha tavsiflaymiz:

**Var Pif: array [1..9, 1..9] of byte;**

**M-4.** Oilangiz a'zolarining ismi, tug'ilgan yili va ma'lumoti haqida jadval tuzing. Massivni tavsiflang va elementlarini tahlil qiling.

Quyidagi misoldagi kabi jadval tuziladi. Ism, tug'ilgan yil va ma'lumot ixtiyoriy tanlanishi mumkin:

Oila	1	2	3
1	Abdulla	1947	Oliy ma'lumotli
2	Bahodir	1950	Oliy ma'lumotli
3	Sayfulla	1950	Oliy ma'lumotli
4	Abdug'affor	1957	Oliy ma'lumotli

Jadvalga **Oila** deb nom beramiz. Jadval ikki o'lechovli. Jadval elementlari satr bo'yicha 1 dan 4 gacha, ustun bo'yicha 1 dan 3 gacha tartiblangan. Jadval elementlari soni  $(4-1+1)(3-1+1)=12$  ta. Jadval elementlari ham sonli ham satrli bo'lgani uchun **string** turni tanlaymiz. Agar xotiradan egallaydigan joy hajmini qisqartirmoqchi bo'lsak, u holda belgilari eng ko'p elementni aniqlaymiz. Bunday element 3-ustundagi 15 ta belgili "Oliy ma'lumotli" bo'lgani uchun massivni quyidagicha tavsiflaymiz:

**Var Oila: array [1..4, 1..3] of byte;**

**M-5.** Quyidagi **integer** turdag'i M chiziqli massiv elementlariga bo'sh katakda turiga mos qiymat bering. Massivni tavsiflang.

M[-7]	M[-6]	M[-5]	M[-4]	M[-3]	M[-2]	M[-1]

Yechim: Topshiriq shartiga ko'ra, M massiv elementlariga faqatgina **integer** turdag'i butun son kiritiladi. Bu sonlarni qiymati chegarasi -32758...32757 oraliqdida. Demak massiv elementlariga shu oraliqdagi ixtiyoriy butun sonni yozish mumkin. Tavsifi:

**M: array [-7..-1] of integer;**

M[-7]	M[-6]	M[-5]	M[-4]	M[-3]	M[-2]	M[-1]
-32758	32757	-1963	1963	1950	-23	21

**M-6.** Quyidagi **char** turdag'i B chiziqli massiv elementlariga bo'sh katakda turiga mos qiymat bering. Massivni tavsiflang va elementlarini ustun shaklida yozing. Massivni ikki o'lechovli massiv ko'rinishiga o'tkazib qayta tavsiflang.

B[9]	B[10]	B[11]	B[12]	B[13]	B[14]	B[15]	B[16]

Yechim: Topshiriq shartiga ko'ra, B massiv elementlariga faqatgina **char** turdag'i, ya'ni bitta belgi kiritiladi. Tavsifi:

**B: array [9..16] of char;**

B[9]	B[10]	B[11]	B[12]	B[13]	B[14]	B[15]	B[16]
A	B	a	b	M	!	+	{

**M-7.** Quyidagi **string** turdagি A massiv elementlariga bo'sh katakda turiga mos qiymat bering. Jadvalni tavsiflang. Massivga boshqa tartib raqamlari berib G nom bilan qayta tavsiflang.

A[7,1]	A[7,2]	A[7,3]	A[7,4]
A[8,1]	A[8,2]	A[8,3]	A[8,4]

**Yechim:** 1) Topshiriq shartiga ko'ra, ikki o'lchovli A massiv elementlari **string** turda, ya'ni har bir elementdagи belgilari soni 255 tadan oshmaydi, element bo'sh bo'lishi ham imumkin (quyidagi A[7,4] kabi). Jadval elementlari satr bo'yicha 7 dan 8 gacha, ustun bo'yicha 1 dan 4 gacha tartiblangan, ya'ni 2 ta satr va 4 ta ustundan iborat. Tavsifi:

**A: array |7..8, 1..4| of string;**

A[7,1]	A[7,2]	A[7,3]	A[7,4]
Informatika	Hayot go'zal	Kelajak yoshlar qo'lida	AAR
A[8,1]	A[8,2]	A[8,3]	A[8,4]
o	??????	---999.25.00;5+++	KjkjhkJ

2) Jadval nomini G deb olamiz. Elementlar tartib raqamlarini satr bo'yicha 1, 2 (chunki 2 ta satr bor), ustun bo'yicha 3, 4, 5, 6 (chunki 4 ta ustun bor) deb o'zgartiraymiz. Tavsifi:

**var G: array|1..2,3..6| of string;**

## 19 – dars. Standart funksiyalar va protseduralar, algebraik ifodalar mavzusiga

**T-6.** Trunc(4.7)=Round(4.7) o'rinnimi? Javobingizni izohlang.

Topshiriqni bajarilishi. O'rinni emas. Chunki Trunc funksiyasi o'zgaruvchi turini butun turga o'zgaruvchi qiymatini butunlashtirib (kasr qismini tashlab yuborib) o'tkazadi:  $\text{Trunc}(4.7) = 4$ , Round funksiyasi esa o'zgaruvchi turini butun turga o'zgaruvchi qiymatini yaxlitlab (kasr qismidagi 5 dan kichik raqamni butunlay tashlab yuborib, 5 va undan katta raqamlarni oldingi xonadagi raqamni oshirish sharti bilan tashlab yuborib) o'tkazadi:  $\text{Round}(4.7) = 5$ .

**T-7.** sin x-c ko'rinishidagi yozuv Paskalda nima uchun xato hisoblanadi?

Topshiriqni bajarilishi. Paskal dasturlash tilida identifikator nomida probel ishlatih bo'lmaydi, shuning uchun **sin x** xato yozilgan identifikator nomi hisoblanadi. Agar sinx funksiyasi Paskal tilida yozilishi kerak bo'lsa, u holda argument qavsga olinishi shart:  $\sin(x)$  kabi.

**T-8.**  $2^*-v$  ko'rinishidagi yozuv Paskalda to'g'ri yozilganmi? Javobingizni izohlang.

Topshiriqni bajarilishi. To'g'ri yozilgan. Chunki, Paskal tilida ifodadagi "\*" belgisidan keyin yozilgan "--" belgisi v o'zgaruvchini ishorasi deb olinadi. Masalan: agar  $v:=2$  bo'lsa,  $2^*-v = -2^2 = -4$ ; agar  $v:=-7$  bo'lsa, u holda  $2^*-v=2^*(-7)=2^7=14$ .

**T-9.**  $\text{sqr}(\text{abs}(x + \sin(x)) - \pi)$  ifodada amallar bajarilish tartibini izohlang.

Topshiriqni bajarilishi. Qavslarga e'tibor berib, birinchi navbatda  $\sin(x)$  funksiyasi, ikkinchi navbatda  $x + \sin(x)$  yig'indi, uchinchi navbatda  $\text{abs}(x + \sin(x))$  funksiyasi, to'rtinchi navbatda  $\text{abs}(x + \sin(x)) - \pi$  ayirma, va nihoyat, beshinchi navbatda  $\text{sqr}(\text{abs}(x + \sin(x)) - \pi)$  hisoblanishini aniqlaymiz.

**M-1.** Mavzuning 1-misolidagi qo'zg'aluvchi nuqtali sonlarni qo'zg'almas nuqtali sonlarga o'tkazing.

Yechim. Mavzuning birinchi misolida qo'zg'aluvchi nuqtali sonlarni mos funksiyalari bilan ko'chirib olib qo'zg'almas nuqtali sonlarga o'tkazamiz:

$\text{abs}(-4.9)$	4.9000000000e+00	4.9
$\text{abs}(4.9)$	4.9000000000e+00	4.9
$\text{sqr}(2.5)$	6.2500000000e+00	6.25
$\text{Sqrt}(16)$	4.0000000000e+00	4
$\text{Sqr}(0.0)$	0.0000000000e+00	0
$\text{Sqrt}(0.16)$	4.0000000000e-01	0.4
$\text{Sin}(0)$	0.0000000000e+00	0
$\text{Sin}(1)$	8.4147098481e-01	0.84147098481
$\text{Int}(5.3)$	5.0000000000e+00	5
$\text{Int}(5)$	5.0000000000e+00	5
$\text{Int}(-5.3)$	-5.0000000000e+00	-5
$\text{frac}(5.3)$	3.0000000000e-01	0.3
$\text{frac}(-5.3)$	-3.0000000000e-01	-0.3
$\text{frac}(5)$	0.0000000000e+00	0

## M-2. Quyidagi algebraik ifodalarni Paskal dasturlash tilida yozing.

a) $ax+b$ Javob: $a*x+b$	b) $xyz-23$ Javob: $x*y*z-23$
d) $ax^2+bx+c$ Javob: $a*x^2+b*x+c$ yoki $a*sqr(x)+b*x+c$	
f) $\frac{a+5}{2b}$ Javob: $(a+b)/(2*b)$	g) $8(a+b^2c)$ Javob: $8*(a+b^2*c)$ yoki $8*(a+sqr(b)^2*c)$
c) $a^2x^3-(1-y^2)^3$ Javob: $a^2*a^2*a*x*x*x-(1-y^2)*(1-y^2)*y$ yoki $sqr(a^2*a)*sqr(x)*x-sqr(1-sqr(y))$ yoki $sqr(sqr(a))*sqr(x)*x-sqr(1-sqr(y))$	
<i>a</i> darajagani $\exp(b*\ln(a))$ ko'rninishda yozishda ehtiyyot bo'lish lozim. Chunki, har doim ham $a>0$ shart hajarilmasligi mumkin. Bu esa Paskal dasturlash tilida xatolikka olib keladi. Iloji bo'lsa boshqa usulda yozish maqsadga muvoqiq.	

## M-3. Quyidagi ifodalarni Paskal dasturlash tilida yozing.

a) $25^{20} +  1-y $ Javob: $\exp(20*\ln(25))+abs(1-sqr(y))$	b) $ 5m  + \{100b\}$ Javob: $int(5*m)+frac(100*b)$
d) $xsina+ycosb-5$ Javob: $x*sin(a)+y*cos(b)-sqr(5)$	e) $\sin(\sin(x))+\cos(\sin(y))$ Javob: $\sin(\sin(x))+\cos(\sin(y))$
f) $21 - \sqrt{2011 - x^2}$ Javob: $2011-x^2 \geq 0$ da $21-sqrt(2011-sqr(x))$	g) $\sqrt[5]{x^3 + a} - \sqrt{2}$ Javob: $sqr(x)*x+a>0$ da $\exp(1/5*\ln(sqr(x)*x+a))-sqr(2)$ $sqr(x)*x+a<0$ da $\exp(-1/5*\ln(-(sqr(x)*x+a)))-sqr(2)$ $sqr(x)*x+a=0$ da $-sqr(2)$
h) $\sqrt[4]{x} + 5\sqrt[3]{y}$ Javob: $x>0$ va $y>0$ da $sqr(sqrt(x))+5*exp(1/3*ln(y))$ $x>0$ va $y>0$ da $sqr(sqrt(x))+5*exp(-1/3*ln(-y))$ $x>0$ va $y=0$ da $sqr(sqrt(x))$	i) $2\pi R + \pi R^2$ Javob: $2*pi*R+pi*R^2$

**M-4.** Paskalda yozilgan quyidagi ifodalar orasidan noto'g'ri yozilganini toping.

a) $2^*a+b$ ; to'g'ri yozilgan	b) $\text{sqr}(x^*b^2)$ ; noto'g'ri, Paskalda $b^2$ kabi yozilmaydi	d) $\sin(-3*x)$ ; to'g'ri yozilgan
e) $\sin(a+b+\cos(x))$ ; noto'g'ri, hitta ochilgan qavs ortiqcha		f) $2^*(-b)+a2$ to'g'ri yozilgan

**M-5.** Paskalda yozilgan quyidagi ifodalarni oddiy yozuv ko'rinishiga o'tkazing.

a) $a^* (\text{Sqr}(x)+1)$ ; Javob: $a \cdot (x^2+1)$	b) $\sin (x^*x^*x-\text{sqr}(\text{sqr}(x))+5)$ ; Javob: $\sin(x^3-x^4+5)$
d) $\pi^*h^*(\text{sqr}(r) + \text{sqr}(r1) + r1^*r2)/3$ ; Javob: $\frac{\pi \cdot h \cdot (r^2 + r_1^2 + r_1 \cdot r_2)}{3}$	

## 20 – dars. Standart funksiyalar va protseduralar, algebraik ifodalar mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi ifodalarni Paskal dasturlash tilida yozing.

Algebraik ifoda ko'rinishi	Paskal dasturlash tilida yozilishi
a) $\frac{x-y}{x^2-y^3}$ ;	$(x-y) / (\text{sqr}(x)-\text{sqr}(y)^*y)$
b) $\frac{x+y}{xyz} + \sin^2 x$ ;	$(x+y)/(x^*y^*z) + \text{sqr}(\sin(x))$
d) $(5a^2 + 2x) + \frac{3x}{a} + \text{tg}^5 a^3$ ;	$(5*a^2+2*x)+(3*x)/(\text{sqr}(a)^*a) + (\text{sqr}(\text{sqr}(\sin(\text{sqr}(a)^*a))^*\sin(\text{sqr}(a)^*a)) / (\text{sqr}(\text{sqr}(\cos(\text{sqr}(a)^*a))^*\cos(\text{sqr}(a)^*a)))$
e) $\cos^3 \sin^2 x + \cos a^5$	$\text{sqr}(\cos(\text{sqr}(\sin(x))))^* \cos(\text{sqr}(\sin(x))) + \cos(\text{sqr}(\text{sqr}(a))^*a)$
f) $\sqrt{5+x} - \sqrt{z} \frac{3x}{a^3} + \sqrt[3]{a}$ ;	$((5+x) \geq 0, z \geq 0, a > 0) \text{ da } \text{sqrt}(5+x)-\text{sqrt}(z)*(3*x)/(\text{sqr}(a)^*a) + \exp((1/7)*\ln(a))$

**M-2.** Quyida Paskalda yozilgan funksiyalarini qiymatini hisoblang.

- |   |  |
|---|--|
| a) $\text{sqr}(\text{trunc}(4.95)) = \text{sqr}(4) = 16$                              |  |
| b) $\text{trunc}(\text{int}(4.95)+0.7) = \text{trunc}(4+0.7) = \text{trunc}(4.7) = 4$ |  |
| c) $3+\text{frac}(12.5)=3+0.5=3.5$  | d) $\text{round}(\text{trunc}(3.5)+0.7) = \text{round}(3+0.7) = \text{round}(3.7) = 4$ |
| e) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(256)+9) = \text{sqrt}(16+9) = \text{sqrt}(25) = 5$        | f) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(16)) = \text{sqrt}(256) = 16$                              |
| g) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(256)+9) = \text{sqrt}(16+9) = \text{sqrt}(25) = 5$        |  |
| h) $\text{sqr}(5-\text{abs}(-5)) = \text{sqr}(5-5) = \text{sqr}(0) = 0$               |  |
| i) $\text{abs}(-\text{sqrt}(16)) = \text{abs}(-4) = 4$                                |  |

**M-3.**  $a=5$ ,  $b=4$  bo'lsa, quyida Paskalda yozilgan ifodalarni qiymatini hisoblang.

- |  |
|--|
| a) $\text{abs}(a+b-a*b) = \text{abs}(5+4-5*4) = \text{abs}(9-20) = \text{abs}(-11) = 11$   |
| b) $\text{sqr}(a+b-a*b)-110 = \text{sqr}(5+4-5*4)-110 = \text{sqr}(9-20)-110 = \text{sqr}(-11)-110 = -121-110 = 11$                            |
| c) $\text{round}(a/b+0.3)+9 = \text{round}(5/4+0.3)+9 = \text{round}(1.25+0.3)+9 = \text{round}(1.55)+9 = 2+9 = 11$                            |
| d) $3+\text{frac}(b/a) = 3+\text{frac}(5/4) = 3+\text{frac}(1.25) = 3+0.25 = 3.25$   |
| e) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(a)-b*b) = \text{sqrt}(\text{sqrt}(5)-4*4) = \text{sqrt}(25-16) = \text{sqrt}(9) = 3$                               |
| f) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(a+b)+6) = \text{sqrt}(\text{sqrt}(5+4)+6) = \text{sqrt}(\text{sqrt}(9)+6) = \text{sqrt}(3+6) = \text{sqrt}(9) = 3$ |
| g) $\text{sqrt}(\text{sqrt}(a+b)+6) = \text{sqrt}(\text{sqrt}(5+4)+6) = \text{sqrt}(\text{sqrt}(9)+6) = \text{sqrt}(3+6) = \text{sqrt}(9) = 3$ |
| h) $\text{sqr}(a-\text{abs}(b-a)) = \text{sqr}(5-\text{abs}(4-5)) = \text{sqr}(5-\text{abs}(-1)) = \text{sqr}(5-1) = \text{sqr}(4) = 16$       |
| i) $\text{abs}(9-\text{sqrt}(a*b+a)) = \text{abs}(9-\text{sqrt}(5*4+5)) = \text{abs}(9-\text{sqrt}(25)) = \text{abs}(9-5) = \text{abs}(4) = 4$ |

**M-4.** Quyida Paskalda yozilgan ifodalar qiymati qanday turdag'i o'zgarmas bo'lishini aniqlang.

a) $\text{abs}(-\text{sqrt}(20))$ Javob: sqrt ni natijasi doimo haqiqiy son bo'ladi. abs esa haqiqiy sonni haqiqiy songa o'tkazadi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son	b) $\text{abs}(\text{sqr}(2))+19$ Javob: sqr butun sonni butun songa o'tkazadi, abs ham butun sonni butun songa o'tkazadi, butun songa 19 ni qo'shsak yana butun son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati butun son
d) $\text{frac}(\text{abs}(-20))$ Javob: abs butun sonni butun songa o'tkazadi, lekin frac butun sonni haqiqiy songa o'tkazadi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son	e) $20+\text{sqrt}(4)$ Javob: sqrt ni natijasi doimo haqiqiy son bo'ladi, haqiqiy songa 20 ni qo'shsak yana haqiqiy son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son

f) random*20 Javob: random ni natijasi doimo haqiqiy son bo'ladi, haqiqiy sonni 20 ga ko'paytirsak yana haqiqiy son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son	g) random(4)*20 Javob: random(4) ni natijasi Word turdag'i, ya'ni butun son bo'ladi, butun sonni 20 ga ko'paytirsak yana butun son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati butun son
h) 23*sqrt(1) Javob: sqrt ni natijasi doimo haqiqiy son bo'ladi, haqiqiy sonni 23 ga ko'paytirsak yana haqiqiy son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son	i) int(1.9)*trunc(0.2) Javob: int ni natijasi doimo kasr qismi 0 ga teng haqiqiy son bo'ladi, trunc ixtiyorli sonni butun songa o'tkazadi, haqiqiy sonni butun songa ko'paytirsak yana haqiqiy son hosil bo'ladi, demak, ifoda qiymati haqiqiy son

## 21 – dars. O'zlashtirish va ma'lumotlarni ekranga chiqarish operatorlari mavzusiga

**M-1.** Quyidagi ifodalarni o'zlashtirish operatori yordamida yozing.

a) $a = 48; b = 51;$ Javob: a:=48; b:=51;	b) $x = 0; a = 3,6x + \sin x;$ Javob: x:=0; a:=3.6*x+sin(x);
d) $g = 4; g = g + 16;$ Javob: g:=4; g:=g+16;	e) $a = 9,81; m = 50; F = m a;$ Javob: a:=9.81; m:=50; F:=m*a;
f) $x = 1; y = \frac{x - 63}{21 - 7x};$ Javob: x:=1; y:=(x-63)/(21-7*x);	g) $z = 25; z = \sqrt{z};$ Javob: z:=25; z:=sqrt(z);
h) $a = 6; b = 8; c = \sqrt{a^2 + b^2};$ Javob: a:=6; b:=8; c:=sqrt(a*a+b*b);	i) $x_1 = 9; x_2 = x_1^2 + 5x_1.$ Javob: x1:=9; x2:=sqr(x1)+5*x1;

**M-2.** Chiqarish operatorlari bajarilgach natija ekranda qanday aks etishini yozing.

a) write('a='); write(2+3); write('='); write('2+3'); Ekranda: a=5=2+3	b) writeln('a='); write(2+3); write('='); writeln('2+3'); Ekranda: a=
---	--

	5=2+3
d) write('a='); writeln(2+3); write('='); writeln('2+3'); Ekranda: a=5 =2+3	e) write('a='); write(5); writeln('='); write('2+3'); Ekranda: a=5= 2+3
f) writeln('a='); writeln(5); write('='); write('2+3'); Ekranda: a= 5 =2+3	g) write('a='); writeln(5); writeln('='); write('2+3'); Ekranda: a=5 = 2+3

**M-3.** Paskalda yozilgan quyidagi dastur lavhalaridagi barcha o'zgaruvchilarning oraliq qiymatini va ekranga chiqadigan natijani aniqlang.

a) a:=-cos(pi)-sin(pi/2); x:=x*x + a; writeln('a=',a,'x=',x);  Javob: oraliq natijalar a= -cos(pi)-sin(pi/2)= -(-1)-1=1-1=0; x=0*0+0=0+0=0;  Ekranda: a=0.0000000000E+00x=0.0000000000E+00	d) a:= 9; b:=a+a; a:= a*a-b; write('a = ', a); write(' b = ', b);  Javob: oraliq natijalar a=9; b=9+9=18; a=9*9-18=81-18=63;  Ekranda: a = 63 b = 18
b) a:= 'Men '; g:= 'mustaqil '; b:= 'O'zbekiston'; m:= ' farzandiman!' write(a, g, b, m);  Javob: oraliq natijalar a= 'Men '; g= 'mustaqil '; b= 'O'zbekiston'; m= ' farzandiman!' Ekranda: Men mustaqil O'zbekiston farzandiman!	

## 22 – dars. O‘zlashtirish va ma’lumotlarni ekranga chiqarish operatorlari mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi ifodalarni o‘zlashtirish operatori yordamida yozing.

a) $y = \frac{x - 21}{7 - x^{63}}$ ; Javob: $y:=(x-21)/(7-\exp(63*\ln(x)))$ ;	b) $a = 3.6x + \sin x$ ; Javob: $a:=3.6*x+\sin(x)$ ;
d) $z = \sqrt{x - 5} y + x \operatorname{tg} x$ ; Javob: $z:=\sqrt{x-5}*y+x*\sin(x)/\cos(x)$ ;	e) $S = \pi r^2$ ; Javob: $S:=\pi*\operatorname{sqr}(r)$ ;
f) $F = m a$ ; Javob: $F:=m*a$ ;	g) $S = \frac{ah}{2}$ . Javob: $S:=a*h/2$ ;

**M-2.** Chiqarish operatori natijasi qanday bo‘lishini aniqlang.

a)  $a:=123.45$ ; write('a=', a:2:1);

Ekranda: a=123.4

a soni xotiraga 123.45 kabi yoziladi. Chiqarish formati a:2:1 da butun qism uchun 2–1–1=0 xona (hammasi bo‘lib 2 xona kasr qismiga 1 xona, nuqta uchun 1 xona) ajratildi, lekin a sonnig butun qismi 3 xonali, shu sababli butun qism uchun chiqarish formati inkor etilib butun qism to‘liq, kasr qismidan 1 xona chiqariladi.

b)  $a:=123.45$ ; write('a=', a:5:1);

Ekranda: a=123.4

Chiqarish formati a:5:1 butun qism uchun 5–1–1=3 xona (hammasi bo‘lib 5 xona kasr qismiga 1 xona, nuqta uchun 1 xona) ajratildi, a sonnig butun qismi ham 3 xonali bo‘lgani uchun chiqarish formati ishlaydi, shunda kasr qismidan 1 xona chiqariladi

d)  $a:= ‘2011’$ ; writeln(a:3, ‘ yil’:3);

Ekranda: 2011 yil

Chiqarish formati a:3 ajratgan 3 ta belgi joyiga 4 ta belgili ‘2011’, ‘ yil’:3 ajratgan 3 ta belgi joyiga 4 ta belgili ‘ yil’ sig‘maydi, shuning uchun ikkala chiqarish formati ham bekor qilinadi

e)  $a:= ‘2011’$ ; writeln(a:4, ‘ yil’:5);

Ekranda: 2011 yil

Chiqarish formati a:4 ajratgan 4 ta belgi joyiga 4 ta belgili ‘2011’, ‘ yil’:5 ajratgan 5 ta belgi joyiga 4 ta belgili ‘ yil’ sig‘adi, shuning

uchun ikkala chiqarish formati qabul qilinadi hamda ‘yil’ 5 formatida ortib qolgan 1 ta joyga probel chiqariladi

**M-3.** Dasturdagi o‘zgaruvchilarning qiymati turiga mos bo‘lishi uchun so‘roq belgisi o‘rniga zaruriy standart funksiyani yozing va ekranga chiqadigan natijani aniqlang.

a) var a, b, c: integer;

```
begin a:=25; b:= ?(sqrt(a)); c:= ?(a/b);
```

```
writeln(a, ‘ ’, b, ‘c=’, c);
```

```
end.
```

Javob:

b, c o‘zgaruvchilar turi **integer** (butun), demak ifodalarning natijasi ham butun chiqishi kerak. Lekin **sqrt(a)** va a/b natijalari doimo haqiqiy, shuning uchun ifodalardagi ? belgilari o‘rniga **trunc** yoki **round** yozilishi kerak. Hisoblaymiz:

$b=\text{trunc}(\sqrt{25})=\text{trunc}(5.0)=5$ ;  $c=\text{trunc}(25/5)=\text{trunc}(5.0)=5$  (round ham shu natijalarni beradi).

Ekranda:

25 5c= 5

b) var x, y, z: word;

```
begin x:=?(-7.21); y:= ?(sqrt(x*x));
```

```
z:= ?(x+y-100); write(z-x, y);
```

```
end.
```

Javob:

x, y, z o‘zgaruvchilar turi **word** (manfiymas butun), demak ifodalarning natijasi ham manfiymas butun chiqishi kerak. Demak, x ning ifodasidagi ? belgilardan biri o‘rniga natija manfiy bo‘lmasligi uchun **abs** yoziladi, ikkinchi ? belgisi o‘rniga natija butun bo‘lishi uchun **trunc** yoki **round** yoziladi:  $x=\text{trunc}(\text{abs}(-7.21))=\text{trunc}(7.21)=7$  (**trunc** yoki **round** yozilishi, **abs** va **trunc** o‘rnii almashtirilishi bir xil natija beradi). **sqrt(x\*x)** natijasi doimo haqiqiy, shuning uchun y o‘zgaruvchi ifodasidagi ? belgisi o‘rniga **trunc** yoki **round** yozilishi kerak:  $y=\text{trunc}(\sqrt{7*7})=-\text{trunc}(\sqrt{49})=\text{trunc}(7.0)=7$  (round ham shu natijani beradi). Oxirgi z o‘zgaruvchi ifodasida  $x+y-100=7+7-100=14-100=-86$  bo‘lgani uchun ? belgisi o‘rniga abs yozilishi shart:  $z=\text{abs}(-86)=86$ . Chiqarish ro‘yxatidagi ifodani hisoblaymiz:

$z-x-86-7=79$

Ekranda:

797

## **23 – dars. Ma'lumotlarni xotiraga muloqot usulida kiritish operatori mavzusiga**

**M-1.** Read operatori yordamida N sonini kvadratini N ning 10; 11; 12; 13; 14; 15 qiymatlarida hisoblash dasturini tuzing.

Yechim.

Izoh	Dasturi
<p><u>1-usul.</u> N soni kvadratini xotirada saqlash uchun M o'zgaruvchi kiritamiz. N sonini va N sonining kvadrati qiymatlari musbat va 255 dan kichik, shuning uchun ikkala o'zgaruvchi uchun butun sonning <b>byte</b> turini tanlaymiz.</p>	<p>Var N, M: byte; Begin Read(N); M:=sqr(N); Write(N, " ni kvadrati: ", M); End.</p>
<p><u>2-usul.</u> N sonini kvadratini xotirada saqlamasdan ham chiqarish mumkin. U holda N o'zgaruvchini qiymatlari musbat va 255 dan kichik bo'lgani uchun <b>byte</b> turda tanlaymiz.</p>	<p>Var N: byte; Begin Read(N); Write(N, " ni kvadrati: ", N*N); End.</p>

**M-2.** Quyidagi dasturda a o'zgaruvchining “O'ZBEKISTONIM”; “VATANIM”; “ONA DIYORIM” qiymatlarini xotiraga qulay usulda kiritib natija oling.

Var a, b, g: string;  
Begin  
b:=' - SAJDAGOH KABI'; g:=' MUQADDASDIR!'; write(a,b,g);  
readln;  
End.

Yechim.

Topshiriqda a o'zgaruvchining uchta qiymati berilgan. Ularni xotiraga muloqot usulda kiritish qulaydir. Buning uchun dasturga Readln(a); satrini qo'shish kerak. Dasturdagi readln; operatori dastur natijasini ko'rib olishni qulaylashtirish uchun yozilgan. Bu operator ishlashi uchun ham Read(a); emas Readln(a); yozilishi lozim. Ekrandagi natijada so'zlar qo'shilib ketmaydi, chunki b va g o'zgaruvchilar qiymatida probellar hisobga olingan.

```

Var a, b, g; string;
Begin Readln(a);
  b:= ' - SAJDAGOH KABI'; g:= ' MUQADDASDIR!';
  write(a, b, g); readln;
End.

```

Dasturni satrli **a** o'zgaruvchining har bir qiymatida ishlatib natija quyidagicha olinadi.

Dastur ishga tushirilgach (**Ctrl+F9**) tugmachalarini birgalikda bosib yoki **RUN** menyusidan Run buyrug'ini tanlab), ekranda satr bosidan yurgich chiqadi va dastur **a** satrli o'zgaruvchiga qiymati kiritishini kutib turadi. Topshiriq shartiga ko'ra **a** satrli o'zgaruvchi qiymati sifatida "O'ZBEKISTONIM" so'zini kiritib, **ENTER** klavishi bosilsa ekranda quyidagilar aks etadi:

**O'ZBEKISTONIM – SAJDAGOH KABI MUQADDASD!R!**

Endi **ENTER** klavishi bosilsa, yana matn muharriri oynasiga qaytiladi. Dastur qayta ishlatalib **a** satrli o'zgaruvchi qiymati sifatida "VATANIM" so'zini kiritib, **ENTER** klavishi bosilsa ekranda quyidagilar aks etadi:

**VATANIM – SAJDAGOH KABI MUQADDASDIR!**

Huddi shunday '**ONA DIYORIM**' qiymati kiritiladi.

**M-3.** "Matiz" avtomobili joyidan qo'zg'alib T sekundda S metr yo'l bosdi. Uning o'rtacha tezligini (m/s) larda quyidagi qiymatlarda hisoblash dasturini ma'lumotlarni muloqot usulda kiritish orqali tuzing (yo'llanma:  $V=S/T$ ).

Yechim.

var T, S: integer; V: real;

Begin

```

  write('Vaqtni kriting: '); readln(T);
  write('Masofani kriting: '); readln(S);
  V:=S/T;

```

```

  write('Matizing o'rtacha tezligi V= ',V:0;2, ' m/s'); readln;
End.

```

## 24 – dars. Ma'lumotlarni xotiraga muloqot usulida kiritish operatori mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi dasturda a o'zgaruvchining "ozod"; "obod" qiymatlarini xotiraga qulay usulda kiritib natija oling.

Var a, b, g: string;

Begin

```
b:= 'Bizdan '; g:= ' vatan qolsin!'; write(b, a, g); readln;
```

End.

Yechim. **Begin** dan keyin Write('a ni qiymatini kiriting: '); ReadIn(a); operatorlari yoziladi.

**M-2.** Quyidagi dasturdagi so'roq belgisi o'rniga joriy yilni m o'zgaruvchi yordamida kiriting va mustaqilligimiz bilan tabriklovchi natija oling.

Var a, b, g: string; m: word;

Begin write('Joriy yilni kiriting: '); ?;

```
a:= 'Mustaqillikning '; g:= ' yilligi bilan '; b:='tabriklaymiz!';
```

```
writeln(a); writeln(m-1991, g); write(b); readln;
```

End.

Yechim. So'roq belgisi o'rniga ReadIn(m); operatori yoziladi. Dasturni ishlatalish uchun **Ctrl+F9** tugmachalari birgalikda bosiladi yoki **RUN** menyusidan Run buyrug'ini tanlanadi. Ekranda "Joriy yilni kiriting: " matni aks etganda joriy yil, masalan 2012, yoziladi va **ENTER** klavishi bosiladi.

**M-3.** Agar jismga ta'sir etayotgan kuch F, olgan tezlanishi a bo'lsa, quyidagi qiymatlarda jismni massasini hisoblash dasturini kiritish operatoridan foydalanib tuzing (yo'llanma  $m=F/a$ ) va natijalar oling.

a) F=15, a=55; b) F=55, a=15; d) F=10, a=100; e) F=100, a=10;

Yechim. Quyidagi dastur kompyuter xotirasiga kiritilgach F va a o'zgaruvchilar juftligi uchun dastur qayta ishlataladi va natijalar olinadi.

Var F, a: integer; m: real;

Begin write('F kuch qiymatini kiriting: '); readln(F);

```

write('Tezlanish a ni qiymatini kriting: '); readln(a);
m:=F/a; write('Jismning massasi m= ', m:0:2,); readln;
End.

```

**M-4.**  $a=19$ ,  $b=2$ ,  $d=1950$  qiymatlarni xotiraga qulay usulda kiritib quyidagi ifodalarning qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

a)  $y = a + b^2 + ad$ ;      b)  $t = \sqrt{a+b} - \sqrt[3]{d-a}$ ;

d)  $s = b \cos a + \sin d$ ;      e)  $n = \pi d^2 + ab$ .

Yechim. Ma'lumotlarni xotiraga kiritishni qulay usuli muloqot usulidir, ya'ni Read yoki Readln operatorlaridan foydalanishdir.

a)  $y = a + b^2 + ad$ ;

Topshiriq shartidagi barcha o'zgaruvchilar va y o'zgaruvchi qiymati butun, shuning uchun **integer** turidan foydalanamiz.

var a, b, d, y: integer;

```

Begin Write('a= '); Readln(a); Write('b= '); ReadLn(b); Write('d= ');
    ReadLn(d); y:=a+sqr(b)+a*d; Write('y= ', y);
End.

```

b)  $t = \sqrt{a+b} - \sqrt[3]{d-a}$ ;

Topshiriq shartidagi barcha o'zgaruvchilar butun va t o'zgaruvchi qiymati ildiz qatnashganligi sababli haqiqiy,  $a+b=19+2=21\geq 0$  va  $d-a=1950-19=1931\geq 0$  o'rinni.

var a, b, d: integer; t: real;

```

Begin Write('a= '); Readln(a); Write('b= '); ReadLn(b);
    Write('d= '); ReadLn(d);
    t:=sqrt(a+b)-exp((1/3)*ln(d-a)); Write('t= ', t:0:2);
End.

```

d)  $s = b \cos a + \sin d$ ;

Topshiriq shartidagi barcha o'zgaruvchilar butun va s o'zgaruvchi qiymati trigonometrik funksiyalar qatnashganligi sababli haqiqiy.

var a, b, d: integer; s: real;

```

Begin Write('a= '); Readln(a); Write('b= '); ReadLn(b);
    Write('d= '); ReadLn(d); S:=b*cos(a)+sin(d); Write('s= ', s:0:2);
End.

```

e)  $n = \pi d^2 + ab$ .

Topshiriq shartidagi barcha o'zgaruvchilar butun va n o'zgaruvchi qiymati  $\pi$  soni qatnashganligi sababli haqiqiy.

```

var a, b, d: integer; n: real;
Begin Write('a= '); ReadLn(a); Write('b= '); ReadLn(b);
    Write('d= '); ReadLn(d); n:=pi*sqr(d)+a*b; Write('n= ', n:0:2);
End.

```

**M-5.** Tomonlari a, b, c bo'lgan uchburchakning yuzini hisoblash dasturini kiritish operatoridan foydalanib tuzing va natijalar oling.

- a) a=5, b=7, c=4;      b) a=8, b=6, c=10;  
 d) a=3, b=4, c=5;      e) a=10, b=8, c=10;

Yechim. Kiritish operatori deganda ma'lumotlarni xotiraga muloqot usulida kiritish, ya'ni Read yoki ReadLn operatorlaridan foydalanish, tushuniladi. Topshiriq shartidagi **a**, **b**, **c** o'zgaruvchilar butun va s o'zgaruvchi qiymati ildiz qatnashganligi sababli haqiqiy.

Var a, b, c: integer; p, s:real;

```

Begin Write('a ni kriting= '); ReadLn(a); Write('b ni kriting= ');
    ReadLn(b); Write('c ni kriting= '); ReadLn(c);
    p:=(a+b+c)/2; s:=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
    Write('Uchburchk yuzi s= ', s:0:3); readln;
End.

```

**M-6.**  $y=23 \cdot x + 1$  funksiyaning qiymatini x ning -5, -4, -3, -2, -1, 0, 1, 2, 3, 4, 5 qiymatlarini xotiraga qulay usulda kiritib hisoblash dasturini tuzing va natijalar oling.

Yechim. Ma'lumotlarni xotiraga kiritishni qulay usuli muloqot usulidir, ya'ni Read yoki ReadLn operatorlaridan foydalanishdir. x o'zgaruvchining berilgan har bir qiymati uchun dastur qayta ishlataladi va natijalar olinadi.

Var x, y: integer;

```

Begin Write('x ning qiymatini kriting= '); ReadLn(x);
    y:=23*x+1; write('x= ', x, '-da ', 'y= ', y ); readln;
end.

```

**M-7.**  $y = 21 \cdot x^2 + 7 \cdot x + 1963$  funksiyaning qiymatini x ning -5, -4, -3, -2, -1, 0, 1, 2, 3, 4, 5 qiymatlarini xotiraga qulay usulda kiritib hisoblash dasturini tuzing va natijalar oling.

Yechim. Avvalgi topshiriq dasturida  $y:=23*x+1$ ; o'miga  $y:=21*sqr(x)+7*x+1963$ ; yoziladi.

## 25 – dars. Matn holatida ekran bilan ishlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi dastur natijasida ekran rangi, matn foni rangi va matn ranglari qanday bo'lishini va matnlar joyini aniqlang.

Uses ert;

```
Begin textbackground(yellow); writeln('O'zbekiston');
  clrscr; textColor(4); write('kelajagi '); textbackground(blue);
  writeln('buyuk'); textColor(2); write('DAVLAT!'); readln;
end.
```

Yechim:

Uses ert;

Begin

```
  textbackground(yellow); writeln('O'zbekiston');
{ekranda "O'zbekiston" matni oq rangda sariq fonda chiqadi, lekin
Paskal dasturlash tili buyruqlarni katta tezlikda bajargani sababli foy-
dalanuvchi bu matnni ko'rishga ulgurmeydi. Bu matnni ko'rib olish
uchun clrscr dan avval readln; yozish mumkin.}
  clrscr; {clrscr; dan avval textbackground(yellow); yozilgani uchun
ekran sariq rang bilan "o'shiriladi", ya'ni ekran tozalamib sariq rang
bilan bo'yaladi, hamda yurgich ekranning chap yuqori burchagiga olib
kelinadi}
```

```
  textColor(4); write('kelajagi '); {bu matn sariq ekranda qizil rangda
ekranning chap yuqori burchagida aks etadi}
```

```
  textbackground(blue); writeln('buyuk'); {bu matn sariq ekranda qizil
rangda ko'k fonda avvalgi matnning davomida probeldan keyin aks
etadi, chunki avvalgi chiqarish operatori Ln qo'shimchasisiz yozilgan}
  textColor(2); write('DAVLAT!'); readln; {bu matn sariq ekranda ya-
shil rangda ko'k fonda keyingi satr boshida aks etadi, chunki avvalgi
chiqarish operatori Ln qo'shimchasi bilan yozilgan}
end.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**M-2.** "O'zbekiston konstitutsiyasi – erkinlik posboni" matniga qizil, matn foniga ko'k rangni tanlab ekranga chiqaring.

### Yechim:

Uses crt;

Begin

```
clrscr; {ekran qora rang bilan "o'chiriladi", ya'ni ekran tozalanib qo-  
ra rang bilan bo'yaladi, yurgich ekran boshiga o'rnatiladi}
```

```
textbackground(blue); {matnga ko'k foni tanlandi}
```

```
textcolor(4); {matnga qizil rang tanlandi}
```

```
writeln('O'zbekiston konstitutsiyasi - erkinlik posboni'); readln;  
end.
```

### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**M-3.** Quyidagi dasturga shunday protseduralar qo'shingki, barcha matn ko'k rangda, matn fonlari sariq rangda ekranga chiqsin. Dastur ishlashini izohlang.

Var a,b: string; m, s : real;

Begin

```
a:= 'Kvadratning tomonini kiriting: '; b:= 'Kvadratning yuzi: ';
```

```
Write(a); readln(m); s:=sqr(m); write(b, s:8:2, ' kvadrat birlik');  
readln;
```

End.

### Yechim:

Dasturga matn rangi ko'k (blue) va matn foni rangi sariq (yellow) bo'lishi uchun Begin xizmatchi so'zidan keyin 2 ta protseda qo'shamiz:

```
textcolor(blue); textbackground(yellow);
```

### Dastur bajarilishining izohi:

Dastur ishga tushganda **a** va **b** satrli turdag'i o'zgaruvchilarga xotiradan har biri uchun 255 baytdan, **m** va **s** haqiqiy turdag'i o'zgaruvchilarga xotiradan har biri uchun 2 baytdan joy ajratadi.

Dasturning asosiy qismi ishlaganda matn uchun **textcolor(blue)**; protsedurasi ishi sababli ko'k, matn foni uchun **textbackground(yellow)**; protsedurasi ishi sababli sariq rang belgilanadi.

Birinchi va ikkinchi o'zlashtirish operatorlari bajarilganda satrli **a** o'zgaruvchi uchun ajratilgan xotiradagi joyga "Kvadratning tomonini

kiriting: ” satrli **b** o'zgaruvchi uchun ajratilgan xotiradagi joyga ”Kvadratning yuzi: ” qiymatlar yoziladi.

**Write(a);** bajarilganda **a** o'zgaruvchining xotiradagi ”Kvadratning tomonini kiriting: ” qiymati chaqirilib, ekranda l-satrda ko'k rangda sariq fonda aks ettiriladi.

Keyingi **readIn(m);** operatori ishlaganda dastur **m** o'zgaruvchiga sonli qiymat berilishini l-satrda matn davomida kutib turadi. Sonli **m** o'zgaruvchiga biror son qiymat, masalan, **10** sonini kirtsak (ko'k rangda aks etadi), **m** o'zgaruvchi uchun ajratilgan xotiradagi joyga **10** qiymat yoziladi.

Keyingi o'zlashtirish operatori **s:=sqr(m)** ishlaganda **m** o'zgaruvchini qiymatini chaqiradi va kvadratga ko'tarib hosil bo'lgan **100** sonini sonli **s** haqiqiy turdag'i o'zgaruvchi uchun ajratilgan xotiradagi joyga **1.000000000E+2** kabi yozadi.

Chiqarish operatori **write(b, s:8:2, ' kvadrat birlik');** xotiradan **b** satrli o'zgaruvchining ”Kvadratning yuzi: ” qiymatini chaqirib sariq fonda ko'k rangda aks ettiradi, uning davomidan **s** sonli o'zgaruvchining 100 qiymatini chaqirib berilgan format asosan ko'k rangda aks ettiradi va uning davomidan ” kvadrat birlik” matnini ko'k rangda aks ettiradi.

Endi natijani ko'rib olgunimizcha kutirish uchun yozilgan **readIn;** operatori ishlaydi. Va nihoyat biror klavish bosilganda oxirgi **End.** xizmatchi so'zi ishidan keyin dastur o'z ishini to'xtatadi.

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

On

**Kvadratning tomonini kiriting: 10**  
**Kvadratning yuzi: 100.00 kvadrat birlik**

**M-4.** A va B o'zgaruvchilarining berilgan qiymatini kiritib quyida-gi dastur ishlashini izohlang.

Uses Crt;

Begin

ClrScr; write('A='); readIn(a); write('B='); readIn(b);

GotoXY(A,B); Writeln('Kitob bilim manbai'); readIn;

End.

a) A=1, B=1; b) A=8, B=1; d) A=1, B=8;

c) A=8, B=8; f) A=25, B=25; g) A=100, B=10;

### Dastur bajarilishining izohi:

Dastur ishga tushirilganda xatolik xabarini ekranga “**Error 3: Unknown identifier**” (noma'lum identifikator, ya'ni bu holda noma'lum o'zgaruvchi) yozuvi orqali ifodalaydi, chunki **a** va **b** butun qiymatli o'zgaruvchilar tavsiflanmagan. Berilgan qiymatlarni tahlil etib, **a** va **b** butun o'zgaruvchilar **byte** turda tavsiflanishi kifoyaligini ko'rish mumkin. Shuning uchun dasturda **Uses Crt;** va **Begin** orasiga **var: a, b: byte;** tavsifini yozamiz.

Tuzatish kiritilgan dastur har safar ishga tushirilganda **ClrSer;** protsedurasi ta'sirida ekran (qora rangda) tozalanib yurguch 1-ustun va 1 satr kesishgan joyda o'tnatiladi.

So'ngra **write('A= '); readln(a); write('B= '); readln(b);** operatorlari yordamida **a** va **b** butun sonli o'zgaruvchilar qiymati qora ekranada oq rangda muloqot usulda xotiraga kiritiladi.

**GotoXY(A,B);** protsedurasi ishlaganda yurgich A-ustun va B-satr kesishgan joyga o'tnatiladi va shu joydan **Writeln('Kitob bilim manbai');** protsedurasi asosida “Kitob bilim manbai” matni qora ekranada oq rangda aks etadi.

### Natijalarning ekrandagi ko'rinishi:


a) A=1, B=1;



b) A=8, B=1;



d) A=1, B=8;




c) A=8, B=8;



f) A=25, B=25;



g) A=100, B=10;



Ma'lumki, **GotoXY(A,B)** protsedurasida quyidagi tengsizlik bajarilishi



shart:  
 $1 \leq A \leq 80$  va  $1 \leq B \leq 25$   
Agar A yoki B ning qiy-  
mati shu tengsizlikni qa-  
noatlantirmasa, u holda  
bu qiymatlar inkor etiladi  
va yurgich avvalgi natija-  
larning davomiga bajar-  
ilgan eng oxirgi operator  
ta'sirida o'rnatiladi.

**M-5.** Ekranga ismingiz, familiyangiz va sharifingizni 3 xil rangda matnni 3 xil son rangida va ekranning turli joylarida chiqaring.

#### Yechim:

Uses crt;

Begin

```
clrscr; textcolor(red); textbackground(3); GotoXY(2,2);
writeln('BAHODIR'); {bu matn ekranda qizil rangda billur fonda 2-
ustun va 2 satr kesishgan joyda aks etadi}
textcolor(green); textbackground(blue); GotoXY(26,8);
writeln('XURRAMOV'); {bu matn ekranda yashil rangda ko'k fonda
26-ustun va 8 satr kesishgan joyda aks etadi}
textcolor(13); textbackground(6); GotoXY(51,14);
writeln('SAPPAROVICH'); {bu matn ekranda pushti rangda jigarrang
fonda 51-ustun va 14-satr kesishgan joyda aks etadi}
end.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



## 26 – dars. Matn holatida ekran bilan ishlash mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** “Ajdodlar merosini qadrlaylik” matniga ko‘k, matn foniga yashil rangni tanlab ekranga chiqaring.

Yechim:

Uses ert:

Begin

```
clrscr; {ekran tozalanib, yurgich ekran boshiga o‘rnataladi}
textcolor(blue); textbackground(2);
writeln('Ajdodlar merosini qadrlaylik '); {matn ekranda ko‘k rangda yashil fonda aks etadi}
end.
```

Natijaning ekrandagi ko‘rinishi:

**M-2.** “Vatanni sevmoq iymondandir!” matnni ekranning o‘ng tomonidan 12-satrda yashil rangda qizil fonda chiqaring.

Yechim:

Matn holatida 80 ta ustun bor, shuning uchun matndagi belgilar soni Son 27 ga teng bo‘lgani uchun ustun tartib raqamini quyidagicha aniqlaymiz:

$$80 - \text{Son} + 1 = 80 - 27 + 1 = 53 + 1 = 54.$$


Uses ert:

Begin

```
clrscr; textcolor(green); textbackground(red);
GotoXY(54,12); writeln('Vatanni sevmoq iymondandir!'); readln;
```

end.

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**M-3.** “Eng yuqoridagi satr, chapdan”, “Eng yuqoridagi satr, o’ngdan”, “Eng yuqoridagi satr, o’rtadan”, “Eng quyidagi satr, chapdan”, “Eng quyidagi satr, o’ngdan”, “Eng quyidagi satr, o’rtadan”, “Markazdagi satr, chapdan”, “Markazdagi satr, o’ngdan”, “Markazdagi satr, o’rtadan” matnlarini ekranning matn mazmuniga mos joylarida chiqishini ta’minlovchi dastur tuzing.

Yechim:

Ma'lumki, “Eng yuqoridagi satr” bu 1-satr, “chapdan” ga mos ustun 1-ustun; “Eng quyidagi satr” uchun 23-satr olish lozim (agar 24-yoki 25-satrler olinsa, 1-satrdagi matn ko'rinxmay qoladi); “Markazdagi satr” bu 12-satr. Matnlardagi “o’ngdan” talabini bajarish uchun matndagi belgilar soni Son ni aniqlab, kerakli ustun tartib raqami T-2 mashqdagi kabi aniqlanadi. Matnlardagi “o’rtadan” talabini bajarish uchun esa matndagi belgilar soni Son ni aniqlab, kerakli ustun tartib raqami quyidagicha aniqlanadi:  $[(80 - \text{Son}):2]+1$ . Ekran rangini oq, matn rangini qizil tanlaymiz. Dastur natijasidan ko'rish mumkinki, eng yuqori satrda aks ettirilayotgan ma'lumotlar bir satrga sig'maganligi uchun ba'zi so'zlar ustida boshqa so'z aks etgan.

Uses crt;

Begin

```
textbackground(white): clrscr; textcolor(red);
gotoXY(1,1); writeln('Eng yuqoridagi satr, chapdan');
gotoXY(53,1); writeln('Eng yuqoridagi satr, o’ngdan');
gotoXY(27,1); writeln('Eng yuqoridagi satr, o’rtadan');
gotoXY(1,23); writeln('Eng quyidagi satr, chapdan');
gotoXY(55,23); writeln('Eng quyidagi satr, o’ngdan');
```

```

gotoXY(27,23); writeln('Eng quyidagi satr, o`rtadan');
gotoXY(1,12); writeln('Markazdagi satr, chapdan');
gotoXY(57,12); writeln('Markazdagi satr, o`ngdan');
gotoXY(30,12); writeln('Markazdagi satr, o`rtadan');
readln;
end.

```

Natijaning ekrandagi ko`rinishi:

```

Turbo Pascal
Eng yuqoridagi satr, chapdan Eng yuqoridagi satr, o`rtadan Eng yuqoridagi satr, o`ngdan

Markazdagi satr, chapdan   Markazdagi satr, o`rtadan   Markazdagi satr, o`ngdan
-
```

Eng quyidagi satr, chapdan Eng quyidagi satr, o`rtadan Eng quyidagi satr, o`ngdan

**M-4.** “Suv – hayot manbai” degan iborani ekranda 5 xil rangda turli joylarda chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Uses crt;

Begin

```

textbackground(green); clrscr; {ekran yashil rangda tozalandi}
textcolor(blue); textbackground(3); GotoXY(5,5);
writeln('Suv - hayot manbai'); {matn billur rangda ko'k fonda 5-
ustun satr kesishgan joydan chiqariladi}
textcolor(red); textbackground(3); GotoXY(10,12);
writeln('Suv - hayot manbai'); {matn qizil rangda billur fonda 10-
ustun va 12-satr kesishgan joydan chiqariladi}
textcolor(green); textbackground(blue); GotoXY(15,20);
writeln('Suv - hayot manbai'); {matn ko'k rangda yashil fonda 15-
ustun va 20-satr kesishgan joydan chiqariladi}
textcolor(13); textbackground(6); GotoXY(18,18);
writeln('Suv - hayot manbai'); {matn pushti rangda och jigarrang


```

```

fonda 18-ustun va satr kesishgan joydan chiqariladi}
textcolor(6); textbackground(13); GotoXY(30,24);
writeln('Suv - hayot manbai'); {matn och jirarrang rangda pushti
fonda 30-ustun va 24-satr kesishgan joydan chiqariladi}
Readln;
end.

```

Natijaning ekrandagi ko'rnishi:



**M-5.** Ekranga 5 ta sinfdoshingizi ismini turli ranglarda va ekranning sariq rangida chiqaring.


Yechim:

```

Uses crt;
Begin
  textbackground(yellow); clrscr; {ekran sariq rangda tozalandi}
  textcolor(blue); writeln('FERUZBEK');
  textcolor(Green); writeln('QODIRALI');
  textcolor(red); writeln('MARJONA');
  textcolor(13); writeln('ZARIFA');
  textcolor(blue); writeln('KAMOLIDDIN'); readln;
end.

```

Natijaning ekrandagi ko'rnishi:



## 27 – dars. Chiziqli dasturlar tuzish

Odatda, chiziqli algoritmlarning dastur shaklida yozilishi **chiziqli dastur** deb ataladi. Demak, chiziqli dasturdagi barcha operatorlar keling tartibida ketma-ket bajariladi va xech qanday shart tekshirilmaydi.

**M-1.** Quyidagi chiziqli dasturlarni ishini izohlang va natijasini aniqlang.

<pre> a) Var     a, b : String; Begin     a:= 'O'zbekiston';     b:= 'Davlat';     WriteLn(a,'Mustaqil ', b); End. </pre>	<p><u>Izoh:</u> Bu dastur chiqiqli bo'lib, quyidagi amallarni bajaradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) <b>a</b> satrli o'zgaruvchiga "O'zbekiston" qiymatini o'zlashtiradi;</li> <li>2) <b>b</b> satrli o'zgaruvchiga "Davlat" qiymatini o'zlashtiradi;</li> <li>3) Xotiradagi va qo'shimcha ma'lumotlarni ekranga chiqaradi.</li> </ol> <p><u>Natijaning ekrandagi ko'rinishi:</u> O'zbekiston Mustaqil Davlat</p>
---	--


<pre> b) var     a,b:Integer;     s: Real; Begin     a:=4;     a:=sqr(a);     b:=b-a;     s:=2*a+3*b;     WriteLn('S= ',s); End. </pre>	<p><u>Izoh:</u> Bu dastur chiqiqli bo'lib, quyidagi amallarni bajaradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1) <b>a</b> butun o'zgaruvchiga 4 ni o'zlashtiradi;</li> <li>2) <b>a</b> o'zgaruvchi qiymatini kvadratga oshirib yana <b>a</b> o'zgaruvchiga o'zlashtiradi;</li> <li>3) <b>b</b> butun o'zgaruvchi qiymatidan (quymat berilmagani uchun <b>b</b>:=0) a o'zgaruvchi qiymatini ayirib <b>b</b> o'zgaruvchiga o'zlashtiradi;</li> <li>4) <b>a</b> o'zgaruvechi qiymatini 2 ga, <b>b</b> o'zgaruvechi qiymatini 3 ga ko'paytiradi va hosil bo'lgan ko'paytmalarni yig'indisini <b>s</b> haqiqiy o'zgaruvchiga o'zlashtiradi;</li> <li>5) Ekranda "S= " matn va uni davomidan <b>s</b> haqiqiy o'zgaruvechi qiymatini aks ettiradi.</li> </ol> <p><u>Natijaning ekrandagi ko'rinishi:</u> S= -1.6000000000E+01</p>
---	--

**M-2.** Quyida trapetsiya yuzini hisoblash dasturi tartibsiz yozilgan. Operatorlarni mantiqan to'g'ri ketma-ketlikda joylashtiring.

$p := (a+b)/2$ ;  $s := p * h$ ; Program trapesiya\_yuzi; End.  
 WriteLn('S =', s, 'kvadrat birlik'); ReadLn(a,b,h);  
 Begin Write('A,B,H qiyatlarni kiriting: ');  
 Var a,b,h:Integer; p,s:Real;

Javob: Dastur chiziqli bo'ladi. Dastur va unga mos blok sxema hosil qilamiz.

Blok sxemasi:



Dasturi:


Program trapesiya\_yuzi;  
 Var  
 $a,b,h:Integer$ ;  
 $p,s:Real$ ;  
 Begin  
 Write('a,b,h qiyatlarni kiriting: ');  
 ReadLn(a,b,h);  
 $p := (a+b)/2$ ;  
 $s := p * h$ ;  
 WriteLn('S =', s, 'kvadrat birlik');  
 End.

M-3. Uchburchakning a, b tomonlari va ular orasidagi  $\alpha$  burchak berilgan. Uchburchakning yuzini hisoblash dasturini tuzing (yo'llanma:  $s = \frac{1}{2} \cdot a \cdot b \cdot \sin(\alpha)$ ).

Yechim:

Berilgan ko'trsatmaga ko'ra dastur chiziqli bo'ladi. Dastur va unga mos blok sxema hosil qilamiz

Blok sxemasi:





Dasturi:

Program uchburchak\_yuzi;  
 Var  
 $a,b,alfa,s:Real$ ;  
 Begin  
 Write('a='); ReadLn(a);  
 Write('b='); ReadLn(b);  
 Write('alfa burchak='); ReadLn(alfa);  
 $s := a*b*\sin(alfa)/2$ ;  
 WriteLn('Uchburchak yuzi S =', s, 'kvadrat birlik');  
 End.

## 28 – dars. Chiziqli dasturlar tuzish mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyida berilgan shakllarning shtrixlangan qismlarini yuzalarni hisoblash dasturini tuzing (yo'llanma: qanday shakl yuzasidan qaysi shakl yuzasini ayirish kerak?).

		
<u>Yechim:</u> Rasmdan ko'rinish turibdiki, to'g'ri to'rtburchakni yuzidan doirani yuzini ayirish kerak. Ma'lumki, to'g'ri to'rtburchakni yuzi $S_1=a \cdot b$ , doirani yuzi $S_2=\pi \cdot r^2$ . U holda kerakli yuza: $S = a \cdot b - \pi \cdot r^2$ .	<u>Yechim:</u> Agar rasmdagi to'rtta chekkadagi bo'laklarni yig'sak, to'liq doira hosil bo'ladi. Demak, kvadratni yuzidan doirani yuzini ayirish kerak. Ma'lumki, kvadratni yuzi $S_1=a^2$ , doirani yuzi $S_2=\pi \cdot r^2$ . U holda kerakli yuza: $S = a^2 - \pi \cdot r^2$ .	<u>Yechim:</u> Rasmdan ko'rinish turibdiki, tashqi doiamni yuzidan ichki doirani yuzini ayirish kerak. Ma'lumki, tashqi doirani yuzi $S_1 = \pi \cdot R^2$ , ichki doirani yuzi $S_2 = \pi \cdot r^2$ . Lekin, Paskalda $R$ va $r$ bitta identifikator hisoblanadi, shuning uchun kerakli yuzani quyidagicha yoza-miz: $S = \pi \cdot R^2 - \pi \cdot r^2$ .
Dasturi:	Dasturi:	Dasturi:
Var $a, b, r, s: \text{Real};$ Begin $\text{Write}('a= ');$ $\text{ReadLn}(a);$	Var $a, r, s: \text{Real};$ Begin $\text{Write}('a= ');$ $\text{ReadLn}(a);$	Var $r1, r2, s: \text{Real};$ Begin $\text{Write}('R= ');$ $\text{ReadLn}(R1);$


Write('b= ');     ReadLn(b);     Write('r= ');     ReadLn(r);     s:= a*b-pi*sqr(r);     WriteLn('S = ', s);     End.	Write('r= ');     ReadLn(r);     s:=sqr(a)-pi*sqr(r);     WriteLn('S = ', s);     End.	Write('r= ');     ReadLn(R2);     s:=pi*sqr(R1)-     pi*sqr(R2);     WriteLn('S = ', s);     End.
---	--	---

**M-2.** Berilgan **a** va **b** butun sonlarni qiymatini almashtiruvchi dastur tuzing, ya'ni  $a=7$  va  $b=2$  kiritilsa,  $a=2$  va  $b=7$  natija chiqsin (yo'llanma: o'rinn almashtirish  $m = a$ ,  $a = b$ ,  $b = m$ ).

#### Yechim:

Agar qo'shimcha o'zgaruvchi kiritmasdan faqat **a:=b**; **b:=a**; operatorlari hajarilsa, u holda **a:=b**; o'zlashtirish operatori hajarilganda **a** o'zgaruvchining qiymati xotiradan o'chadi va o'mniga **b** o'zgaruvchining qiymati yoziladi. Yo'llanmadan ko'rinish turibdiki, o'zgaruvchilarni o'mnini almashtirish uchun qo'shimcha o'zgaruvchidan foydalanish kerak. Dastur va unga mos blok sxema hosil qilamiz.

#### Blok sxemasi:



#### Dasturi:

```

Var
  a,b,m: Real;
Begin
  Write('a= '); ReadLn(a);
  Write('b= '); ReadLn(b);
  m := a;
  a := b;
  b := m;
  WriteLn('a = ', a, 'b = ', b);
  ReadLn;
End.
  
```


**M-3.** Mos ravishda  $R_1$ ,  $R_2$ ,  $R_3$ ,  $R_4$  qarshilikka ega bo'ligan o'tkazgichlar parallel ulanganda hosil bo'ladigan **R** qarshilikni hisoblash dasturini tuzing (yo'llanma:  $1/R = 1/R_1 + 1/R_2 + 1/R_3 + 1/R_4$ ).

#### Yechim:

Fizika fanidan ma'lumki, o'tkazgichlar parallel ulanganda hosil bo'ladigan natijaviy qarchilik yo'llanmada berilgan formula bilan hi-

soblanadi. Albatta, ixtiyoriy o'ztkazgich noldan farqli qarshilikka egadir. Formulada natijaviy qarshilik **R** nisbat shaklida berilgan. Shuning uchun avval **N** nisbatni, so'ng natijaviy qarshilikni hisoblab olish qulay. Dastur va unga mos blok sxema hosil qilamiz.

Blok sxemasi:



Dasturi:

Var  
 $R_1, R_2, R_3, R_4, N, R$ : Real;  
 Begin  
 Write('R1='); ReadLn(R1);  
 Write('R2='); ReadLn(R2);  
 Write('R3='); ReadLn(R3);  
 Write('R4='); ReadLn(R4);  
 $N := 1/R_1 + 1/R_2 + 1/R_3 + 1/R_4;$   
 $R := 1/N;$   
 WriteLn('Natijaviy qarshilik R =', R);  
 End.

## 29 – dars. O'tish va tarmoqlanish operatorlari mavzisiga

**M-1.** Quyidagi o'tish operatorlaridan xato yozilganini aniqlang.

a) Goto 10;	To'g'ri yozilgan
b) goto 30;	To'g'ri yozilgan
d) goto -5;	Xato, chunki nishonlarda ishlataladigan son 0 dan 9999 gacha bo'la oladi
e) GoTo 5;	To'g'ri yozilgan
f) goto sin;	To'g'ri yozilgan, chunki sin zahira so'z emas
g) goto 2_5;	Xato, chunki nishonlarda lotin harflari va 0 dan 9999 gacha bo'lган sonlar ishlataladi, 2_5 bu holatlarga to'g'ri kelmaydi, chunki tagchziq belgisi ikkita sonni ajratib turibdi
h) GOTO a_5;	To'g'ri yozilgan

**M-2.** Tarmoqlanish operatori uchun quyidagi taqqoslash shartlari dan xato yozilganini toping.

a) $a <> b$ ;	To'g'ri yozilgan
b) $a <- b$ ;	To'g'ri yozilgan
d) $a >< b$ ;	Xato yozilgan, chunki "teng emas" sharti $\leftrightarrow$ kabi yoziladi (Pascal alifbosi asosida)
e) $-a > 0$ ;	To'g'ri yozilgan
f) $-1 > 0$ ;	To'g'ri yozilgan, natija False
g) $a >> b$ ;	Xato yozilgan, chunki "katta" sharti $>$ kabi yoziladi (Pascal alifbosi asosida)
h) $a := b$ ;	Xato yozilgan, chunki taqqoslashda o'zlashtirish operatori ishlatilmaydi

**M-3.** Quyidagilardan xato yozilganini toping.

a) IF $a = b$ THEN $a := a + 1$ ; ELSE $b := a$ ;	Xato yozilgan, chunki Else dan oldin ":" yozilmaydi
b) IF $a := 1$ THEN $a := a + 1$ ELSE $b := a$ ;	Xato yozilgan, chunki taqqoslashda o'zlashtirish operatori ishlatilmaydi


**M-4.**  $x$  ning berilgan qiymatida  $y = \begin{cases} -1, & \text{agar } x > 0 \\ x^2, & \text{agar } x \leq 0 \end{cases}$  funksiyasi

qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:

Funksiyani aniqlanish formulasi haqiqiy  $x$  o'zgaruvchining qiymati aniqlangan sohaga bog'liq bo'lmoqda, ya'ni  $x$  ning qiymatiga qarab,  $y$  funksiyaga berilgan funsiyalardan birining qiymati o'zlashtiriladi: agar  $x > 0$  shart bajarilsa  $y = -1$ , aks holda  $y = x^2$ . Demak, dasturda tarmoqlanish operatoridan foydalanib shart tekshirish talab etiladi. Ma'lumki, shart tekshiriladigan algoritm tarmoqlanuvchi stukturrali algoritmalar deb ataladi.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```


Program Taqqoslash1;
Var
  x,y: Real;
Begin
  Write('x ni qiymatini kiriting: ');
  ReadLn(x);
  If x>0 Then y:= -1
  Else y:= sqr(x);
  WriteLn('y= ', y:0:3);
  ReadLn;
End.
  
```

**M-5.** Uchta son berilgan. Ular ichida manfiy sonlarning kubini hisoblovchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masalada sonni manfiyligini aniqlash uchun manfiy bo'lish sharti – sonni 0 dan kichikligini tekshirish, ya'ni tarmoqlanish operatidan foydalanish zarur. Masala ichida ko'rinnmaydigan kichik masalacha bor: agar birorta ham manfiy son kiritilmasa, dastur qanday javob chiqaradi? Bu masalachani hal etish uchun dasturda **bor** nomli mantiqiy o'zgaruvchi kiritamiz va **true** qiymat beramiz. Agar kiritilgan sonlardan birortasi manfiy bo'lsa, u holda **bor** mantiqiy o'zgaruvchiga **false** qiymat beramiz, bu holda dastur oxiridagi tarmoqlanish operatorida shart **yolg'on** bo'ladi va Write('Manfiy son kiritilmadi'); operatori bajarilmaydi. Blok sxemada bu holni aks ettirmaymiz.

### Blok sxemasi:



### Dasturi:

```

Var a, b, c: Real;
bor: boolean;
BEGIN bor:=true;
Write('a . b. c kiriting: ');
ReadLn(a,b,c);
IF a<0 Then begin
bor:= false; a:=sqr(a)*a;
Write('a='),a); end;
IF b<0 Then begin
bor:= false; b:=sqr(b)*b;
Write('b='),b); end;
IF c<0 Then begin
bor:= false; c:=sqr(c)*c;
Write('c='),c); end;
If bor then Write('Manfiy
son kiritilmadi');
END.
  
```

**M-6.** Berilgan butun son manfiy bo'lsa uning modulini hisoblash dasturi tuzilsin. Dasturni 2 xil usulda, modul hisoblash uchun  $\text{abs}(x)$  funksiyasidan foydalanib va foydalanmasdan, tuzing.

### Yechim:

Bu masalada ikki xil talab qo'yilgan.

Agar birinchi talab bo'yicha  $\text{abs}(x)$  funksiyasidan foydalanilsa, dastur chiziqli bo'ladi, chunki bu funksiya manfiy sonni ham musbat sonni ham musbat songa, 0 ni 0 ga o'tkazadi. Shuning uchun shart tekshirishni keragi bo'lmaydi.

Agar ikkinchi talab bo'yicha  $\text{abs}(x)$  funksiyasidan foydalanilmasa, u holda sonni manfiyligi tekshirish va agar son manfiy bo'lsa, u holda sonni teskari ishora bilan o'zlashtirish kerak bo'ladi. Demak, bu holda tarmoqlanish operatoridan foydalanish zarur.

#### Dasturi: 1-hol:

```

var x: Real;
BEGIN
Write('Sonni kiriting: ');
ReadLn(x);
  
```

#### Dasturi: 2-hol:

```

var x: Real;
BEGIN
Write('Sonni kiriting: ');
ReadLn(x);
  
```

```

x:=abs(x); Write('Javob: ',x);
END.

```

```

If x<= then x:=-x;
Write('Javob: ',x);
END.


```

**M-7.** Parol “informatika” bo‘lsa, u holda parol to‘g‘ri kiritilganini tekshiruvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Masalada kiritilayotgan matn “informatika” matni bilan bir xilligini tekshirish zarur. Albatta, kiritilayotgan matnni xotirada saqlash uchun **a** satrli o‘zgaruvchi aniqlanadi. Shart tekshirish natijasiga ko‘ra ekranga “Parol to‘g‘ri” yoki “Parol noto‘g‘ri” javoblaridan biri chiqariladi.

### Blok sxemasi:



### Dasturi:

```

var a: String;
BEGIN
    Write('Parolni kiriting: ');
    ReadLn(a);
    If a = 'informatika' then
        write('Parol to‘g‘ri')
    else
        write('Parol noto‘g‘ri');
    readln;
END.

```

## 30 – dars. O‘tish va tarmoqlanish operatorlari mavzusini takrorlash mavzusiga

### **M-1.** Berilgan qiymat asosida shart qiymatini aniqlang.

a)  $a:=10; b:=a^3;$  shart: “ $a < b/3$ ”;

#### Yechim:

$a=10$  va  $b=10^3=30$  bo‘lgani uchun  $a < b/3 \Leftrightarrow 10 < 30/3 \Leftrightarrow 10 < 10$ , bu esa “Yolg‘on”

b)  $a:=10; b:=a^3;$  shart: “ $a \leq b/3$ ”;

#### Yechim:

$a=10$  va  $b=10^3=30$  bo‘lgani uchun  $a \leq b/3 \Leftrightarrow 10 \leq 30/3 \Leftrightarrow 10 \leq 10$ , bu esa “Rost”

d)  $a:=10; b:=a;$  shart:

“ $a+b=2\cdot b$ ”;

#### Yechim:

$a=10$  va  $b=10$  bo‘lgani uchun  $a+b=2\cdot b \Leftrightarrow 10+10=2\cdot 10 \Leftrightarrow 20=20$ . bu esa “Rost”

e)  $a:=10; b:=a+3;$  shart:

“ $a+3 \geq b-3$ ”;

#### Yechim:

$a=10$  va  $b=10+3=13$  bo‘lgani uchun  $a+3 \geq b-3 \Leftrightarrow 10+3 \geq 13-3 \Leftrightarrow 13 \geq 10$ . bu esa “Rost”

**M-2.** Tarmoqlanish natijasida hosil bo'ladigan qiymatlarni aniqlang.

a) aa:=7; bb:=6.6; if aa=round(bb) then mm:='Ha' else mm:='Yo'q';

Yechim:

aa=7, bb=6.6 bo'lgani va **round** funksiyasi sonni yaxlitlagani uchun aa=round(bb) $\Leftrightarrow$ 7=round(6.6) $\Leftrightarrow$ 7=7, bu esa "Rost". Shuning uchun **mm** satrli o'zgaruvchi '**Ha**' qiymatni o'zlashtiradi.

b) ag:=true; if ag then aa:=21 else aa:=7; a:=a+1963;

Yechim:

ag=true, ya'ni "Rost". Shuning uchun **aa** sonli o'zgaruvchi tarmoqlanish operatori ishi natijasida **21** qiymatni o'zlashtiradi. Keyin tarmoqlanish operatoridan tashqaridagi o'zlashtirish operatori ishi natijasida a=a+1963=21+1963=1984 bo'ladi.

d) ag:=true; if ag then aa:=21 else begin aa:=7; a:=a+1963; end;

Yechim:

ag=true, ya'ni "Rost". Shuning uchun **aa** sonli o'zgaruvchi tarmoqlanish operatori ishi natijasida **21** qiymatni o'zlashtiradi.

c) ms:=50; aa:=10; if ms div aa = aa\*5 then ms:=trunc(ms/3) else aa:=ms mod aa;

Yechim:

ms=50, aa=10, **div** butun bo'lish amali bo'lgani uchun

ms div aa=aa\*5 $\Leftrightarrow$ 50 div 10=10\*5 $\Leftrightarrow$ 5=50, bu esa "Yolg'on". Endi **mod** qoldiqni aniqlagani uchun aa=ms mod aa=50 mod 10=0 bo'ladi.


**M-3.** Ikkita a va b sonlar berilgan. Agar b son a dan kichik bo'lsa, u holda b ni nol bilan almashtiruvchi, aks holda b o'zgarishsiz qoldiruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masala algoritmi avvalgi bobning 10-darsida tuzilgan edi. Masalada faqat bir holatda, ya'ni  $b < a$  shart bajarilganda amallar bajarilishi talab etgani uchun tarmoqlanish tuzilmasini qisqa ko'rinishidan foydalanilgan edi. Shu sababli masalaga mos dasturda tarmoqlanish operatorining qisqa ko'rinishidan foydalanish maqsadga muvofiq. Odatda, masala shartida a va b o'zgaruvchilarni butun turdaligi aytilmaganligi uchun haqiqiy turdag'i deb qaraladi.

Blok sxemasi:

Dasturi:




var  
a, b: real;  
BEGIN  
Write('a ni kriting: '); ReadLn(a);  
Write('b ni kriting: '); ReadLn(b);  
If b < a then b := 0;  
writeln('a = ', a:0:8, 'b = ', b:0:8);  
readln;  
END.

**M-4.** Uchta a, b, c sonlar berilgan. Bu sonlardan faqat musbatlarini kvadrat ildizini hisoblab chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masala ham avvalgi bobning 10-darsida ko'rib o'tilgan. Bu masalaga mos dasturda ham tarmoqlanish operatorining qisqa ko'rinishidan foydalanish maqsadga muvofiq. Masala algoritmidan ko'rish mumkinki, shart o'rinni bo'lganda 2 ta amal bajariladi, shu sababli dasturda **then** xizmatchi so'zidan keyin **begin** va **end**; xizmatchi so'zlari yozilgan.

Blok sxemasi:



Dasturi:

var  
a, b, c, kvia, kvib, kvic: real;  
BEGIN  
Write('a ni kriting: '); ReadLn(a);  
Write('b ni kriting: '); ReadLn(b);  
Write('c ni kriting: '); ReadLn(c);  
If a >= 0 then begin kvia := sqrt(a);  
writeln('a uchun ', kvia:0:8); end;  
If b >= 0 then begin kvib := sqrt(b);  
writeln('b uchun ', kvib:0:8); end;  
If c >= 0 then begin kvic := sqrt(c);  
writeln('c uchun ', kvic:0:8); end;  
readln;  
END.

Masala yechimini boshqacha usullarda ham yozish mumkin, masalan, kvia, kvib, kvic kabi o'zgaruvchilar yangi kiritmasdan ham.

### Dasturi:

```

var a, b, c: real;
BEGIN
  Write('a ni kiriting: '); ReadLn(a);
  Write('b ni kiriting: '); ReadLn(b);
  Write('c ni kiriting: '); ReadLn(c);
  If a>=0 then writeln('a ni kvadrat ildizi ', sqrt(a):0:8);
  If b>=0 then writeln('b ni kvadrat ildizi ', sqrt(b):0:8);
  If c>=0 then writeln('c ni kvadrat ildizi ', sqrt(c):0:8); readln;
END.

```


**M-5.**  $ax + b = 0$  tenglamaning ildizini a, b ning quyidagi qiymatlarida hisoblash dasturini tuzing.

- a)  $a=-1, b=1$ ;      b)  $a=0, b=4$ ;      d)  $a=1, b=0$ ;      e)  
 $a=1, b=-5$ .

### Yechim:

Matematika kursidan ma'lumki, bu tenglama yechimi mavjud bo'lishi uchun  $a \neq 0$  shart bajarilishi kerak va bu holda yechim quyidagi ko'rinishda aniqlanadi:  $x = -b/a$ , aks holda tenglamaning yechimi mavjud emas. Demak, bu masalada tarmoqlanish operatorining to'liq ko'rinishidan foydalanish maqsadga muvofiq.

#### Blok sxemasi:



### Dasturi:

```

var a, b: real;
BEGIN
  Write('a ni kiriting: ');
  ReadLn(a);
  Write('b ni kiriting: ');
  ReadLn(b);
  If a<>0 then
    write('x= ', -b/a:0:5)
  else
    write('Yechim yo'q');
  readln;
END.

```

Natijaning ekranligi ko'rinishi:

```

a ni kirititing: -1
b ni kirititing: 1
x = 1.000000
a ni kirititing: 0
b ni kirititing: 4
Yechim yo'q
a ni kirititing: 1
b ni kirititing: 0
x = 0.000000
a ni kirititing: 1
b ni kirititing: -5
x = 5.000000_


```

**M-6.** Berilgan A butun son berilgan noldan farqli B butun songa qoldiqsiz bo'linishi yoki bo'linmasligini aniqlovchi dastur tuzing.

Yechim:

Matematika kursidan ma'lumki, A sonni B songa bo'lgandagi qoldiqni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:  $qol = A - [A/B] \cdot B$ . Lekin Pasal dasturlash tilida A sonni B songa bo'lgandagi qoldiqni **mod** amali yordamida hisoblash mumkin:  $qol = A \bmod B$ . Endi qoldiqni 0 ga teng yoki teng emasligini tarmoqlanish operatorining to'liq ko'rinishidan foydalanih aniqlash mumkin. Masalada B sonning 0 ga teng emasligi bo'lish amali yoki qoldiq uchun muhim.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

var A, B: real;
BEGIN
    Write('A ni kirititing: ');
    ReadLn(A);
    Write('B ni kirititing: ');
    ReadLn(B);
    If A mod B=0 then
        write('Bo'linadi')
    else
        write('Bo'linmaydi ')
    readln;
END.

```


**M-7.** Uchta a, b, c sonlar berilgan. Agar  $a^2+b^2=c^2$  shart bajarilsa, bu sonlarning yig'indisini, aks holda ularni modullari ko'paytmasini hisoblovchi dastur tuzing.

Yechim:

Masalada a, b, c sonlar haqida xech qanday chegaralash yo'q (ma-

salan, butun, natural kabi). Shuning uchun ularni haqiqiy turdagi sonli o'zgaruvchilar deb olish mumkin. Yechimda tarmoqlanish operatorining to'liq ko'rinishidan foydalanish qulay. Dastur tuzayotganda matematika kursidan ma'lum bo'lgan quyidagi tenglikdan foydalanish mumkin:  $|a| \cdot |b| \cdot |c| = |a \cdot b \cdot c|$ .

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

Var a, b, c: Real;
Begin
  Write('a ni kiriting: ');
  ReadLn(a);
  Write('b ni kiriting: ');
  ReadLn(b);
  Write('c ni kiriting: ');
  ReadLn(c);
  If sqr(a)+sqr(b)=sqr(c) Then
    s:=a+b+c Else s:= abs(a*b*c);
  WriteLn('Javob: ', s:0:5);
End.
  
```

## 31 – dars. Tarmoqlanuvchi strukturali dasturlar tuzish mavzusiga

**M-1.** Quyidagi berilgan operatorlardagi xatolarni aniqlang va izohlang.

a) IF  $d > 0$  THEN 63 ELSE  
 $s := d + a;$

Yechim:

Tarmoqlanish operatorida shart to'g'ri yozilgan. Lekin THEN xizmatchi so'zidan keyin o'tish operatori xato yozilgan, chunki Goto yozilmagan. ELSE xizmatchi so'zidan keyin o'zlashtirish operatori to'g'ri yozilgan.

d) IF  $i \neq j$  THEN goto vo ELSE  
 goto ne;

b) IF  $s1 \neq s2$  THEN ELSE  
 $g1 := s1 * s2;$

Yechim:

Tarmoqlanish operatorida shart to'g'ri yozilgan. THEN xizmatchi so'zidan keyin operator yozilmagan, bu esa xato emas – bu holda xech qanday amal bajarilishi talab qilinmagan. ELSE xizmatchi so'zidan keyin o'zlashtirish operatori to'g'ri yozilgan.

e) IF  $x \neq 0$  AND  $x \leq 5$  THEN  
 $y = 4 * \sin(x);$

<p><u>Yechim:</u></p> <p>Tarmoqlanish operatorida shart xato yozilgan, chunki mantiqiy qiymat hosil qiluvchi ifoda yo'q. THEN va ELSE xizmatchi so'zlaridan keyingi o'tish operatorlari to'g'ri yozilgan.</p>	<p><u>Yechim:</u></p> <p>Tarmoqlanish operatorida murakkab shart xato yozilgan, chunki mantiqiy amallar yordamida yozilgan shartlarning har biri qavs ichiga olinishi shart. THEN xizmatchi so'zidan keyingi o'zlashtirish operatorida xato bor: tenglik belgisidan avval ":" belgisi yozilishi kerak.</p>
---	--

**M-2.** Quyidagi mantiqiy ifodalardagi amallarning bajarilish tarti-bini aniqlang.

a) $a < -6 \text{ OR } a >= 0 \text{ AND } a < 4;$	b) $x^*x + y > 0 \text{ AND } a = 0.1 \text{ OR } (b > 3.7 \text{ AND } s < k4);$
<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>(a &gt;= 0) \text{ AND } (a &lt; 4)</math>  2) <math>(a &lt; -6) \text{ OR } ((a &gt;= 0) \text{ AND } (a &lt; 4))</math></p>	<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>(b &gt; 3.7) \text{ AND } (s &lt; k4)</math>  2) <math>(x^*x + y &gt; 0) \text{ AND } (a = 0.1)</math>  3) <math>((x^*x + y &gt; 0) \text{ AND } (a = 0.1)) \text{ OR } ((b &gt; 3.7) \text{ AND } (s &lt; k4))</math></p>
d) $v = 'ha' \text{ AND } x1 > 0 \text{ AND } x2 > 0;$	c) $a > 0 \text{ OR } a < 1 \text{ OR NOT } x^*x + x^*x <= 1;$
<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>(v = 'ha') \text{ AND } (x1 &gt; 0)</math>  2) <math>((v = 'ha') \text{ AND } (x1 &gt; 0)) \text{ AND } (x2 &gt; 0)</math></p>	<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>\text{NOT } (x^*x + x^*x &lt;= 1)</math>  2) <math>(a &gt; 0) \text{ OR } (a &lt; 1)</math>  3) <math>((a &gt; 0) \text{ OR } (a &lt; 1)) \text{ OR } (\text{NOT } (x^*x + x^*x &lt;= 1))</math></p>
f) $\text{NOT } v <= b \text{ AND } (f <= f1 \text{ OR } t = '.*');$	g) $\text{NOT}(\text{NOT}(\text{NOT}(a > b) \text{ OR } \text{TRUE}) \text{ AND } \text{FALSE});$
<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>(f &lt;= f1) \text{ OR } (t = '.*')</math>  2) <math>\text{NOT}(v &lt;= b)</math>  3) <math>(\text{NOT}(v &lt;= b)) \text{ AND } ((f &lt;= f1) \text{ OR } (t = '.*'))</math></p>	<p><u>Yechim:</u></p> <p>1) <math>\text{NOT}(a &gt; b)</math>  2) <math>\text{NOT}(a &gt; b) \text{ OR } \text{TRUE}</math>  3) <math>\text{NOT}(\text{NOT}(a &gt; b) \text{ OR } \text{TRUE})</math>  4) <math>\text{NOT}(\text{NOT}(a &gt; b) \text{ OR } \text{TRUE}) \text{ AND } \text{FALSE}</math>  5) <math>\text{NOT}(\text{NOT}(\text{NOT}(a &gt; b) \text{ OR } \text{TRUE}) \text{ AND } \text{FALSE})</math></p>

**M-3.** Uzunliklari orqali berilgan uchta kesmadan uchburchak hosil qilish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlovchi dastur tuzing.

<p><u>Yechim:</u></p> <p>Masala shartidagi kesmalarni a, b va c haqiqiy sonli o'zgaruvchilar orqali ifodalash mumkin. Geometriya kursidan ma'lumki, uchbur-</p>
---

chakning ixtiyoriy ikki tomoni yig'indisi uchinchi tomonidan katta bo'ladi, bu uchburchak hosil bo'lish shartidir:  $a+b>c$  va  $a+c>b$  va  $b+c>a$ .

1-usul: Bu uchala tengsizlik bir vaqtida bajarilishi shart, shuning uchun dasturda AND mantiqiy amalidan foydalilanildi.

2-usul. Har bir shartni alohida tarmoqlanish operatoridan foydalanib tekshirish mumkin.

<p><u>Blok sxemasi (1-usul)</u></p> <pre> graph TD     Start([Boshlanish]) --&gt; Input[/→ a, b, c/]     Input --&gt; Decision{ha}     Decision -- "a+b&gt;c, a+c&gt;b, b+c&gt;a" --&gt; Parallel1["Uchburchak hosil bo'ladi"]     Decision -- "yo'q" --&gt; Parallel2["Uchburchak hosil bo'lmaydi"]     Parallel1 --&gt; End([Tamom])     Parallel2 --&gt; End   </pre>	<p><u>Dasturi (1-usul):</u></p> <p>Var a, b, c: Real;    Begin    Write('a ni kiriting: '); ReadLn(a);    Write('b ni kiriting: '); ReadLn(b);    Write('c ni kiriting: '); ReadLn(c);    If (a+b&gt;c)and(a+c&gt;b)and(b+c&gt;a)    Then WriteLn('Uchburchak hosil boladi')    Else WriteLn('Uchburchak hosil bo'lmaydi');    End.</p>
<p><u>Blok sxemasi (2-usul):</u></p> <pre> graph TD     Start([Boshlanish]) --&gt; Input[/→ a, b, c/]     Input --&gt; Decision1{ha}     Decision1 -- "a+b&gt;c" --&gt; Decision2{ha}     Decision2 -- "a+c&gt;b" --&gt; Decision3{ha}     Decision3 -- "b+c&gt;a" --&gt; Parallel1["Uchburchak hosil bo'ladi"]     Decision3 -- "yo'q" --&gt; Parallel2["Uchburchak hosil bo'lmaydi"]     Parallel1 --&gt; End([Tamom])     Parallel2 --&gt; End   </pre>	<p><u>Dasturi (2-usul-A):</u></p> <p>Label 1;    Var a, b, c: Real;    Begin    Write('a ni kiriting: '); ReadLn(a);    Write('b ni kiriting: '); ReadLn(b);    Write('c ni kiriting: '); ReadLn(c);    If a+b&gt;c then    If a+c&gt;b then    If b+c&gt;a then Begin    WriteLn('Uchburchak hosil boladi'); goto 1; end:    WriteLn('Uchburchak hosil bo'lmaydi');    1: ReadLn;    End.</p>

Dasturi (2-usul-B):

```

Label 1, 2, 3, 4;
Var a, b, c: Real;
Begin
    Write('a ni kriting: '); ReadLn(a); Write('b ni kriting: ');
    ReadLn(b); Write('c ni kriting: '); ReadLn(c);
    If a+b>c then goto 2 else goto 1;
    2: If a+c>b then goto 3 else goto 1;
    3: If b+c>a then
        Begin WriteLn('Uchburchak hosil boladi'); goto 4; end;
    1: WriteLn('Uchburchak hosil bo\'lmaydi');
    4: Readln;
End.

```

**M-4.** Quyi sinf o'quvchisini ko'paytirish jadvali bo'yicha sinovchi dastur tuzing. To'g'ri javob berilganda "Barakalla", aks holda "Qayta ishla" matnlari turli rangda chiqsin.

Yechim:

Ko'paytirish (karra) jadvalida, odatda, 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlar ko'paymasini hisoblangan bo'ladi. Shuning uchun dasturda 1 dan 9 gacha sonlarni hosil qilish uchun **Random(x)** funksiyasidan foydalanish mumkin. Ma'lumki, **Random(9)** funksiyasi funksiyasi [0, 9] oraliqdan (9 kirmaydi) tasodifiy butun sonlarni olib beradi. Shuning uchun [1, 9] oraliqdagi butun sonlarni tasodifan olish uchun **Random(9)+1** ifodani yozish lozim. Dastur har ishlatilganda yangi sonlar hosil qilishi uchun **Randomize** funksiyasini yozish kerak bo'ladi. Dastur ishlaganda hosil bo'ladigan sonlar 0 dan katta va 127 dan kichik bo'lgani uchun o'zgaruvchilar turini **byte** kabi olish maqsadga muvofiq.

Dasturi:

```

Uses crt;
Label 1;
Var a, b, c: byte;
Begin
    1: textbackground(14); clrscr; Randomize; a:=Random(9)+1;
    b:=Random(9)+1; textColor (0); GotoXY(35,12); Write(a,' * ',b, ' = ');
    textColor(2); ReadLn(c);
    If a*b=c Then Begin textColor(7); GotoXY(35,13);
    Writeln('Barakalla!'); readln; End
    Else Begin textColor (4); GotoXY(34,13);

```

```

    WriteLn('Qayta ishlə'); readln; goto 1; End;
End.

```

**M-5.** Kiritilgan 1 dan 7 gacha oraliqda bo'lgan raqamga asosan hafta kunini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Masala shartida kiritilayotgan raqam **byte** turdag'i butun o'zgaruvchiga mos. Dasturda tarmoqlanish operatorining qisqa ko'rinishidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Dasturi:

Label 1;

Var a: byte;

Begin Write('Hafta kunini tartib raqamini kriting: '); ReadLn(a);

If a=1 Then WriteLn('DUSHANBA');

If a=2 Then WriteLn('SESHANBA');

If a=3 Then WriteLn('CHORSHANBA');

If a=4 Then WriteLn('PAYSHANBA');

If a=5 Then WriteLn('JUMA');

If a=6 Then WriteLn('SHANBA');

If a=7 Then WriteLn('YAKSHANBA') ; readln;

End

## 32 – dars. Tarmoqlanuvchi strukturali dasturlar tuzish mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Murakkab mantiqiy amallar natijasini aniqlang.

a) a:=true; b:=true; m:=false; bb:=NOT(a AND m) AND (a OR b) OR m;

Yechim: Bajarilayotgan amal kursiv ko'rinishda yozilgan.

bb:= NOT(true AND false) AND (true OR true) OR false = NOT(false) AND true OR false = true AND true OR false = true OR false = **true**.

b) a:=77; b:=11; m:=7; ms:=(a div b=m) AND (a mod m=0) AND NOT((a>b) OR (b<m));

Yechim: Bajarilayotgan amal kursiv ko'rinishda yozilgan.

ms:=(77 div 11 = 7) AND (77 mod 7 = 0) AND NOT ((77>11) OR (11<7)) =  
= (7 = 7) AND (0 = 0) AND NOT (true OR false) =  
= true AND true AND NOT (true) = true AND false = **false**.

**M-2.** Tarmoqlanish natijasida hosil bo'ladigan qiymatlarni aniqlang.

a)  $x := -1; y := 0; a := 0.1;$  IF  $(x * x + y > 0)$  AND  $(a = 1/10)$  THEN  $mm := \text{true}$  else  $mm := \text{false};$

Yechim:

Shart tekshirish natijasi  $(x * x + y > 0)$  AND  $(a = 1/10) \Leftrightarrow$

$\Leftrightarrow ((-1) * (-1) + 0 > 0)$  AND  $(0.1 = 1/10) \Leftrightarrow (1 + 0 > 0)$  AND  $(0.1 = 0.1) \Leftrightarrow$

$\Leftrightarrow (1 > 0)$  AND true  $\Leftrightarrow$  true AND true  $\Leftrightarrow \text{true}.$

U holda **mm:=true**.

b)  $x1 := \text{sqr}(-1); v := 'h a'; x2 := \text{sqrt}(x1);$  IF  $(v = 'ha')$  AND  $(x1 > 0)$  AND  $(x2 > 0)$  THEN  $x1 := 0;$

Yechim:

Avval  $x1$  va  $x2$  qiymatlari aniqlanadi:

$x1 = \text{sqr}(-1) = 1; x2 = \text{sqrt}(x1) = \text{sqrt}(1) = 1;$

Shart tekshirish natijasi  $(v = 'ha')$  AND  $(x1 > 0)$  AND  $(x2 > 0) \Leftrightarrow$

$\Leftrightarrow ('ha' = 'ha') \text{ AND } (1 > 0) \text{ AND } (1 > 0) \Leftrightarrow \text{true AND true AND true} \Leftrightarrow$

$\Leftrightarrow \text{true AND true} \Leftrightarrow \text{true}$


U holda **x1:=0.**

**M-3.** Uchta a, b, c son berilgan.  $a < b < c$  tengsizlikni bajarilish yoki bajarilmasligini tekshiruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Masala shartidagi a, b va c sanlar haqiqiy turdag'i o'zgaruvchilar bo'ladi. Tekshirish talab etilayotgan  $a < b < c$  tengsizlikni Paskal dasturlash tilida  $(a < b)$  AND  $(b < c)$  kabi yozish mumkin.

Blok sxemasi:



Dasturi:

Var a, b, c: Real;

Begin

Write('a ni kiriting: '); ReadLn(a); Write('b ni kiriting: ');

ReadLn(b); Write('c ni kiriting: '); ReadLn(c);

```

If (a<b) and (b<c) Then WriteLn('Bajariladi')
Else WriteLn('Bajarilmaydi');

Readln;
End.

```


**M-4.** Berilgan A butun son berilgan B butun songa qoldiqsiz bo'linsa bu ikkala sonni yig'indisi kvadratini, aks holda ko'paytmasini chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masala sharti 30-dars 6-topshiriqdagagi masala shartidan quyida gicha farq qiladi:

- 1) 30-dars 6-topshiriqda B noldan farqli butun son, demak, bu soniga bo'lish mumkin edi.
- 2) 30-dars 6-topshiriqda faqatgina "Bo'linadi" yoki "Bo'linmaydi" javoblaridan biri chiqadi.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

Var
a, b, s: integer;
Begin
    Write('A ni kiriting: ');
    Readln(A);
    Write('B ni kiriting: ');
    Readln(B);
    If B<>0 Then begin
        If A mod B=0 then
            s:=sqr(A+B) else s:=A*B;
        WriteLn('Javob: ', s); end
    Else WriteLn('Hisoblab bo'lmaydi');
    Readln;
End.

```


**M-5.** Berilgan butun N son musbat va 5 ga karrali bo'lsa, shu sonni kvadrat ildizini, aks holda kvadratini hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:

Oldingi bobda K sonini 11 ga karralilagini tekshirish uchun  $[K/11]=K/11$  sharti tekshirilgan edi. Bu masalada ham shartni shu kabi yozish mumkin:  $[N/5]=N/5$ . Algoritm tuzishda bu yoki  $N-[N/5]\cdot 5=0$

formuladan foydalanish mumkin, lekin Paskal dasturlash tilida bu kabi shartlarni, agar N butun son bo'lsa,  $N \bmod 5 = 0$  shart bilan ham almashtirish qulay. Agar N sonining butunligi noma'lum bo'lsa, u holda Paskal dasturlash tilida  $\text{INT}(N/5) = N/5$  shartdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

Var
N:integer;
K: Real;
Begin
Write('N ni kiriting: ');
ReadLn(N);
If (N>0) AND (N mod 5=0) then
  K:=sqrt(N)
else K:=sqr(N);
WriteLn('Javob: ', K:0:3);
ReadIn;
End.
  
```

**M-6.** M va N sonlar berilgan. Agar ular musbat va yig'indisi 100 dan katta bo'lsa, M sonni N soniga nisbatini, ular musbat va yig'indisi 100 dan katta bo'lmasa M ni N ga ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:


Berilgan sonlar M va N haqiqiy tur'dagi o'zgaruvchilarga o'zlashtiriladi. Masala shartidan ayonki,  $M>0$ ,  $N>0$  bo'lganda  $M+N>100$  bo'lsa  $M/N$  bo'linmani ( $N>0$  bo'lgani uchun mahraj o'bo'la olmaydi), aks holda, ya'ni  $M+N\leq 100$  bo'lsa, M·N ko'paytmani hisoblash kerak. Bu holda tarmoqlanish operatorlari ichma-ich joylashmoqda. Adashib ketmaslik uchun ichki tarmoqlanish operatorini **begin** va **end** xizmatchi so'zlari orasiga yozish qulay. Boshqa hollar da xech qanday amal bajarilmaydi.

Blok sxemasi:

Dasturi:

```

Var
M, N, K: Real;
Begin
Write('M ni kiriting: '); ReadLn(M);
  
```



```

Write('N ni kriting: '); ReadLn(N);
If (M>0) AND (N>0) then
begin
  If M+N>100 then K:=M/N
  else K:= M*N;
  WriteLn('Javob: ', K:0:3);
end
else
WriteLn('Shartlar bajarilmaydi');
ReadLn();
End.


```

**M-7.** Berilgan N sonni butun qismi kasr qismini 1000 ga ko'paytirilganidan katta bo'lsa, sonning butun qismini, aks holda kasr qismining birinchi 3 ta raqamini chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Berilgan son N haqiqiy turdag'i o'zgaruvchiga o'zlashtiriladi. Masala shartiga ko'tra N sonini butun qismini (**trunc** yordamida ajratib) kasr qismini (**frac** yordamida ajratib) 1000 ga ko'paytmasi bilan taqqoslash kerak. Sonni kasr qismini chiqarishda formatlash talab etilgan. Algoritmda formatlash aks ettirilmaydi. Matematikada  $\lfloor N \rfloor$  – N sonini kasr qismi.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

Var
N: Real;
Begin
Write('N ni kriting: '); ReadLn(N);
If trunc(N) > frac(N)*1000 then
  WriteLn('Butun: ', trunc(N))
else
  WriteLn('Kasr: ', frac(N):0:3);
ReadLn();
End.

```

## 33 – dars. Parametrli takrorlash operatori mavzusiga

**M-1.** Quyidagi operatorlardagi takrorlanishlar sonini aniqlang.

Yechim:

Har bir **For I:= N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>**; parametrli takrorlash operatorida takrorlanishlar sonini aniqlash uchun takrorlash parametrining boshlang'ich N1 va oxirgi N2 qiymatlari orasidagi farqni hisoblab, 1 ni qo'shish kerak:

**Takrorlanishlar soni=N2-N1+1**


- a) for i:=1 to 88 do b:=1; takrorlash operatorida  $88-1+1=88$  ta
- b) for i:=73 to 161 do m:=2; takrorlash operatorida  $161-73+1=89$  ta
- d) for i:=-21 to 0 do a:=3; takrorlash operatorida  $0 - (-21)+1=21+1=22$  ta
- e) a:=5; b:=34; for i:=a+7 to b-1 do s:=s+1; takrorlash operatorida  $(b-1)-(a+7)+1=(34-1)-(5+7)+1=33-12+1=19+1=20$  ta
- f) a:=5; b:=19; for i:=a\*a to 2\*b+8 do s:=s+1; takrorlash operatorida  $(2*b+8)-(a*a)+1=(2*19+8)-(5*5)+1=46-25+1=21+1=22$  ta

**M-2.**  $y = 21x^2 + 7x + 1963$  funksiyaning qiymatini  $x$  ning  $-5, -4, -3, -2, -1, 0, 1, 2, 3, 4, 5$  qiymatlarida hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:

Masalada butun turdagи takrorlash parametri  $x$  ning boshlang'ich qiymati  $N1 = -5$  va oxirgi qiymati  $N2=5$  ga teng, ya'ni takrorlanishlar soni  $N2-N1+1=5-(-5)+1=11$  ta. Takrorlanish tanasi  $y=21\cdot x^2+7\cdot x+1963$  funksiyasini hisoblaydigan o'zlashtirish operatori, o'zgaruvchi  $x$  ning va unga mos  $y$  funksiyaning qiymatini ekranga chiqaruvchi operatordan iborat. Demak, takrorlanish tanasida ikkita operator bo'lgani uchun **Begin** va **End** xizmatchi so'zlarini orasida yoziladi.

Blok sxemasi:



Dasturi:


```
Var x, y: integer;
Begin
  For x:=-5 to 5 do
    Begin
      y:=21*sqr(x)+7*x+1963;
      WriteLn('x= ', x, ' da ', 'y= ', y);
    End;
  Readln;
End.
```

**M-3.**  $y = 23x + 1$  funksiyaning qiymatini  $x$  ning  $[-15, 5]$  oraliqdag'i butun qiymatlari hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:

Bu masalada butun turdag'i takrorlash parametri  $x$  ning boshlang'ich qiymati  $\mathbf{N1} = -15$  va oxirgi qiymati  $\mathbf{N2} = 5$  ga teng, ya'ni takrorlanishlar soni  $N2 - N1 + 1 = 5 - (-15) + 1 = 21$  ta. Takrorlanish tanasi  $y = 23 \cdot x + 1$  funksiyasini hisoblaydigan o'zlashtirish operatori, o'zgaruvchi  $x$  ning va unga mos  $y$  funksiyaning qiymatini ekranga chiqaruvechi operatoridan iborat. Demak, takrorlanish tanasida ikkita operator bo'lgani uchun **Begin** va **End** xizmatchi so'zlari orasida yoziladi.

Blok sxemasi:



Dasturi:

```

Var
  x, y: integer;
Begin
  For x:=-15 to 5 do
    Begin
      y:=23*x+1;
      WriteLn('x = ', x, ' da ', 'y = ', y);
    End;
  Readln;
End.
  
```


**M-4.**  $A[1..17]$  massiv berilgan. Massivning nolga teng elementlari indeksini chiqaruvechi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masalada elementlari haqiqiy turda bo'lgan 17 ta elementli  $A$  massiv berilgan, demak, massiv kiritiladi. Shuning uchun takrorlash parametri  $k$  ning boshlang'ich qiymati  $\mathbf{N1}=1$  va oxirgi qiymati  $\mathbf{N2}=17$  ga teng, ya'ni takrorlanishlar soni  $N2 - N1 + 1 = 17 - 1 + 1 = 17$  ta bo'lib, takrorlanish tanasi massiv elementini muloqot usulida kiritish operatoridan iborat bo'ladi. Masala yechimida parametrlı takrorlash operatori ikkinchi marta qo'llanilganda takrorlanish tanasi massiv elementini 0 bilan taq-qoslash uchun qisqa ko'rinishdagi tarmoqlanish operatoridan iborat bo'ladi va agar massiv elementi 0 ga teng bo'lsa ma'lumotlarni chiqarish operatori yordamida ekranga chiqariladi.

Blok sxemasi:

Dasturi:



Var

k: integer;

A: array[1..17] of real;

Begin

For k:= 1 to 17 do

begin

write('A[ ', k, ']= ');

readln(A[k]);

end;

For k:= 1 to 17 do

If A[k]=0 then

WriteLn('A[ ', k, ']= ', A[k]:0:0);

Readln;

End.

**M-5.**  $y = 2x + 19$  funksiyaning qiymatini  $x$  ning  $[0, 10]$  oraliqda 0,25 qadam bilan hisoblash dasturini tuzing (yo'llanma:  $i=0$  da  $x=0$ ;  $i=1$  da  $x=0,25$ ; ...;  $i=40$  da  $x=10$ ).

### Yechim:

Parametrli takrorlash operatorining parametri qiymati butun son bo'lishi hamda parametr qiymati 1 qadam bilan o'zgarishi kerak. Bu masalada esa  $x$  o'zgaruvchining qiymati 0,25 qadam bilan o'zgarishi sababli haqiqiy son qiymatlarni qabul qildi. Bu muammoni hal etish uchun masalada berilgan yo'llanmadan foydalanish maqsadga muvofiq. Berilgan yo'llanmadagi qonuniyat quyidagicha:

$$i=0 \text{ da } x=i \cdot 0.25=0 \cdot 0.25=0;$$

$$i=1 \text{ da } x=i \cdot 0.25=1 \cdot 0.25=0.25;$$

$$i=2 \text{ da } x=i \cdot 0.25=2 \cdot 0.25=0.5;$$

$$i=3 \text{ da } x=i \cdot 0.25=3 \cdot 0.25=0.75;$$

$$i=4 \text{ da } x=i \cdot 0.25=4 \cdot 0.25=1;$$

...


$$i=39 \text{ da } x=i \cdot 0.25=39 \cdot 0.25=9.75;$$

$$i=40 \text{ da } x=i \cdot 0.25=40 \cdot 0.25=10.$$

Demak, parametr sifatida butun turdag'i o'zgaruvchini olish mumkin. Bu holda takrorlanishlar soni  $40 - 0 + 1 = 41$  ta.

Blok sxemasi:

Dasturi:



Var  
*i*: integer;  
*x, y*: real;  
Begin  
For *i*:= 0 to 40 do  
begin  
    *x*:=*i*\*0.25;  
    *y*:=2\**x*+19;  
    WriteLn('x= ', *x*, ' da ', 'y= ', *y*:0:5);  
end;  
Readln;  
End.

### 34 – dars. Parametrli takrorlash operatori mavzusini takrorlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi operatorlardagi xatolarni aniqlang va izohlang.

a) for *I*:= -15 to 5 do *s*:=*s*+*I*;

Yechim:

Parametrli takrorlash operatorida parametrga boshlang'ich qiymat o'zlashtiriladi. Shuning uchun “*I*:= -15” ifoda xato yozilgan.

b) for *kub*:=100/10+11 to 1963 do begin *a*:=7;end;

Yechim:

Parametrli takrorlash operatorida parametr qiymati butun son bo'lishi shart. Yozilgan boshlang'ich qiymatda nisbat qatnashgani uchun Paskal dasturlash tilida haqiqiy son hisoblanadi. Shuning uchun “100/10” xato yozilgan.

d) for *mag*:=99 dawnto 1 do readl(aa);

Yechim:

Bu operatorda takrorlanish tanasidagi operator xato yozilgan, u “readln(aa)” kabi yozilishi lozim.

e) for *bma*:= 0.5 to 10 do writeln(k);

Yechim:

Parametrli takrorlash operatorida parametr qiymati butun son bo'lishi shart. Yozilgan boshlang'ich qiymatda haqiqiy son qatnashgan, ya'ni “0” xato yozilgan.

## M-2. Quyidagi operatorlardagi takrorlanishlar sonini aniqlang.

Yechim:

Har bir **For I := N1 To N2 Do <takrorlanish tanasi>**; parametrli takrorlash operatorida takrorlanishlar sonini aniqlash uchun takrorlash parametrining boshlang'ich N1 va oxirgi N2 qiymatlari orasidagi farqni hisoblab, 1 ni qo'shish kerak (downto xizmatchi so'zi ishlatsa, quyidagi formuladagi N1 va N2 o'rni almashadi):

$$\text{Takrorlanishlar soni} = N2 - N1 + 1$$

- a) for k:=trunc(23/5) downto trunc(1/2) do m:=1991; takrorlash operatorida  $\text{trunc}(23/5) - \text{trunc}(1/2) + 1 = \text{trunc}(4.6) - \text{trunc}(0.5) + 1 = 4 - 0 + 1 = 5$  ta
- b) for s:=23 to 1 do m:=1963; takrorlash operatorida  $23 - 23 + 1 = -21$ , ya'ni biror marta ham takrorlanmaydi.
- d) for J:=2 downto 19 do m:= 1950; takrorlash operatorida  $2 - 19 + 1 = -16$ , ya'ni biror marta ham takrorlanmaydi.
- e) for d:=23 downto 1 do m:= 2009; takrorlash operatorida  $23 - 1 + 1 = 23$  ta
- f) for i:=abs(-25) to 25 do s:=s+i\*i; takrorlash operatorida  $25 - \text{abs}(-25) + 1 = 25 - 25 + 1 = 1$  ta.
- g) for h:=round(9.6) downto trunc(3\*3) do a:=21; takrorlash operatorida  $\text{round}(9.6) - \text{trunc}(3*3) + 1 = 10 - 9 + 1 = 2$  ta.

## M-3. S=10+12+14+...+50 yig'indini hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:

Masaladagi yig'indi tahlil etilsa, qo'shiluvchilar ikkitaga ortayotganini ko'rish mumkin. Bu holda parametrli takrorlash operatorini qo'llab bo'lmaydi, chunki parametr har qadamda bittaga ortishi mumkin. Shuning uchun turli xil usullarni qo'llash kerak bo'ladi.


Masalan:

1-usul. Parametr qiymatini 10 dan 50 gacha bittalab o'zgartiriladi, lekin yig'indiga faqat juft qiymatlarni qo'shiladi.

2-usul. Parametr qiymatini 5 dan 25 gacha bittalab o'zgartiriladi, lekin yig'indiga parametr qiymatini ikkiga ko'paytirib qo'shiladi ( $5 \cdot 2 = 10$ ,  $6 \cdot 2 = 12$ , ...,  $25 \cdot 2 = 50$ ).

Blok sxemasi (1-usul):

Blok sxemasi (2-usul):




Dasturi (1-usul):

```

Var
    K, S: integer;
Begin
    S:=0;
    For K:= 10 to 50 do
        If K mod 2 = 0 then S:=S+K;
        WriteLn('S= ', S);
        Readln;
End.

```



Dasturi (2-usul):

```

Var
    K, S: integer;
Begin
    S:=0;
    For K:= 5 to 25 do
        S:=S+2*K;
        WriteLn('S= ', S);
        Readln;
End.

```

$$\textbf{M-4. } S = \frac{7}{11} + \frac{17}{21} + \frac{27}{31} + \dots + \frac{2007}{2011} \text{ yig'indini hisoblash dasturini}$$

tuzing (yo'llanma: J ni 10 ga bo'l ganda qoldiq 7).

Yechim:

Masaladagi yig'indi tahlil etilsa, qo'shiluvchilar kasri ko'rinishida, ya'ni haqiqiy sonligini ko'rish mumkin. Bu holda parametrlı takrorlash operatorini qo'llab bo'lmaydi, chunki parametr faqat butun son bo'lishi mumkin. Shuning uchun sun'iy usullarni qo'llash kerak bo'ladi. Masa-lan:

1-usul. Yo'llanmada qo'shiluvehini suratini aniqlash usuli aytilgan, chunki:  $7 \bmod 10 = 7$ ,  $17 \bmod 10 = 7$ , ...,  $2007 \bmod 10 = 7$ . Mahraj esa suratdan 4 ta ortiq. Shuning uchun parametr sifatida butun qiymatli J


o'zgaruvchini olib, boshlang'ich qiymatini 7, oxirgi qiymatini 2007 deb olish va yig'indiga faqat 10 bo'linganda qoldig'i 7 bo'lgan sonlarni qo'shish lozim. Qoldiq hisoblash avval uchragan masalalarda ko'rilib.

2-usul. Parametr K qiymatini 0 dan 200 gacha bittalab o'zgartiriladi, lekin yig'indidagi suratni hosil qilish uchun 10 ga ko'paytirib 7 ni qo'shiladi:  $0 \cdot 10 + 7 = 7$ ,  $1 \cdot 10 + 7 = 17$ , ...,  $200 \cdot 10 + 7 = 2007$ . Mahraj esa suratdan 4 ta ortiq:  $0 \cdot 10 + 11 = 11$ ,  $1 \cdot 10 + 11 = 21$ , ...,  $200 \cdot 10 + 11 = 2011$ . Bu usulda 1-usulga nisbatan kam amal bajariladi.


3-usul. Parametr M qiymatini 1 dan 201 gacha bittalab o'zgartiriladi, lekin yig'indidagi mahrajni hosil qilish uchun 10 ga ko'paytirib 1 ni qo'shiladi:  $1 \cdot 10 + 1 = 11$ ,  $2 \cdot 10 + 1 = 21$ , ...,  $201 \cdot 10 + 1 = 2011$ . Surat esa:  $1 \cdot 10 - 3 = 7$ ,  $2 \cdot 10 - 3 = 17$ , ...,  $201 \cdot 10 - 3 = 2007$ . Bu usulda 1-usulga nisbatan kam, 2-usul bilan deyarli bir xil amal bajariladi.

Izoh: Bu kabi masalalarni parametrlri takrorlash operatorisiz ham oson hal etish mumkin (masalan, tarmoqlash va o'tish operatori yordamida, ya'ni 4-usulni qarang). Lekin hozirgi maqsad parametrlri takrorlash operatorini qo'llash imkoniyatlarini ko'rib chiqishdir.

Blok sxemasi (1-usul):




Blok sxemasi (2-usul):



Dasturi (1-usul):


Dasturi (2-usul):

Var  
 J: integer; S:real;  
**Begin**  
 S:=0;  
 For J:= 7 to 2007 do  
     If J mod 10 = 7 then  
         S:=S+J/(J+4);  
 WriteLn('S= ', S:0:5);  
 Readln;  
**End.**



Dasturi (3-usul):  
 Var  
 M: integer; S:real;  
**Begin**  
 S:=0;  
 For M:= 1 to 201 do  
     S:=S+(10\*M-3)/(10\*M+1);  
 WriteLn('S= ', S:0:5);  
 Readln;  
**End.**

Var  
 K: integer; S:real;  
**Begin**  
 S:=0;  
 For K:= 0 to 200 do  
     S:=S+(10\*K+7)/(10\*K+11);  
 WriteLn('S= ', S:0:5);  
 Readln;  
**End.**



Dasturi (4-usul):  
 Label 1:  
 Var  
 N: integer; S:real;  
**Begin**  
 S:=0; N:=7;  
 L1: S:=S+N/(N+4); N:=N+10;  
 If N<=2007 then goto L1;  
 WriteLn('S= ', S:0:5);  
 Readln;  
**End.**

## M-5. $P=1 \cdot 3 \cdot 5 \cdots \cdot 23$ ko'paytmani hisoblash dasturini tuzing.

Yechim:


Masaladagi ko'paytma tahlil etilsa, ko'paytuvchilar ikkitaga ort-moqda. Bu holda ham parametrli takrorlash operatorini qo'llab bo'lmaydi, chunki parametr faqat bittaga ortishi mumkin. Shuning uchun sun'iy usullarni qo'llash kerak bo'ladi. Masalan:

1-usul. Parametr sifatidagi K ni 0 dan 11 gacha bittalab orttiriladi. Shunda:  $2 \cdot 0 + 1 = 1$ ,  $2 \cdot 1 + 1 = 3$ ,  $2 \cdot 2 + 1 = 5$ , ...,  $2 \cdot 11 + 1 = 23$ .


2-usul. Parametr sifatidagi M ni 1 dan 12 gacha bittalab orttiriladi. Shunda:  $2 \cdot 1 - 1 = 1$ ,  $2 \cdot 2 - 1 = 3$ ,  $2 \cdot 3 - 1 = 5$ , ...,  $2 \cdot 12 - 1 = 23$ .

Izoh: Masala yechimidagi parametrlar qiymati 0 dan kichik bo'lmasani va 127 dan katta bo'lmasani uchun parametr o'zgaruvchisi turini **byte**, ko'paytma katta son bo'lib ketishini hisobga olib natijaviy ko'paytma o'zgaruvchisi P ni word turida olish maqsadga muvofiq.

Blok sxemasi (1-usul):



Blok sxemasi (2-usul):



Dasturi (1-usul):

```

Var
  K: byte; P: word;
Begin
  P:=1;
  For K:= 0 to 11 do
    P:=P*(2*K+1);
    WriteLn('P= ', P);
    Readln;
End.
  
```

Dasturi (2-usul):

```


Var
  M: byte; P: word;
Begin
  P:=1;
  For M:= 1 to 12 do
    P:=P*(2*M-1);
    WriteLn('P= ', P);
    Readln;
End.
  
```

**M-6.** A[1..5] massiv berilgan. Massiv elementlarini teskari tartibda chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masalada elementlari haqiqiy turda bo'lgan 5 ta elementli A massiv berilgan, demak, massiv kiritiladi. Shuning uchun takrorlash parametri **k** ning qiymati 1 dan to 5 ga o'zgaradi, takrorlanish tanasi massiv elementini muloqot usulida kiritish operatoridan iborat bo'ladi. Masala yechimida parametrla takrorlash operatori ikkinchi marta qo'llanilganda takrorlanish tanasi massiv elementlarini teskari tartibda chiqarishdan iborat bo'ladi. Algoritm tuzish uchun **k** parametr 1 dan 5 gacha bittalab ortganda **6-k** soni 5 dan 1 gacha bittalab kamayishini hisobga olish kifoya. Paskal dasturlash tilida bu formulasiz ham masalan hal etish mumkin. Buning uchun **For k:=5 downto 1 do** parametrla takrorlash operatorini yozish mumkin.

Blok sxemasi:



Dasturi (1-usul):

```

Var
  k: integer;
  A: array[1..5] of real;
Begin
  For k:= 1 to 5 do
    begin write('A[', k, '] = ');
      readln(A[k]);
    end;
  For k:= 5 downto 1 do
    WriteLn(A[6-k]:0:3);
  Readln;
End.
  
```

Dasturi (2-usul):

```


Var k: integer;
A: array[1..5] of real;
Begin
  For k:= 1 to 5 do begin write('A[', k, '] = ');
    readln(A[k]);
  end;
  For k:= 5 downto 1 do WriteLn(A[k]:0:3);
  Readln;
End.
  
```

**M-7.** A[1..15] massiv berilgan. Massivni toq indeksli elementlarini yig'indisidan juft indeksli elementlarini yig'indisini ayirib chiqaruvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Bu masalada elementlari haqiqiy turda bo'lgan 15 ta elementli A massiv berilgan, demak, massiv kiritiladi. Shuning uchun takrorlash parametri  $k$  ning qiymati 1 dan to 15 ga o'zgaradi, takrorlanish tanasi massiv elementini muloqot usulida kiritish operatoridan iborat bo'ladi. Masala yechimida parametrla takrorlash operatori ikkinchi marta qo'llanilganda takrorlanish tanasi massiv elementlari indeksini toq yoki juftligini tekshiruvchi  $to'liq$  ko'rinishdagi tarmoqlanish operatoridan iborat bo'ladi. Tarmoqlanish natijasiga ko'ra  $S:=S+A[k]$  yig'indi yoki  $S:=S-A[k]$  ayirma hisoblanadi.

#### Blok sxemasi:



#### Dasturi:

```

Var
  k: integer; S: real;
  A: array[1..15] of real;
Begin
  For k:= 1 to 15 do begin
    write('A[', k, ']= ');
    readln(A[k]);
  end;
  For k:= 1 to 15 do
    If k mod 2 = 0 Then S:=S-A[k]
    Else S:=S+A[k];
  WriteLn('S= ', S:0:3);
  Readln;
End.
  
```

## **35 – dars. Shart bo'yicha takrorlash operatorlari mavzusiga**

### **M-1. Quyidagi operatorlardagi xatoliklarni aniqlang va izohlang.**

a) whlle 5\*6 do SH:=sqr(2);

Javob:

**While** va **do** xizmatchi so'zlari orasida tekshirilishi zarur bo'lgan shart yozilishi kerak, 5\*6 esa shart bo'la olmaydi.

b) WHILE 5>6 do Od:=Od+1;

Javob:

Bu operator yozilishida xato yo'q. Yozilgan  $5>6$  sharti "Yolg'on" qiymat qabul qiladi, shuning uchun takrorlanish soni 0 ta.

d) Repeat  $i < j$  Until  $s := 0$ ;

Javob:

**Repeat** va **Until** xizmatchi so'zlari orasida bajarilishi lozim bo'lган operatorlar yozilishi kerak, lekin  $i < j$  operator emas, **Until** xizmatchi so'zidan keyin esa tekshirilishi zarur bo'lган shart yozilishi kerak,  $s := 0$  esa shart emas, u o'zlashtirish operatoridir.

e) rEpEaT  $s := 0$  UntiL  $s := 0$ ;

Javob:

**Until** xizmatchi so'zidan keyin esa tekshirilishi zarur bo'lган shart yozilishi kerak,  $s := 0$  esa o'zlashtirish operatoridir, shart emas.

## M-2. Quyidagi operatorlardagi takrorlanishlar sonini aniqlang.

a)  $x := -5$ ; while  $X > 0$  do  $x := x + 2$ ;

O'zgaruvchi  $x$  ning qiymati – 5, ya'ni manfiy. Shuning uchun takrorlash operatoridagi  $X > 0$  shart bajarilmaydi. Demak, takrorlanishlar soni 0 ta.

b)  $x := -5$ ; while  $X < 10$  do begin  $x := x + 2$ ;  $x := 2 * x$ ; end;

O'zgaruvchi  $x$  ning qiymati – 5, shuning uchun shart bo'yicha takrorlash operatoridagi  $X < 10$  shart bajariladi. U holda **do** xizmatchi so'zidan keyin yozilgan **begin** va **end** xizmatchi so'zlari orasidagi operatorlar bajariladi. Natijada birinchi takrorlanishda quyidagi qiymatlar hosil bo'ladi:

$$x := x + 2 = -5 + 2 = -3; x := 2 * x = 2 * (-3) = -6;$$

O'zgaruvchi  $x$  ning qiymati – 6, shuning uchun takrorlash operatoridagi  $X < 10$  shart bajariladi. Ikkinchi takrorlanishda quyidagi qiymatlar hosil bo'ladi:

$$x := x + 2 = -6 + 2 = -4; x := 2 * x = 2 * (-4) = -8;$$

Bundan ko'rindaniki, o'zgaruvchi  $x$  ning qiymati har takrorlanishda kamayib hormoqda. Demak, har bir takrorlanishdan keyin  $X < 10$  shart bajarilaveradi. Bu esa takrorlanish cheksiz marta ro'y berishi mumkinligini bildiradi.

Lekin, Paskal dasturlash tilida har bir o'zgaruvchi turida qiymat bo'yicha quyi va yuqori chegara mayjud. Shunga ko'ra o'zgaruvchi  $x$  ning qiymati biror qadamda chegaradan chiqib ketadi. Masalan, agar x **integer** turdag'i o'zgaruvchi bo'lsa quyi chegara –32768 ga teng. Dastur yordamida tekshirib ko'rish mumkinki, 14 takrorlanishda  $x$  ning qiymati –16388 ga, 15 takrorlanishda esa  $x$  ning qiymati 32764 ga teng bo'ladi, bu esa  $X < 10$  sharti bajarilmasligini bildiradi.

Hisoblash mumkinki, 15 takrorlanishda:  $x:=x+2 = -16388+2 = -16386$ ;  $x:=2*x=2*(-16386) = -32772$ . Endi chegaradan ortib ketgan qism  $x$  o'zgaruvchining yuqori chegarasi tomondan hisoblanadi, ya'ni yuqori chegaradan quyi chegaradan keyingi son bilan hosil bo'lgan son ayirmasi ayiriladi:  $32767 - (-32769 - (-32772)) = 32767 - (-32769 + 32772) = 32767 - 3 = 32764$ .

d)  $i:=0;$  while  $i*i <= 1.2$  do  $i:=i+0.1;$

O'zgaruvchi  $i$  ning qiymati 0, shuning uchun shart bo'yicha takrorlash operatoridagi  $(i*i=0*0=)0 <= 1.2$  shart bajariladi. U holda **do** xizmatchi so'zidan keyin yozilgan  $i:=i+0.1$ ; o'zlashtirish operatori bajariladi.

Birinchi takrorlanishda:  $i:=i+0.1=0+0.1=0.1=1*0.1$ . Shart yana bajarilgani uchun  $(0.1*0.1=0.01 <= 1.2)$  takrorlanish davom etadi.

Ikkinci takrorlanishda:  $i:=i+0.1=0.1+0.1=0.2=2*0.1$ . O'zgaruvchi  $i$  ning qiymati har shart bajarilganda 0.1 ga ortaveradi va 11-takrorlanishqa  $11*0.1=1.1$  ga teng bo'ladi. O'zgaruvchi  $i$  ning bu qiymatida  $i*i=1.1*1.1=1.21$  bo'lgani uchun  $i*i <= 1.2$  shart bajarilmaydi va takrorlanish to'xtaydi.

e)  $k:=5;$  while  $k /5 <= 2.5$  do  $k:=k+1.5;$

O'zgaruvchi  $k$  ning qiymati 5, shuning uchun shart bo'yicha takrorlash operatoridagi  $(k/5=5/5=)1 <= 2.5$  shart bajariladi. U holda **do** xizmatchi so'zidan keyin yozilgan  $k:=k+1.5$ ; o'zlashtirish operatori bajariladi.

Birinchi takrorlanishda:  $k:=k+1.5=5+1.5=6.5=5+1*1.5$ . Shart bajarilgani uchun  $(6.5/5=1.3 <= 2.5)$  takrorlanish davom etadi.

Ikkinci takrorlanishda:  $k:=k+1.5=6.5+1.5=8=5+2*1.5$ . O'zgaruvchi  $k$  ning qiymati har shart bajarilganda 1.5 ga ortaveradi va 6-takrorlanishda  $5+6*1.5=5+9=14$  ga teng bo'ladi. O'zgaruvchi  $k$  ning bu qiymatida  $k/5=14/5=2.8$  bo'lgani uchun  $k/5 <= 2.5$  shart bajarilmaydi va takrorlanish to'xtaydi.

f)  $t:=100;$  repeat  $t:= t/10;$  until  $t<=0.1;$

**Repeat** operatori shart tekshirishdan avval bir marta takrorlanish tanasidagi operatorlarni bajarish imkonini beradi va keyin shartni tekshiradi. Bu birinchi takrorlanishdir.

O'zgaruvchi  $t$  ning qiymati 100, shuning uchun shart bo'yicha takrorlash operatoridagi  $(t:=t/10=100/10=)10 <= 0.1$  shart bajarilmaydi, ya'ni "Yolg'on" qiyomat qabul qiladi. Ma'lumki, **Repeat** operatori

shart qiymati “Yolg‘on” bo‘lganda ishlaydi.

Ikkinci takrorlanishda:  $t:=t/10=10/10=1$ . Shart “Yolg‘on” qiyamat qabul qilgani uchun ( $t=1 \leq 0.1$ ) takrorlanish davom etadi.

Uchinchi takrorlanishda:  $t:=t/10=1/10=0.1$ . O‘zgaruvchi t ning bu qiyamatida shart “Rost” qiymat qabul qiladi: ( $t=0.1 \leq 0.1$ ). Shuning uchun takrorlanish to‘xtaydi.

g)  $x:=0$ ; repeat  $x:=x+1/10$ ; until  $\text{sqr}(x) \geq 6/5$ ;

**Repeat** operatori shart tekshirishdan avval bir marta takrorlanish tanasidagi operatorlarni bajarish imkonini beradi va keyin shartni tekshiradi. Bu birinchi takrorlanishdir.

O‘zgaruvchi x ning qiymati 0 va  $x:=x+1/10=0+0.1=0.1=1*0.1$ , shuning uchun shart bo‘yicha takrorlash operatoridagi ( $0.01=\text{sqr}(x) \geq 6/5 (=1.2)$ ) shart bajarilmaydi, ya’ni “Yolg‘on” qiymat qabul qiladi. Aytib o‘tilganidek, **Repeat** operatori shart qiymati “Yolg‘on” bo‘lganda ishlaydi.

Ikkinci takrorlanishda:  $x:=x+1/10=0.1+0.1=0.2=2*0.1$  va ( $0.04=\text{sqr}(x) \geq 6/5 (=1.2)$ ). Shart “Yolg‘on” qiymat qabul qilgani uchun takrorlanish davom etadi.

Uchinchi takrorlanishda:  $x:=x+1/10=0.2+0.1=0.3=3*0.1$  va ( $0.09=\text{sqr}(x) \geq 6/5 (=1.2)$ ). Shart “Yolg‘on” qiymat qabul qilgani uchun takrorlanish davom etadi. O‘zgaruvchi x ning qiymati har shart “Yolg‘on” qiymat qabul qilganda 0.1 ga ortaveradi va 11-takrorlanishda  $11*0.1=1.1$  ga teng bo‘ladi. O‘zgaruvchi x ning bu qiyamatida shart “Rost” qiymat qabul qiladi: ( $1.21=\text{sqr}(x) \geq 6/5 (=1.2)$ ). Shuning uchun takrorlanish to‘xtaydi.

**M-3.** N natural son berilgan. Kvadrati N dan katta bo‘limgan barcha natural sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etish uchun parametrali takrorlash operatoridan foydalanish mumkin, lekin avval takrorlash parametri uchun oxirgi qiyamatni aniqlab olish kerak bo‘ladi. Masala shartini o‘zi k parametr uchun  $k^2 \leq N$  shart o‘rinli bo‘lganda takrorlanish bajarilishi kerakligini ko‘rsatmoqda. Shart tekshirish asosida takrorlanish tashkil etilayotgani uchun **While-do** shart bo‘yicha takrorlash operatoridan foydalanish qulay.

So‘z orqali:

Blok sxemasi:

**boshlansin**

N kiritilsin

k:=1


**toki**  $k^2 \leq N$

k chiqarilsin

k:=k+1

**oxiri**

**tamomlansin**



Dasturi:

Var

    k, N: word; {chunki, k va N natural son}

Begin

    write('N= '); readln(N);

    k:= 1;

    While sqr(k)<=N do begin WriteLn(k); k:=k+1; end;

    Readln;

End.

**M-4.**  $y = x * \sin x$  funksiyaning qiymatlarini  $[-\pi, \pi]$  oraliqda 0.3 qadam bilan hisoblash dasturini tuzing.


Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etish uchun parametrli takrorlash operatoridan foydalanish murakkab, chunki takrorlanish parametrining boshlang'ich va oxirgi qiymatlari haqiqiy son, parametr o'zgarish qadami ham 1 ga teng emas. Lekin masala **While-do** shart bo'yicha takrorlash operatori yordamida osongina hal etiladi, chunki unda o'zgarish qadami ham chegaralar ham haqiqiy son bo'lishi mumkin.

Masalani hal etish uchun **Repeat-Until** shart bo'yicha takrorlash operatoridan ham foydalanish mumkin. Bu usulda takrorlanish bir marta ortiq bajarilishi mumkinligini va **Repeat** shart "yolg'on" qiymat qabul qilganda takrorlanishni davom ettirishini e'tiborga olish muhim.

Blok sxemasi (While ga):

Dasturi:



Var  
x, y: Real;  
Begin  
x:=-pi;  
While x<= pi do  
begin  
y:=x\*sin(x);  
WriteLn('x= ', x, ' y= ', y);  
x:=x+0,3; end;  
Readln;  
End.

### Dasturi:

Var x, y: Real;  
Begin x:=-pi;  
Repeat  
    y:=x\*sin(x); WriteLn('x= ', x, ' y= ', y); x:=x+0,3;  
Until x>=pi;  
Readln;  
End.

**M-5\***. N natural son va  $A_1, A_2, \dots, A_N$  butun sonlar ketma-ketligi berilgan. Ularni ketma-ket qo'shib borib, yig'indi berilgan N butun sondan ortishi bilan ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. Agar barcha sonlar yig'indisi N dan oshmasa, bu haqida habar chiqarilsin.

### Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etish uchun parametrlı takrorlash operatoridan foydalanish mumkin, buning uchun avval takrorlanish parametri uchun oxirgi qiymatni aniqlab olish kerak bo'ladi. Lekin bu masalada takrorlanish parametri uchun oxirgi qiymatni aniqlab olishning ilojiyi yo'q.

Masala shartiga ko'ra  $A_1, A_2, \dots, A_N$  butun sonlar ketma-ketligi hadlarini ( $A[1..N]$  massiv elementlarini) S butun turdag'i o'zgaruvechiga yig'ib boriladi. Har bir element qo'shilganda  $S \leq N$  shart tekshiriladi. Shart tekshirish asosida takrorlanish tashkil etilayotgani uehun **While-do** shart bo'yicha takrorlash operatoridan foydalanish qulay. Masalani hal etish uchun **Repeat-Until** shart bo'yicha takrorlash operatoridan ham foydalanish mumkin. Bu usulda takrorlanish bir marta ortiq bajariishi mumkinligini va **Repeat** shart "yolg'on" qiymat qabul qilganda

takrorlanishni davom ettirishini e'tiborga olish muhim.

Dasturda shuni nazarda tutish kerakki, massiv elementlari tugagan-da ham **S≤N** shart bajarilmasligi mumkin. Shuning uchun massiv elementlari soni tugashi **k≤N** shartini ham tekshirib turish zarur. Buning uchun **While-do** operatorida **AND**, **Repeat-Until** operatorida **OR** mantiqiy amalidan foydalanish mumkin.

N natural son bo'lgani uchun **Word** turida,  $A_1, A_2, \dots, A_N$  butun sonlar bo'lgani uchun **Integer** turida tavsiflash mumkin. Tavsiflashda massiv elementlari soni aniq ko'rsatilishi kerak, shuning uchun ularni sonini 1000 ta berish mumkin.

#### Dasturi:

Var

    N, k: Word; S: Integer; A: array[1..1000] of Integer;

Begin

        write('N= '); readln(N);

        For k:=1 to N do begin write('A[',k,']= '); readln(A[k]); end;  
        k:=1; S:=A[1];

        While (S<= N) AND (k<=N) do begin k:=k+1; S:=S+A[k]; end;

        IF S>N Then Write('S= ', S)

            Else Write('Yig'indi ', N, ' dan oshmaydi');

        Readln;

End.

#### Dasturi:

Var

    N, k: Word; S: Integer; A: array[1..1000] of Integer;

Begin

        write('N= '); readln(N);

        For k:=1 to N do begin write('A[',k,']= '); readln(A[k]); end;  
        k:=0; S:=0;

        Repeat k:=k+1; S:=S+A[k];

        Until (S>N) OR (k>=N);

        IF S>N Then Write('S= ', S)

            Else Write('Yig'indi ', N, ' dan oshmaydi');

        Readln;

End.

## 36 – dars. Shart bo‘yicha takrorlash operatorlari mavzusini takrorlash mavzusiga

**T-1.**  $S=0.5+1.5+2.5+\dots+98.5+99.5$  yig‘indini hisoblash dasturini tuzing.

<u>Yechim:</u> <p>Yig‘indida barcha sonlar hajiqiy. Shuning uchun masalani hal etishda <b>While-do</b> yoki <b>Repeat-Until</b> shart bo‘yicha takrorlash operatorlaridan foydalanish qulay. Lekin parametrlı takrorlash operatoridan foydalanishning ham imkonii bor.</p> <p><u>Dasturi (Repeat):</u></p> <pre>Var S, k: Real; Begin k:= 0.5; S:=0; Repeat S:=S+k; k:=k+1; Until k&gt;99.5; Writeln('S= ',S:0:5); Readln; End.</pre>	<u>Dasturi (While):</u> <pre>Var S, k: Real; Begin k:= 0.5; S:=0; While k&lt;= 99.5 do begin S:=S+k; k:=k+1; end; Writeln('S= ',S:0:5); Readln; End.</pre> <p><u>Dasturi (For):</u></p> <pre>Var S: Real; k:byte; Begin S:= 0; For k:=0 to 99 do S:=S+k+0.5; Writeln('S= ',S:0:5); Readln; End.</pre>
--	--

**T-2.**  $S=1\cdot2+3\cdot4+5\cdot6+\dots+101\cdot102$  yig‘indini hisoblash dasturini tuzing.

<u>Yechim:</u> <p>Yig‘indidagi har bir qo‘shiluvchi toq son va juft son ko‘paytmasidan iborat bo‘lib, o‘zgarish qadami 2 ga teng. Shuning uchun masalani hal etishda <b>While-do</b> yoki <b>Repeat-Until</b> shart bo‘yicha takrorlash operatorlaridan foydalanish qulay. Lekin parametrlı takrorlash operatoridan foydalanishning ham imkonii bor.</p> <p>Ko‘paytmalar yig‘indi yoki juda ko‘p ko‘paytuvchilar qatnashgan ko‘paytmalarda yig‘indi yoki ko‘paytma uchun belgilangan o‘zgaruvchi turini tanlashda chtiyot bo‘lish kerak. Chunki, natija qiyamati o‘zgaruvchi turiga mos aniqlangan chegaradan chiqib ketsa xato natijaga ega bo‘lamiz. Masalan, ushbu masalada yig‘indi S ni <b>Word</b> turidagi butun son deb olinsa, qiyamatlar chegarasi <b>0..65535</b> bo‘lgani uchun xato natijaga olib keladi.</p>
---

Xatolikni ko'rish uchun takrorlanish tanasiga Write('k= ', k, 'S= ', S, '! ') operatorini kiritib, natijalarни tahlil etish oson. Natijalarning ekranda aks etishi quyida keltirilgan. Xato natijaga olib kelgan tavsiflashga mos qiyatlarni tahlil etib, k=73 bo'lganda S=63492, k=75 bo'lganda S=3358 ekanligini ko'rish mumkin. Bunday bo'lishi quyidagicha izohlanadi:

Dastur ishlaganda S o'zgaruvchining qiymati ortib boradi. Yig'indiga k=75 bo'lgan had qo'shilganda 68894 soni hosil bo'lib, S o'zgaruvchining yuqori chegarasi 65535 dan ortib ketadi. Shuning natijasida chegaradan ortib ketgan qism S o'zgaruvchining quyi chegarasi tomonidan hisoblanadi, ya'ni quyi chegara 0 dan yuqori chegaradan keyingi son bilan hosil bo'lgan son ayirmasi ayrıldi: 0-(65536-68894)=0-(3358)=3358.

### Xato dastur (While):

```
Var S: Word; k:byte;
Begin clrscr;
  k:= 1; S:=0;
  While k<= 101 do begin
    Write('k= ', k, 'S= ', S, '! ');
    S:=S+k*(k+1); k:=k+2; end;
  Readln;
End.
```

### To'g'ri dastur (While):

```
Var S: LongInt; k:byte;
Begin clrscr;
  k:= 1; S:=0;
  While k<= 101 do begin
    Write('k= ', k, 'S= ', S, '! ');
    S:=S+k*(k+1); k:=k+2; end;
  Readln;
End.
```

### To'g'ri dastur (Repeat):

```
Var S: LongInt; k:byte;
Begin clrscr;
  k:= 1; S:=0;
  Repeat S:=S+k*(k+1); k:=k+2;
  Until k>=101;
  Writeln('S= ', S);
  Readln;
End.
```

### To'g'ri natijaning ekrandagi ko'rinishi:

103

## Xato natijaning ekrandagi ko'rinishi:

Turbo Pascal


```
k= 1 S= 0 !
k= 3 S= 2 !
k= 5 S= 14 !
k= 7 S= 44 !
k= 9 S= 100 !
k= 11 S= 19
!
k= 13 S= 322 !
k= 15 S= 504 !
k= 17 S= 744 !
k= 19 S= 1050 !
k= 21 S= 1
30 !
k= 23 S= 1892 !
k= 25 S= 2444 !
k= 27 S= 3094 !
k= 29 S= 3858 !
k= 31
S= 4728 !
k= 33 S= 5712 !
k= 35 S= 6834 !
k= 37 S= 8094 !
k= 39 S= 9500 !
k= 41 S= 11060 !
k= 43 S= 12782 !
k= 45 S= 14624 !
k= 47 S= 16744 !
k= 49 S=
19000 !
k= 51 S= 21450 !
k= 53 S= 24102 !
k= 55 S= 26964 !
k= 57 S= 30844 !
k= 59 S= 33350 !
k= 61 S= 36890 !
k= 63 S= 40672 !
k= 65 S= 44704 !
k= 67
S= 48994 !
k= 69 S= 53550 !
k= 71 S= 58380 !
k= 73 S= 63492 !
k= 75 S= 3358
!
k= 77 S= 9058 !
k= 79 S= 15064 !
k= 81 S= 21384 !
k= 83 S= 28026 !
k= 85
S= 34990 !
k= 87 S= 42308 !
k= 89 S= 49964 !
k= 91 S= 52974 !
k= 93 S= 810 !
k= 95 S= 9552 !
k= 97 S= 18672 !
k= 99 S= 28178 !
k= 101 S= 38078 !
```

**T-3.** N natural sonining barcha bo'luvchilarini chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etish uchun parametrlı takrorlash operatori, shart bo'yicha takrorlash operatorlariidan foydalanish mumkin. Masa-la shartiga ko'ra N sonini 1, 2, 3, ..., N sonlariga bo'lganda qol-gan qoldiqni 0 bilan taqqoslash zarur bo'ladi.

Blok sxemasi (While):



Dasturi:

```

Var
  k, N: word;
Begin
  write('N= ');
  readln(N);
  k:= 1;
  While k<=N do
    begin
      IF N mod k=0 then Write(k,' ');
      k:= k+1;
    end;
  Readln;
End.
```

Dasturi:

```

Var
  k, N: word;
Begin
  write('N= ');
  readln(N);
  k:= 1;
  Repeat
    IF N mod k=0 then Write(k,' ');
    k:= k+1;
  Until k>N;
  Readln;
End.
```

**T-4.** Berilgan N natural sonni nechta raqamdan iborat ekanligini aniqlovchi dastur tuzing (yo'llanma: necha marta  $N=N$  div 10 bajarilsa  $N=0$  bo'ladi?).

#### Yechim:

Yo'llanmani aniq songa tatbiqi:  
 $N=349; S=0;$


- 1)  $N=N$  div 10=349 div 10=34;  $S=1;$
- 2)  $N=N$  div 10= 34 div 10= 3;  $S=2;$
- 3)  $N=N$  div 10= 3 div 10=0;  $S=3.$

Demak, kiritilgan sonni raqamlari soni shu son 0 ga aylanguncha 10 ga necha marta bo'linishiga bog'liq ekan. Massala shartida N natural son deyilganligi While operatorini qo'llashni yengilashtiradi. Agar N butun son deyilganda While qatnashgan dasturga tarmoqlanish operatorini yozish kerak bo'lar edi, chunki  $N=0$  da While bir marta ham ishlamas edi va  $S=1$  o'rniغا  $S=0$  javob olinar edi.

#### Dasturi:

```
Var S: byte; N: word;
Begin
    write('N= '); readln(N);
    S:= 0;
    While N>0 do
        begin N:=N div 10; S:=S+1; end;
        Write('S= ', S);
        Readln;
End.
```

#### Blok sxemasi (While):



#### Dasturi:

```
Var S: byte; N: word;
Begin
    write('N= '); readln(N);
    S:= 0;
    Repeat
        N:=N div 10; S:=S+1;
    Until N=0;
    Write('S= ', S); Readln;
End.
```

**T-5.** N natural son berilgan. I dan N gacha bo'lgan natural sonlari ichida oxirgi raqami 3 ga karrali sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Biror K sonini oxirgi raqamini ajratib olish uchun quyidagi formuladan foydalanish mumkin:  
**raqam=K mod 10.** Masalan, ra-

#### Dasturi:

```
Var
    bor: boolean;
    K, N: word; raqam:byte;
Begin
```

qam=27046 mod 10=6. Raqamni 3 ga bo'linish sharti **raqam mod 3=0** qisqa ko'rinishdagi tarmoqlanish operatorida tekshiriladi. Endi 1 dan N gacha bo'lgan sonlarni bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo'llash mumkin. Agar kiritilgan songacha bo'lgan sonlar ishida birorta ham oxirgi raqami 3 karrali son bo'lmasa, **bor** mantiqiy o'zgaruvchi orqali javob berish mumkin.

#### Dasturi:

```

Var
    bor: boolean;
    K, N: word; raqam:byte;
Begin
    write('N= '); readln(N);
    Write('Oxirgi raqami 3 ga kar-
ralli sonlar: ');
    K:= 1; bor:=true;
    REPEAT raqam:=K mod 10;
        IF raqam mod 3 =0 then
            begin Write(' ', K);
            bor:=false; end;
        K:=K+1;
    UNTIL K>N;
    IF bor then Write('yo'q.');
    Readln;
End.

```

```

write('N= '); readln(N);
Write('Oxirgi raqami 3 ga kar-
ralli sonlar: ');
K:= 1; bor:=true;
While K<=N do BEGIN
    raqam:=K mod 10;
    IF raqam mod 3 =0 then
        begin Write(' ', K);
        bor:=false; end;
    K:=K+1;
END;
IF bor then Write('yo'q.');
Readln;
End.

```

#### Dasturi:

```

Var
    bor: boolean;
    K, N: word; raqam:byte;
Begin
    write('N= '); readln(N);
    Write('Oxirgi raqami 3 ga kar-
ralli sonlar: ');
    bor:=true;
    For K:=1 to N do BEGIN
        raqam:=K mod 10;
        IF raqam mod 3 =0 then
            begin Write(' ', K);
            bor:=false; end;
    END;
    IF bor then Write('yo'q.');
    Readln;
End.

```

**T-6.** Ikki xonali natural sonlar ichidan raqamlari yig'indisi juft bo'lgan sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing (yo'llanma: K sonning birlik raqami  $K1=K \text{ mod } 10$ , o'nlik raqami  $K10=K \text{ div } 10$ ).

#### Yechim:

Yo'llanmaga ko'ra ikki xonali K

#### Dasturi:

Var

<p>natural sonning birlik raqami <b>K1=K mod 10</b>, o‘nlik raqami <b>K10=K div 10</b>.</p> <p><b>10.</b> Bu sonni raqamlari yig‘indisi juftligi (<b>K1+K10 mod 2=0</b>) sharti orqali qisqa ko‘rinishdagi tarmoqlanish operatorida tekshiriladi. Masalan, <math>K=63</math> bo‘lsa, <math>K1=K \text{ mod } 10=63 \text{ mod } 10 = 3</math>, <math>K10=K \text{ div } 10=63 \text{ div } 10=6</math>, <math>(K1+K10) \text{ mod } 2=(6+3) \text{ mod } 2=9 \text{ mod } 2=1</math>, ya’ni toq emas. Ikki xonali sonlar 10 dan boshlanadi va 99 da tugaydi. Dasturda 10 dan 99 gacha bo‘lgan sonlarni bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo‘llash mumkin.</p>	<pre> K, K1, K10:byte; Begin   WriteLn('Bu sonlarni raqamlari yig‘indisi juft:');   K:= 10;   While K&lt;=99 do BEGIN     K1:=K mod 10;     K10:=K div 10;     IF (K1+K10) mod 2 =0 then       Write(K, ' ');     K:=K+1;   END;   Readln; End. </pre>
<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Var</p> <p>K, K1, K10:byte;</p> <p>Begin</p> <p>  WriteLn('Bu sonlarni raqamlari yig‘indisi juft:'); K:= 10;</p> <p>  REPEAT</p> <p>    K1:=K mod 10; K10:=K div 10;</p> <p>    IF (K1+K10) mod 2 =0 then</p> <p>      Write(K, ' ');</p> <p>    K:=K+1;</p> <p>  UNTIL K&gt;99;</p> <p>  Readln;</p> <p>End.</p>	<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Var</p> <p>K, K1, K10:byte;</p> <p>Begin</p> <p>  WriteLn('Bu sonlarni raqamlari yig‘indisi juft:');</p> <p>  For K:=10 to 99 do BEGIN</p> <p>    K1:=K mod 10;</p> <p>    K10:=K div 10;</p> <p>    IF (K1+K10) mod 2 =0 then</p> <p>      Write(K, ' ');</p> <p>  END;</p> <p>  Readln;</p> <p>End.</p>

**T-7.**  $A_1, A_2, \dots, A_N$  butun sonlar ketma-ketligi berilgan. Shu ketma-ketlikning toq elementlari ko‘paytmasidan juft elementlari yig‘indisini ayiruvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Bu masalada N natural son va  $A_1, A_2, \dots, A_N$  butun sonlar ketma-ketligi hadlari ( $A[1..N]$  massiv elementlari) kiritiladi. Massiv elementlarini bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo‘llash mumkin.

Masala shartiga ko'ra massivning toq qiymatli elementlarini **P** butun turdag'i o'zgaruvchiga ko'paytirib boriladi, juft qiymatli elementlari **S** butun turdag'i o'zgaruvchiga yig'ib boriladi va natija sifatida ekranga **P-S** chiqariladi. Massiv elementlari qiymati toq yoki juft ekanini **A[K] mod 2 =0** shart yordamida tekshirish uchun to'liq ko'rinishdagi tarmoqlanish operatori qo'llaniladi.

N o'zgaruvchini qiymatlari natural son bo'lGANI uchun **Word** turida,  $A_1, A_2, \dots, A_N$  ketma-ketlikni qiymatlari butun sonlar bo'lGANI uchun **Integer** turida tavsiflash mumkin. Tavsiflashda massiv elementlari soni aniq ko'rsatilishi kerakligi uchun ularni sonini 1000 ta berish mumkin.

<u>Dasturi:</u>	<u>Dasturi:</u>
<pre> Var N, k: Word; S, P: LongInt; A: array[1..1000] of Integer; Begin   write('N= '); readln(N);   For k:=1 to N do begin     write('A[',k,']= ');     readln(A[k]);   end;   k:=1; S:=0; P:=1;   While k&lt;=N do begin     IF A[k] mod 2=0 Then       S:=S+A[k] Else P:=P*A[k];     k:=k+1;   end;   WriteLn('Javob: ', P-S);   Readln; End. </pre>	<pre> Var N, k: Word; S, P: LongInt; A: array[1..1000] of Integer; Begin   write('N= '); readln(N);   For k:=1 to N do begin     write('A[',k,']= ');     readln(A[k]);   end;   k:=1; S:=0; P:=1;   Repeat IF A[k] mod 2=0 Then     S:=S+A[k] Else P:=P*A[k];   k:=k+1;   Until k&gt;N;   WriteLn('Javob: ', P-S);   Readln; End. </pre>

**T-8\***. N natural son va  $A[1..N]$  massiv berilgan. K-elementi A massivning birinchi K ta elementining o'rta arifmetigiga teng bo'lgan  $B[1..N]$  massivni hosil qiluvchi dastur tuzing (yo'llanma:  $B[K] = (A[1] + A[2] + \dots + A[K]) / K$ ).

Yechim:

Bu masalada N natural son va  $A_1, A_2, \dots, A_N$  haqiqiy sonlar ketma-ketligi hadlari ( $A[1..N]$  massiv elementlari) kiritiladi. Massiv elementlarini bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo'llash mumkin.

Masala yechimi bo'lgan  $B[1..N]$  massivni hosil qilish uchun quyidagi usuldan foydalanish qulay:  $S=A[1]$ ;  $B[1]=S/1$ ;  $S=A[1]+A[2]$ ;  $B[2]=S/2$ ; ...;  $S= A[1] + A[2] + \dots + A[K]$ ;  $B[K]=S/K$ .

N o'zgaruvchini qiymatlari natural son bo'lgani uchun **Word** mida.  $A[1..N]$  va  $B[1..N]$  massivlarni qiymatlari haqiqiy sonlar (chunki boshqa xususiyat aytilmagan) bo'lgani uchun **Real** turida tavsiflash mumkin. Tavsiflashda massiv elementlari soni aniq ko'rsatilishi kerak, shuning uchun ularni sonini 1000 ta berish mumkin.

<u>Dasturi:</u>	<u>Dasturi:</u>
<pre> Var N, k: Word; S: Real; A, B: array[1..1000] of Real; Begin   write('N= '); readln(N);   For k:=1 to N do begin     write('A[',k,']= '); readln(A[k]);     end;   k:=1; S:=0;   While k&lt;=N do begin     S:=S+A[k]; B[k]:=S/k;     WriteLn('B[',k,']= ', B[k]:0:5);     k:=k+1; end;   Readln; End. </pre>	<pre> Var N, k: Word; S: Real; A, B: array[1..1000] of Real; Begin   write('N= '); readln(N);   For k:=1 to N do begin     write('A[',k,']= '); readln(A[k]);     end;   k:=1; S:=0;   Repeat S:=S+A[k]; B[k]:=S/k;   WriteLn('B[',k,']= ', B[k]:0:5);   k:=k+1;   Until k&gt;N;   Readln; End. </pre>

**T-9\***. 1 dan katta A son berilgan.  $7^K > A$  shart bajariladigan eng kichik manfiymas butun K sonni topish dasturini tuzing.

#### Yechim:

Bu masalada A musbat haqiqiy son kiritiladi. Kerakli eng kichik natural K ( $A>1$  bo'lgani uchun  $K>0$  bo'ladi) sonini aniqlash maqsadida 1 dan boshlab (Dar7=)  $7^K > A$  shart bajarilguncha sanash uchun faqat shart bo'yicha takrorlash operatorlarini qo'llash mumkin. K va Dar7 o'zgaruvchini qiymatlari manfiymas butun son bo'lgani uchun **Word** turida. A o'zgaruvchini qiymatlari musbat haqiqiy son bo'lgani uchun **Real** turida tavsiflash mumkin.

<u>Dasturi:</u>	<u>Dasturi:</u>
<pre> Var K, Dar7: Word; A: Real; Begin write('A= '); readln(A); </pre>	<pre> Var K, Dar7: Word; A: Real; Begin write('A= '); readln(A); </pre>

<pre> K:=1; Dar7:=7; While Dar7&lt;=A do begin     K:=K+1; Dar7:= 7*Dar7;     end;     WriteLn('K= ', K); Readln; End. </pre>	<pre> K:=0; Dar7:=1; Repeat     Dar7:= 7*Dar7; K:=K+1; Until Dar7&gt;A; WriteLn('K= ', K); Readln; End. </pre>
<p>Bu masala yechimini chiziqli strukturali ko'rnishda quyidagicha tasvirlash mumkin:</p> <p>Var A: Real; K: Word;</p> <pre> Begin write('A= '); readln(A);     K:=trunc(Ln(A)/Ln(7))+1; WriteLn('K= ', K); Readln; End. </pre>	

## 37 – dars. Takrorlashga oid topshiriqlar mavzusiga

**T-1.** Quyidagi yig'indining qiymati berilgan  $M$  natural sondan ortiq bo'lguncha hisoblaydigan dastur tuzing:

$$y = \frac{1}{3} - \frac{1}{10} + \frac{1}{21} - \dots + \frac{(-1)^{j+1}}{j \cdot (2 \cdot j + 1)} - \dots$$

Yechim:

Masala shartiga ko'ra qo'shiluvchilarni (har bir nisbatni ishorali va ishorasiz qo'shiluvchi deyish mumkin)  $y$  haqiqiy turdag'i o'zgaruvchiga yig'ib boriladi. Ishorani ko'rsatish uchun **ishora** nomli o'zgaruvchi kiritilsa, yig'indidagi hadlar quyidagicha ifodalanadi:


$\text{ishora}:=-1$ ;  $\text{ishora}=(-1)*\text{ishora}$ ,  $1/3=\text{ishora}/3$ ;  $\text{ishora}=(-1)*\text{ishora}$ ,  
 $-1/10=\text{ishora}/10$ ; ...;  $\text{ishora}=(-1)*\text{ishora}$ ,  
 $(-1)^{k+1}/(k*(2*k+1))=\text{ishora}/(k*(2*k+1))$ .

Har bir qo'shiluvchi qo'shilganda  $y \leq M$  shart tekshiriladi. Shart tekshirish asosida takrorlanish tashkil etilayotgani uchun **While–do** shart bo'yicha takrorlash operatoridan foydalanish qulay. Kiritilayotgan  $M$  soni natural son bo'lgani uchun **Word** turida tavsiflash mumkin.

Kasrni mahrajidagi ko'paytma butun sonlar chegarasidan chiqib ketishini qisman oldini olish uchun quyidagicha o'zgartirish maqsadga muvofiq:

$$\frac{(-1)^{k+1}}{k \cdot (2 \cdot k + 1)} = \frac{(-1)^{k+1}}{k+1} \cdot \left( \frac{1}{k} - \frac{1}{2 \cdot k + 1} \right)$$

Blok-sxemasi:



Dasturi:

Var

M, k: Word; y, a, b, d: Real;

ishora: ShortInt;

Begin

write('M= '); readln(M);

ishora:=-1;

y:=0; k:=1;

While y<= M do BEGIN

ishora:=(-1)\*ishora;

a:=1/(k+1); b:=1/k;

d:=1/(2\*k+1);

y:=y+ishora\*a\*(b-d);

k:=k+1;

END;

Write('y= ', y);

Readln;

End.

**T-2.** 1-mashqni parametrlı takrorlash operatori, shart bo'yicha takrorlash operatorlari yordamida turlichalash eting.

Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etishda parametrlı takrorlash operatoridan foydalanish uchun avval takrorlanish parametri uchun oxirgi qiymatni aniq tanlab olish kerak bo'ladi. Lekin bu masalada takrorlanish parametri uchun oxirgi qiymatni M soniga bog'lab aniq tanlab olishning iloji yo'q. Shuning uchun parametr j ni oxirgi qiymatini Paskal dasturlash tilidagi eng katta butun son 2147483647 deb olishdan boshqa iloj yo'q. Bu holda j parametri LongInt turidagi o'zgaruvchi bo'ladi. Agar ifodalar ichida eng katta qiymat hosil qiluvchi  $2 \cdot j + 1$  ifodani hisobga olinsa, u holda j parametri chegarasi  $(2147483647 - 1) : 2 = 1073741823$  bo'lishi mumkin.

**Repeat – Until** shart bo'yicha takrorlash operatoridan foydalanish uchun avvalgi mashqdagi dasturni salgina o'zgartirish kifoya.

Avvalgi mashqdagi kabi har bir qo'shiluvchi qo'shilganda  $y \leq M$

shart tekshiriladi. Kiritilayotgan M soni natural son bo'lgani uchun Word turida tavsiflanadi.

<u>Dasturi:</u> Label l; Var ishora: ShortInt; J: LongInt; M: Word; y, a, b, d: Real; Begin write('M= '); readln(M); ishora:=-1; y:=0; For J:=1 to 1073741823 do BEGIN ishora:=(-1)*ishora; a:=1/(J+1); b:=1/J; d:=1/(2*k+1); y:=y+ishora*a*(b-d); If y>M then goto l; END; l: Write('y= ', y); Readln; End.	<u>Dasturi:</u> Var ishora: ShortInt; M, k: Word; y, a, b, d: Real; Begin write('M= '); readln(M); ishora:=-1; y:=0; k:=1; Repeat ishora:=(-1)*ishora; a:=1/(k+1); b:=1/k; d:=1/(2*k+1); y:=y+ishora*a*(b-d); k:=k+1; Until y>M; Write('y= ', y); Readln; End.
---	---

T-3. N natural son berilgan.  $(1/2)$ ,  $(3/4)$ ,  $(5/6)$ ,  $(7/8)$ , ... ketma-ketlikning N ta hadi yig'indisini topuvchi dastur tuzing.

<u>Yechim:</u> Bu masalada takrorlanishni tashkil etishda barcha takrorlash operatorlari dan foydalanish mumkin. Masalada e'tiborni ketma-ketlik hadi bilan ketma-ketlik hadi tartib raqami orasidagi bog'lanishga qaratish kerak: 1-had: $(2 \cdot 1 - 1) / (2 \cdot 1) = 1/2$ ; 2-had: $(2 \cdot 2 - 1) / (2 \cdot 2) = 3/4$ ; ...; k-had: $(2 \cdot k - 1) / (2 \cdot k)$ .	<u>Dasturi:</u> Var N, k: Word; S: Real; Begin write('N= '); readln(N); S:=0; k:=1; While k<=N do begin S:=S+(2*k-1)/(2*k);	<u>Dasturi:</u> Var N, k: Word; S: Real; Begin write('N= '); readln(N); S:=0; k:=1; Repeat S:=S+(2*k-1)/(2*k);
--	---	--

<pre> k:=k+1;      end; Write('S= ', S); Readln; End. </pre>	<pre> k:=k+1; Until k&gt;N; Write('S= ', S); Readln; End. </pre>
--	--

**T-4.** A musbat son berilgan. Agar k-kvadratning tomoni  $\frac{A}{k}$  bo'lsa ( $k=1,2,\dots$ ), k ning qanday qiymatida barcha kvadratlarning yuzalari yig'indisi birinchi marta  $A^2$  dan katta bo'lishini aniqlovchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Bu masalada takrorlanishni tashkil etish uchun shart bo'yicha takrorlash operatorlaridan foydalanish qulay. Masala shartiga ko'ra 1-kvadratning tomoni  $A/1=A$ , 2-kvadratning tomoni  $A/2$ , 3-kvadratning tomoni  $A/3$ , va hokazo. K ta kvadratning yuzalari yig'indisi  $S$  bo'lsa, u holda  $S=A^2+(A/2)^2+(A/3)^2+\dots+(A/k)^2$  bo'ladi. Takrorlanish sharti **While-do** uchun  $S < A^2$ , **Repeat-Until** uchun  $S >= A^2$ .

<u>Dasturi:</u>	<u>Dasturi:</u>
<pre> Var K: Word; A, S: Real; Begin write('A= '); readln(A); K:=0; S:=0; While S&lt;sqr(A) do BEGIN K:=K+1; S:=S+sqr(A/K); END; Write('K= ', K); Readln; End. </pre>	<pre> Var K: Word; A, S: Real; Begin write('A= '); readln(A); K:=0; S:=0; Repeat K:=K+1; S:=S+sqr(A/K); Until S&gt;=sqr(A); Write('K= ', K); Readln; End. </pre>

**T-5.** P ga karrali va unga teng bo'Imagan biror uch xonali sonni aniqlovchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Uch xonali sonlar 100 dan boshlanadi va 999 da tugaydi. Dasturda K butun o'zgaruvchi yordamida 100 dan 999 gacha bo'lgan sonlarni bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo'llash mum-

#### Dasturi:

<pre> Label 1; Var K, P: Word; Begin write('P= '); readln(P); K:= 100; </pre>
---

<p>kin. K soni berilgan P soniga karrali bo'lishi uchun <b>K mod P=0</b> bo'lishi shart. K sonining P soniga teng bo'lmaslik sharti <b>K&lt;&gt;P</b>. Masala shartida biror uch xonali son haqida so'z yuritilgan, shuning uchun talab qilingan birinchi son topilgach das-turdan chiqiladi.</p>	<pre>While K&lt;=999 do BEGIN     IF (K&lt;&gt;P) and (K mod P=0)     then goto 1;     K:=K+1;           END; 1: Write('K= ', K); Readln; End.</pre>
<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Label 1;</p> <p>Var</p> <p>K, P: Word;</p> <p>Begin write('P= '); readln(P);</p> <p>K:=100;</p> <p>REPEAT</p> <p>IF (K&lt;&gt;P) and (K mod P=0) then</p> <p>    goto 1;</p> <p>    K:=K+1;</p> <p>UNTIL K&gt;999;</p> <p>1: Write('K= ', K); Readln;</p> <p>End.</p>	<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Label 1;</p> <p>Var</p> <p>K, P: Word;</p> <p>Begin</p> <p>    write('P= '); readln(P);</p> <p>For K:=100 to 999 do</p> <p>    IF (K&lt;&gt;P) and (K mod P=0)</p> <p>    then goto 1;</p> <p>    1: Write('K= ', K);</p> <p>    Readln;</p> <p>End.</p>

**T-6.** N natural son va A[1..N] massiv berilgan. Massivning eng katta va eng kichik elementini topuychi dastur tuzing.

<p><u>Yechim:</u></p> <p>Masaladagi N natural son va <math>A_1, A_2, \dots, A_N</math> haqiqiy sonlar ketma-ketligi hadlari (<math>A[1..N]</math> massiv elementlari) kiritiladi. Massivning birinchi elementini MAX va MIN deb olib massivning qolgan elementlarini bittalab qarab chiqish uchun ixtiyoriy takrorlash operatorini qo'llash mumkin.</p> <p>N o'zgaruvchini qiymati natural son bo'lgani uchun <b>Word</b> turida, <math>A[1..N]</math> massivni qiymatlari</p>	<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Var</p> <p>N, k: Word;</p> <p>MAX, MIN: Real;</p> <p>A: array[1..1000] of Real;</p> <p>Begin</p> <p>    write('N= '); readln(N);</p> <p>For k:=1 to N do begin</p> <p>        write('A[', k, '] = ');</p> <p>        readln(A[k]); end;</p> <p>MAX:=A[1]; MIN:=A[1];</p> <p>k:=2;</p> <p>While k&lt;=N do BEGIN</p> <p>    If MAX&lt;A[k] Then</p>
--	--


<p>haqiqiy sonlar (chunki boshqa xususiyat aytilmagan) bo'lgani uchun <b>Real</b> turida tavsiflash mumkin. Tavsiflashda massiv elementlari soni aniq ko'rsatilishi kerak, shuning uchun ularni sonini 1000 ta berish mumkin.</p>	<pre> MAX:=A[k]; If MIN&gt;A[k] Then     MIN:=A[k];     k:=k+1; END; WriteLn('MAX=',MAX:0:5); WriteLn('MIN=',MIN:0:5); Readln; End. </pre>
<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Var  N, k: Word;  MAX, MIN: Real;  A: array[1..1000] of Real;  Begin  write('N= '); readln(N);  For k:=1 to N do begin      write('A[',k,']= ');      readln(A[k]); end;  MAX:=A[1]; MIN:=A[1]; k:=2;  Repeat      If MAX&lt;A[k] Then          MAX:=A[k];      If MIN&gt;A[k] Then          MIN:=A[k];      k:=k+1;  Until k&gt;N;  WriteLn('MAX=',MAX:0:5);  WriteLn('MIN=', MIN:0:5);  Readln;  End.</p>	<p><u>Dasturi:</u></p> <p>Var  N, k: Word;  MAX, MIN: Real;  A: array[1..1000] of Real;  Begin  write('N= '); readln(N);  For k:=1 to N do begin      write('A[',k,']= ');      readln(A[k]); end;  MAX:=A[1]; MIN:=A[1];  For k:=2 To N do  BEGIN      If MAX&lt;A[k] Then          MAX:=A[k];      If MIN&gt;A[k] Then          MIN:=A[k];  END;  WriteLn('MAX=',MAX:0:5);  WriteLn('MIN=', MIN:0:5);  Readln;</p>

T-7. Berilgan M natural sonni raqamlari yig'indisini topuvchi dastur tuzing.

<p><u>Yechim:</u></p> <p>Avvalroq ko'rilgan masalalardagi yo'llanmalarni aniq songa tatbiqi:  N=349; S=0;  1) <math>S=S+(N \bmod 10)=0+(349 \bmod 10)</math></p>	<p><u>Blok sxemasi (While):</u></p>
--	-------------------------------------

=0+9=9; N=N div 10=349 div 10=34;  
 2) S=S+(N mod 10)=9+(34 mod 10)  
 =9+4=13; N=N div 10=34 div 10=3;  
 3) S=S+(N mod 10)=13+(3 mod 10)  
 =13+3=16; N=N div 10=3 div 10=0.

Demak, kiritilgan sonni 10 ga bo'lgandagi qoldiqlarni S butun o'zgaruvchiga yig'iladi, sonni esa 0 ga aylanguncha 10 ga bo'lib boriladi. Dasturda N>0 bo'lguncha amallar bajarilayotgani sababli takrorlanishni tashkil etishda shart bo'yicha takrorlash operatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.



### Dasturi:

```

Var
  S: byte;
  N: word;
Begin
  write('N= '); readln(N);
  S:= 0;
  While N>0 do
    begin
      S:=S+(N mod 10);
      N:=N div 10;
    end;
    Write('S= ', S);
    Readln;
End.
  
```

### Dasturi:

```

Var
  S: byte;
  N: word;
Begin
  write('N= '); readln(N);
  S:= 0;
  Repeat
    S:=S+(N mod 10);
    N:=N div 10;
  Until N=0;
  Write('S= ', S);
  Readln;
End.
  
```

T-8\*. B, M, A natural son berilgan. Ketma-ketlik  $Y_1 = B$ ;  $Y_i = \sqrt{M + A \cdot Y_{i-1}}$ ,  $i=2,3,\dots$  qonuniyat asosida hosil qilinadi. Ketma ketlikning  $B \cdot M \cdot A$  sonidan kichik barcha hadlarini chop etuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Blok sxemasi (While):

Masala shartiga e'tibor berilsa das-turda massiv hosil qilish kerakdek ko'rindi. Lekin, talab qilingan shart massivning nechanchi hadigacha bajarilib borishi noma'lum, ya'ni massiv elementlari soni avvaldan ma'lum emas. Berilgan formulalarda ikkinchi haddan boshlab har bir had faqat o'zidan oldingi hadga bog'liq ekanligi aks etgan. Shuning uchun ketma-ketlikni hadlarini birgina o'zgaruvchi orqali ifodalash mumkin:


1-had:  $y := B$ ; keyingi hadlar:

$$y := \sqrt{M} + A \cdot y;$$

Dasturda  $y < B \cdot M \cdot A$  bo'lguncha amallar bajarilayotgani sababli takrorlanishni tashkil etishda shart bo'yicha takrorlash operatorlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

#### Dasturi:

```
Var B, M, A: word; y: real;
Begin
    write('B= '); readln(B);
    write('M= '); readln(M);
    write('A= '); readln(A);
    writeln('Javob:');
    y:= B;
    While y < B*M*A do begin
        Write(y, ' ');
        y:=sqrt(M)+A*y;
    end;
    Readln;
End.
```



#### Dasturi:

```
Var B, M, A: word; y: real;
Begin
    write('B= '); readln(B);
    write('M= '); readln(M);
    write('A= '); readln(A);
    writeln('Javob:');
    y:= B;
    Repeat Write(y, ' ');
        y:=sqrt(M)+A*y;
    Until y >= B*M*A;
    Readln;
End.
```

**T-9\***. Mijoz bankka B so'm pul qo'ydi. Bankdagi pulga yiliga M foiz ustama qo'shiladi. Necha yildan keyin mijozning puli A so'mdan oshishini aniqlovchi dastur tuzing.

#### Yechim:


Masalani tahlili quyidagi natija-larni beradi:

#### Blok sxemasi (While):

1 yildan so'ng bankdagi pul:  
 $B[1]=B+B \cdot M/100;$   
 2 yildan so'ng bankdagi pul:  
 $B[2]=B[1]+B[1] \cdot M/100;$   
 3 yildan so'ng bankdagi pul:  
 $B[3]=B[2]+B[2] \cdot M/100;$

\*\*\*

Demak, bu masala ham avvalgi masala kabi yechilar ekan. Dasturda masala yechimi **yil** nomli byte turidagi o'zgaruvchi orqali ifodalangan.



#### Dasturi:

```

Var
    B, M, A: word; yil: byte;
Begin
    write('B= '); readln(B);
    write('M= '); readln(M);
    write('A= '); readln(A);
    yil:=0;
    While B<=A do begin
        yil:=yil+1; B:=B+B*M/100;
        end;
    Write('Yil= ', yil); Readln;
End.
    
```

#### Dasturi:

```

Var
    B, M, A: word; yil: byte;
Begin
    write('B= '); readln(B);
    write('M= '); readln(M);
    write('A= '); readln(A);
    yil:=0;
    Repeat yil:=yil+1;
        B:=B+B*M/100;
    Until B>A;
    Readln;
End.
    
```

**T-10\***. Kichik korxona 1-kun B dona tovar ishlab chiqardi. Keyingi har bir kun oldingi kundagiga nisbatan M dona ortiq tovar ishlab chiqardi. Ishlab chiqarilgan barcha tovarning soni rejalangan A donadan birinchi marta necha kundan keyin ortganini aniqlovchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Barcha tovar butun turdag'i S o'zgaruvchi orqali ifodalansa, u holda avval S=0 bo'ladi. Masalada ikkinchi kundan boshlab har kungi ishlab chiqarilayotgan tovar oldingi kundagidan M taga ortishi aytilgan.

Agar bir kunda ishlab chiqari-

Blok sxemasi (While):

layotgan tovar sonini BT butun turdag'i o'zgaruvchilar orqali ifodalansa, u holda masala shartiga ko'ra:

1-kun: BT=B, S=S+BT=0+B=B;

2-kun: BT=BT+M=B+M,

S=S+BT=B+(B+M)=2·B+M;

3-kun: BT=BT+M=B+M+M=B+2·M,

S=S+BT=2·B+M+(B+2·M)=3·B+3·M;

\*\*\*

Demak, bu masala ham avvalgi masalalar kabi yechilar ekan. Dasturda masala yechimi **kun** nomli Word turidagi o'zgaruvchi orqali ifodalan-gan. Masalada B, M, A sonlar donani bildirgani uchun ular ham Word turidiagi o'zgaruvchi bo'ladi.

#### Dasturi:

Var

B, M, A, BT, S, kun: word;

Begin

write('B= '); readln(B);

write('M= '); readln(M);

write('A= '); readln(A);

kun:=1; BT:=B;

S:=BT;

While S<=A do begin


    BT:=BT+M;

    S:=S+BT; kun:=kun+1;

end;

    Write('Kun= ', kun); Readln;

End.



#### Dasturi:

Var

B, M, A, BT, S, kun: word;

Begin

write('B= '); readln(B);

write('M= '); readln(M);

write('A= '); readln(A);

kun:=0; BT:=B;

S:=0;

Repeat S:=S+BT;

    BT:=BT+M; kun:=kun+1;

Until S>A;

    Write('Kun= ', kun);

    Readln;

End.

**T-11\***. Sanayotgan kishi atrofida doira shaklida B ta tartib raqami berilgan odam turibdi. Sanovchi M gacha sanah borgach, M-sanalgan odam doiradan chiqadi va sanovchi kishi keyingi odamni sanashni 1 dan boshlaydi. Sanash 1 ta odam qolguncha davom etadi. Oxirida nechanchi tartib raqamli odam qolganini aniqlovchi dastur tuzing.

## Yechim:

Sanalayotgan (**Word** turdag'i o'zgaruvchi) B ta odamning har biri tartib raqamiga ega bo'lgani uchun  $A_1, A_2, \dots, A_R$  butun sonlar massiviga quyidagicha mos qo'yish mumkin: massiv elementi qiymati odam doirada qolgan bo'lsa 1 ga, doiradan chiqqan bo'lsa 0 ga teng bo'lsin. Massiv elementlarini bittalab qarab chiqish uchun K nomli **Word** turdag'i o'zgaruvchi kiritib, ixtiyoriy takrorlash operatorini qo'llash mumkin. Doiradan chiqish sanoqda ishtirok etmaslik bilan bir xil, ya'ni agar  $A[K]=0$  bo'lsa, bu elementga mos K-odam doiradan chiqqan va sanoqda ishtirok etmaydi. Doirada qolgan odamlarni sonini saqlab turish uchun **Son** nomli, sanash uchun S nomli **Word** turdag'i o'zgaruvchilar kiritish maqsadga muvofiq.

Masala yechimi quyidagicha aks etadi:

Avval barcha odam doirada bo'lgani uchun  $A[1..B]$  massiv elementlariga 1 qiymat beriladi. Sanoq  $A[1]$  dan boshlanadi va qiymati 1 ga teng har bir element qaralganda S ga bir qo'shiladi hamda  $S=M$  shart tekshiriladi. Agar  $S=M$  tenglik "Rost" qiymat qabul qilsa, u holda oxirgi qaralgan elementga 0 qiymat beriladi va  $S=0$  deb olinadi, ya'ni sanoq boshidan boshlanadi. Agar  $K=B$  bo'lsa, u holda  $K=1$  deb olinadi, bu esa sanash doiraviy davom etishini bildiradi.

### Dasturi:

```
Var B, M, K, S, Son: Word;
A: array[1..10000] of byte;
Begin
  write('B='); readln(B);
  write('M='); readln(M);
  For K:=1 to B do A[K]:=1;
  K:=0; S:=0; Son:=B;
  While Son>1 do
    BEGIN K:=K+1;
    IF A[K]=1 THEN S:=S+1;
    IF S=M THEN begin
      Son:=Son-1; A[K]:=0;
      S:=0; end;
    IF K=B then K:=0;
  END;
  For K:=1 to B do
```

### Dasturi:

```
Var B, M, K, S, Son: Word;
A: array[1..10000] of byte;
Begin
  write('B='); readln(B);
  write('M='); readln(M);
  For K:=1 to B do A[K]:=1;
  K:=0; S:=0; Son:=B;
  Repeat
    K:=K+1;
    IF A[K]=1 THEN S:=S+1;
    IF S=M THEN begin
      Son:=Son-1; A[K]:=0; S:=0;
      end;
    IF K=B then K:=0;
  Until Son=1;
  For K:=1 to B do
```

<pre> IF A[K]=1 then     WriteLn('Qolgan odam tartib             raqami= ', K);     Readln; End. </pre>	<pre> IF A[K]=1 then     WriteLn('Qolgan odam             tartib raqami= ', K);     Readln; End. </pre>
---	---

## 38 – dars. Belgili va satrli miqdorlar bilan ishlash mavzusiga

**M-1.** Quyidagi funksiyalar bajarilish natijasini aniqlang.

- a) Concat('o', 'na')='o'+'na'='ona'; – so‘zlarini bir-biriga uladi
- b) Concat('ya','sha','sin')='ya'+'sha'+'sin'='yashasin'; – so‘zlarini bir-biriga uladi
- d) a:='dunyo'; Length(a)=Length('dunyo')=5; – “dunyo” so‘zidagi belgilar soni
- e) Pos('o', 'bahor')= 4; – “o” belgisi “bahor” matnida birinchi marta 4-o‘rinda kelgan

**M-2.** Satrli o‘zgaruvchi S ning qiymati ‘Informatika’ bo‘lsin. Quyidagi amallar bajarilgach uning qiymatini aniqlang:

- a) Delete(s,5,7)=Delete('Informatika',5,7)=Delete('Informatika',5,7)= ‘Info’; – ‘Informatika’ matnini 5-belgisidan boshlab 7 ta belgisini o‘chirdi
- b) Delete(s,1,2)=Delete('Informatika',1,2)=‘formatika’; – ‘Informatika’ matnini 1-belgisidan boshlab 2 ta belgisini o‘chirdi
- Delete(s,6,4)=Delete('formatika',6,4)=Delete('formatika',6,4)= ‘forma’; – ‘formatika’ matnini 6-belgisidan boshlab 4 ta belgisini o‘chirdi

**M-3.** Kiritilgan so‘zdan “ona” so‘zini hosil qilish imkoniyatini aniqlovchi dastur tuzing.

Yechim:

Kiritilayotgan so‘z A satrda saqlanadi. Hosil qilinishi kerak bo‘lgan “ona” so‘zi 3 ta “o”, “n” va “a” belgilardan iborat. Dasturning vazifasi shu uchta belgi bir vaqtida A satrda bor yoki yo‘qligini aniqlash. Agar shu belgilardan birortasi A satrda uchramasa, u holda “ona” so‘zini hosil qilib bo‘lmaydi.

Masala yechimini beruvchi dasturni turlicha tuzish mumkin. Masa-

Jan:

1) Dastur agar A satrda “o” belgisi uchrasa ( $yani, Pos('o', A)>0$ )  $s=s+1$  deb oladi, keyin A satrda “n” belgisi uchrasa ( $yani, Pos('n', A)>0$ )  $s=s+1$  va A satrda “a” belgisi uchrasa ( $yani, Pos('a', A)>0$ )  $s=s+1$  deb oladi. Agar  $s=3$  bo’lsa, demak barcha belgilar bor, ya’ni “ona” so’zini hosil qilish mumkin, aks holda mumkin emas.

2) Ma’llumki, matnda biror belgi qatnashmasa shu belgini izlayotgan Pos funksiyasi qiymati 0 ga teng bo’ladi. Shuning uchun  $Pos('o', A)*Pos('n', A)*Pos('a', A)>0$  bo’lsagina “ona” so’zini hosil qilish mumkin, aks holda mumkin emas.

Dasturi:

```
Var s: byte; A: String;
Begin
    Write('So\'zni kriting: ');
    Readln(A);
    IF Pos('o', A)>0 THEN s:=1;
    IF Pos('n', A)>0 THEN s:=s+1;
    IF Pos('a', A)>0 THEN s:=s+1;
    IF s=3 THEN
        Write('Hosil qilish mumkin')
    ELSE
        Write('Hosil qilish mumkin
emasi');
    Readln;
End.
```

Dasturi:

```
Var
    A: String;
Begin
    Writet('So\'zni kriting: ');
    Readln(A);
    IF Pos('o', A)*Pos('n', A)*
Pos('a', A)>0 THEN
        Write('Hosil qilish mumkin');
    ELSE
        Write('Hosil qilish mumkin
emas');
    Readln;
End.
```

### 39 – dars. Belgili va satrli miqdorlar bilan ishlash mavzusini takrorlash mavzusiga

**T-1.** Berilgan so’zning belgilari orasiga bittadan probel qo’shib chiquvchi dastur tuzing.

Yechim:

Kiritilayotgan so’z A satrda saqlanadi. Satr uzunligi 255 ta belgidan oshmaydi, shuning uchun uni uzunligini **byte** turidagi o’zgaruvchiga o’zlashtirish mumkin. Agar belgilar orasiga probel qo’shilsa, satr uzunligi 255 dan ortib ketishi mumkin. Shuning uchun probel belgisini chiqarish operatorida qo’shish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Masala yechimini beruvchi dasturni turlicha tuzish mumkin. Masalan:

1) A satrning uzunligiga mos biror takrorlash operatori yordamida satrning k-belgisi nusxasi Copy funksiyasi orqali B satrga olinib chiqarish operatorida Write(B, ‘ ’) kabi yoziladi.

2) Ma’lumki, satr massiv xususiyatiga ega. Shuning uchun Copy funksiyasidan foydalanmasdan A satrning k-belgisini A[k] kabi ifodalash mumkin va chiqarish operatorida Write(A[k], ‘ ’) kabi yoziladi.

#### Dasturi:

```
Var A, B: String; k: byte;
Begin Write('So`zni kriting: ');
    Readln(A);
    For k:=1 to Length(A) do begin
        B:=Copy(A, k, 1); Write(B, ' ');
        end;
    Readln;
End.
```

#### Dasturi:

```
Var A: String; k: byte;
Begin
    Write('So`zni kriting: ');
    Readln(A);
    For k:=1 to Length(A) do
        Write(A[k], ' ');
    Readln;
End.
```

**T-2.** S satr berilgan. Undagi “b” harflari sonini aniqlovchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Kiritilayotgan so‘z S satrda saqlanadi. Satr uzunligi 255 ta belgidan oshmaydi, shuning uchun uni uzunligini **byte** turidagi o‘zgaruvchiga o‘zlashtirish mumkin. Masala yechimini beruvchi dasturni turlicha tuzish mumkin. Masalan:

1) A satrning uzunligiga mos parametrali takrorlash operatori yordamida satrning k-belgisi “b” belgi bilan taqqoslanadi, ya’ni S[k]=‘b’, va tenglik bajarilsa sanoq bittaga oshiriladi. Bu holda satrning har bir belgisi “b” belgi bilan taqqoslanadi.

2) Satrdagi “b” belgisi o‘rnini Pos funksiyasi yordamida aniqlanadi. Keyin sanoq bittaga oshiriladi va topilgan belgi o‘chiriladi. Jarayon toki satrda “b” belgisi batamom o‘chirilmaguncha, ya’ni Pos(‘b’, S)>0 bo‘lsa, takrorlanaveradi. Tushunarlik, bu holda shart bo‘yicha takrorlash operatori **While** dan foydalilanildi. Bu usulda bajariladigan amallar soni anchagina kamayadi.

Ikkala usulni S=‘bombarbia’ bo‘lganda taqqoslaymiz: 1-usulda 9 marta k ni o‘zgartirish, 9 marta taqqoslash va 3 marta sanoq bajariladi, ja’mi 21 ta amal; 2-usulda 4 marta tekshirish, 3 marta sanoq va 3 marta

### o'chirish, ja'mi 10 ta amal.

#### Dasturi:

```

Var S: String; k, sanoq: byte;
Begin
    sanoq:=0;
    Write('So'zni kiriting: ');
    Readln(S);
    For k:=1 to Length(S) do
        If S[k]='b' then sanoq:=sanoq+1;
    Write('b harflari soni ',sanoq);
    Readln;
End.

```

#### Dasturi:

```

Var S: String; sanoq: byte;
Begin sanoq:=0;
    Write('So'zni kiriting: ');
    Readln(S);
    While Pos('b', S)>0 do begin
        sanoq:=sanoq+1;
        delete(S, Pos('b', S),1); end;
    Write('b harflari soni ', sanoq);
    Readln;
End.

```

**T-3.** A[1..N] satrli massiv berilgan. Massiv elementlari ichidan "m" harfdan boshlanadiganlarini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

N natural son va A[1..N] satrli massiv kiritiladi. Parametrlri takrorlash operatori yordamida massivni har bir elementining 1-belgisi "m" belgi bilan taqqoslanadi, ya'ni A[k][1]='m' (yoki Copy(A[k],1,1)='m'), va tenglik bajarilsa mos element ekranga chiqariladi. Massiv elementlari soni 253 tadan ortiq e'lon qilinsa, Paskal dasturi ma'lumotlar xotira chegarasidan chiqib ketganligi haqida xabar beradi.

#### Dasturi:

```

Var N, k: integer;
A: array[1..253] of String;
Begin Write('N ni kiriting: ');
    Readln(N);
    For k:=1 to N do begin
        Write('A[', k, ']=');
        Readln(A[k]); end;
    For k:=1 to N do begin
        If A[k][1]='m' Then
            Write(A[k], ' ');
        end;
    Readln;
End.

```

#### Dasturi:

```

Var N, k: integer;
A: array[1..253] of String;
Begin Write('N ni kiriting: ');
    Readln(N);
    For k:=1 to N do begin
        Write('A[', k, ']=');
        Readln(A[k]); end;
    For k:=1 to N do begin
        If Copy(A[k],1,1)='m' Then
            Write(A[k], ' ');
        end;
    Readln;
End.

```

**T-4\***. S satr faqat raqamlardan iborat. Satrdagi raqamlardan eng katta sonni hosil qiladigan dastur tuzing.

Yechim:

Misol uchun S= “5520122” bo‘lsin. U holda eng katta son SS= “5522210” bo‘ladi. Demak, satrdagi raqamlardan eng katta sonni hosil qilish uchun uni raqamlarini kamayish tartibida yozish kerak ekan. Bu vazifani turli usullarda bajarish mumkin. Masalan:

1) R= “9876543210” satr kiritiladi. Avval B satrning birinchi belgisiغا teng S satr belgilarni barchasini SS satrga, keyin ikkinchi belgisiغا teng belgilarni va hokazo.

2) S satrni kamayish tartibida saralanadi. Paskal dasturlash tili belgilarni ham taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘lib, bunda dastur taqqoslashni belgilarni ASCII kodi asosida bajaradi. Masalan, ‘7’<‘5’ belgilarni taqqoslash uchun Paskal dasturi bu belgilarni ASCII kodini ( $7 \rightarrow 55$ ,  $5 \rightarrow 53$ ) olib  $55 < 53$  kabi taqqoslaydi.

Dasturi:

```

Var
S, SS, B: String; N, k, m: byte;
Begin
Write('S ni kiriting: '); Readln(S);
B:= '9876543210';
N:=Length(S); SS:= "";
For k:=1 to 10 do
For m:=1 to N do
If B[k]=S[m] Then
SS:=SS+S[m];
Write('Javob: ', SS);
Readln;
End.

```

Dasturi:

```

Var
N, k, m: byte;
S: String; B: char;
Begin Write('S ni kiriting: ');
Readln(S); N:=Length(S);
For k:=1 to N-1 do
For m:=k+1 to N do
If S[k]<S[m] Then begin
B:=S[k]; S[k]:=S[m];
S[m]:=B; end;
Write('Javob: ', S);
Readln;
End.

```

**T-5\***. A satrdagi belgilarni faqat o‘rnini almashtirib B satrni hosil qilish mumkin yoki yo‘qligini aniqlovchi dastur tuzing.

Yechim:

Masalan:

A=“Lola” va B=“lola” bo‘lsa, “Mumkin emas”; A=“Lola” va B=“oLla” bo‘lsa, “Mumkin”; A=“lola” va B=“loola” bo‘lsa, “Mumkin emas”; A=“lolaa” va B=“loola” bo‘lsa, “Mumkin emas”. Misollardan

ko'rish mumkinki, agar A va B satrlarni uzunligi teng bo'lmasa, javob "Mumkin emas". Shuning uchun A va B satrlarni uzunliklari teng holni qarash yetarli.

Bu masalani turli usullarda hal etish mumkin. Masalan:

1) A va B satr belgulari o'sish (yoki kamayish) tartibida saralanadi va taqqoslanadi. Agar saralangan satrlar teng bo'lsa "Mumkin", aks holda "Mumkin emas".

2) A satrni har bir belgisi Pos funksiyasi yordamida B satrdan izlanadi: agar B satrda izlanayotgan belgi uchramasa, "Mumkin emas", agar uchrasha A satr dan ham B satr dan ham o'chiriladi va jarayon A satr bo'sh satrga aylanguncha davom ettiriladi. Bu holda B satr ham bo'sh satrga aylanadi.

<u>Dasturi:</u>	<u>Dasturi:</u>
<pre> Label 1,2; Var A, B: String; D: char; N, k, m: byte; Begin     Write('A satrni kiriting: ');     Readln(A);     Write('B satrni kiriting: ');     Readln(B); N:=Length(A);     IF N&lt;&gt;Length(B) Then goto 1;     For k:=1 to N-1 do         For m:=k+1 to N do BEGIN             If A[k]&gt;A[m] Then begin                 D:=A[k]; A[k]:=A[m];                 A[m]:=D; end;             If B[k]&gt;B[m] Then begin                 D:=B[k]; B[k]:=B[m];                 B[m]:=D; end;             END;         IF A=B THEN begin             Write('Mumkin'); goto 2; end;         1: Write('Mumkin emas ');         2: Readln;     End. </pre>	<pre> Label 1, 2; Var     A, B: String; Begin     Write('A satrni kiriting: ');     Readln(A);     Write('B satrni kiriting: ');     Readln(B);     IF Length(A)&lt;&gt;Length(B)     Then goto 1;     While A&lt;&gt; '' do         BEGIN             If Pos(A[1], B)&gt;0 THEN                 begin                     Delete(B,Pos(A[1],B),1);                     Delete(A, 1, 1);                 end             ELSE goto 1;         END;     Write('Mumkin'); goto 2;     1: Write('Mumkin emas ');     2: Readln; End. </pre>

## 40 – dars. Paskalda ekranni grafik holatga o’tkazish mavzusiga

**M-1.** Ekranni grafik holatga o’tkazuvchi va **Enter** klavishi bosilganda yana matn holatiga qaytaruvechi dastur tuzing.

### Yechim:

Ekranni grafik holatga o’tkazish uchun dasturning asosiy qismida **InitGraph(Gd, Gm, "")** prosedurasi yoziladi, grafik holatdan chiqish uchun esa **CloseGraph** prosedurasidan foydalananiladi. Dasturni **Enter** klavishi bosilguncha kuttirish uchun **CloseGraph** prosedurasidan avval **Readln;** operatori yoziladi.

### Dasturi:

Uses Graph;  
Var  
    Gd, Gm: Integer;  
Begin  
    gd:=0;  
    initgraph(gd, gm, "");  
    Readln;  
    CloseGraph;  
End.

**M-2.** Ekranning to’rtta burchagida sariq rangli nuqta hosil qiluvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Grafik ekran ( $0..639 \times 0..479$ ) nuqtalar to’plamidan iborat. Shuning uchun ekranni burchakdagi nuqtalari quyidagilar: chap yuqori nuqta (0,0); o’ng yuqori nuqta (639,0); chap quyisi nuqta (0,479); o’ng quyisi nuqta (639,479). Ekran grafik holatga o’tkazilgach (avvalgi mashqdagagi kabi) **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi yordamida nuqtalar joylashtiramiz. Bunda nuqtalar sariq rangda aks etishi uchun rangni Yellow (yoki 14) kabi tanlanadi. Dasturni **Enter** klavishi bosilguncha kuttirish uchun **CloseGraph** prosedurasidan avval **Readln;** operatori yoziladi.

### Dasturi:

Uses graph;  
var gd, gm: integer;  
begin  
    gd:=0; initgraph(gd, gm, "");  
    PutPixel(0,0,yellow);  
    PutPixel(639,0,yellow);  
    PutPixel(0,479,14);  
    PutPixel(639,479,14);  
    readln; closegraph;  
end.

### Natijaning ekrandagi ko’rinishi:



### M-3. Nuqtalar yordamida ekranni o'rtasidan bo'luvchi gorizontal chiziq hosil qiling.


Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va biror takrorlash operatori, masalan, parametrli takrorlash operatori yordamida nuqtalar joylashtiriladi. Nuqtalarni gorizontal yo'nalishda ekranni o'rtasidan ( $Y=480/2=240$ ) chapdan o'ngga qarab joylashtirish uchun **X** ni qiymatini **0** dan **639** gacha bittalab o'zgartirish kerak. Nuqtalar oq rangda aks etishi uchun rangni White (yoki 15) kabi tanlanadi. Dasturni **Enter** klavishi bosilguncha kuttirish uchun CloseGraph prosedurasidan avval Readln; operatori yoziladi.

Dasturi:

```
Uses graph;
var gd, gm, x: integer;
begin
  gd:=0; initgraph(gd, gm, "");
  for x:=0 to 639 do
    PutPixel(x, 240, 15);
  readln; closegraph;
end.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



### M-4. Random funksiyasidan foydalanib turli rangli nuqtalarni hosil qilish dasturini tuzing.

Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va biror takrorlash operatori, masalan, parametrli takrorlash operatori yordamida **N** ta (masalan, 500 ta) nuqta joylashtiriladi. Nuqtalarni joylashtirish uchun **X** va **Y** o'zgaruvchilar qiymatini **X:=Random(640); Y:=Random(480);** formulalar yordamida o'zgartiriladi, chunki Random(640) funksiyasi 0 dan 639 gacha, Random(480) funksiyasi 0 dan 479 gacha bo'lgan butun sonlarni hosil qiladi. Random funksiyasi yordamida har bir (**X, Y**) juftlik hosil qilinayotganda qiymatlar turlicha bo'lishi uchun dasturning asosiy qismiga **Randomize** protsedurasi kiritiladi. Ekrandagi nuqtalar ham turli rangda bo'lishi uchun **Rang:=Random(16);** formulasini qo'llash mumkin.

Dasturi:


```
Uses graph;
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

```

var gd, gm: integer;
k, X, Y, Rang: integer;
begin Randomize; gd:=0;
initgraph(gd, gm, "");
for k:=1 to 500 do    BEGIN
X:=Random(640); Y:=Random(480);
Rang:=Random(16);
PutPixel(X, Y, Rang); END;
readln; closegraph;
end.

```



**M-5.**  $x \in [-10, 10]$  oraliqda  $y=3x+5$  funksiyasining grafigini chizuvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va shart bo'yicha takrorlash operatori (chunki o'zgarish qadami haqiqiy son), masalan, While yordamida nuqtalar joylashtiriladi. Nuqtalarni zichroq joylashtirish uchun **X** ni qiymatini **-10** dan **10** gacha **0.01** qadam bilan o'zgartirib, bu qiymatga mos **Y** ning qiymati  $y:=3*x+5$ ; formula yordamida aniqlanadi. Nuqtalar oq rangda aks etishi uchun rangni White (yoki 15) kabi tanlanadi. Masshtabni kattalashtirish uchun **x** ni **10** ga, **y** ni **5** ga ko'paytirish kerak. Ma'lumki, grafik ekranda ordinata qiymati yuqoridaan quyiga o'sadi. Shu sababli to'g'ri chiziq nuqtalari Dekart koordinatalar sistemasidagi kabi aks etishi uchun " $\frac{y}{x}$ " ishora qo'yilgan. Grafikni ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun birinchchi koordinataga ( $640/2=$ ) **320** ni, ikkinchi koordinataga ( $480/2=$ ) **240** ni qo'shish maqsadga muvofiq.

#### Dasturi:

```

Uses Graph;
var gd, gm: Integer; x, y, a, b: real;
Begin gd:= 0;
InitGraph(gd, gm, ""); x:=-10;
While x<=10 do BEGIN
y:=3*x+5; a:=trunc(10*x+320);
b:= trunc(-5*y+240);
putpixel(a,b,15); x:=x+0.01; END;
Readln; CloseGraph;
end.

```

#### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



## 41 – dars. Paskalda ekranni grafik holatga o‘tkazish mavzusini takrorlash mavzusiga

T-1. Tomonlarini rangi turlicha bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak chizish dasturini tuzing.


Yechim:

Ekran grafik holatga o‘tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va parametrlı takrorlash operatorlari yordamida kerakli nuqtalar joylashtiriladi.

Dasturi:

```
Uses Graph;  
var gd, gm: Integer; x, y: integer;  
Begin gd:= 0; InitGraph(gd, gm, "");  
For x:=20 to 480 do BEGIN  
PutPixel(x, 20, blue);  
PutPixel(x, 300, green); END;  
For y:=20 to 300 do BEGIN  
PutPixel(20, y, yellow);  
PutPixel(480, y, red); END;  
Readln; CloseGraph;  
end.
```

Natijaning ekrandagi ko‘rinishi:



T-2. Grafik koordinatasi bilan berilgan nuqta uchlarining grafik koordinatalari orqali berilgan to‘g‘ri chiziqqa tegishli yoki tegishli emasligini aniqlovchi dastur tuzing (yo‘llanma: nuqtani rangi to‘g‘ri chiziqning rangiga tengligini aniqlash uchun **GetPixel** funksiyasidan foydalaning).

Yechim:

Ekran grafik holatga o‘tkazilgach, nuqtaning koordinatalari ( $x_0, y_0$ ) va to‘g‘ri chiziq uchlarining koordinatalari ( $x_1, y_1$ ) va ( $x_2, y_2$ ) kiritiladi. Endi ikki nuqtadan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasidan foydalanim **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va parametrlı takrorlash operatorlari yordamida kodi 0 bo‘lgan qora rangdan boshqa rangda, masalan, kodi 15 bo‘lgan oq rangda to‘g‘ri chiziq chiziladi. **GetPixel(X,Y)** funksiyasi yordamida ( $x_0, y_0$ ) nuqtaning rangi aniqlanadi. Agar nuqta rangi kodi 15 (oq) bo‘lsa, nuqta to‘g‘ri chiziqqa tegishli, aks holda, ya’ni nuqta rangi kodi 0 (qora) bo‘lsa, nuqta to‘g‘ri chiziqqa tegishli emas.

Ikki nuqta ( $x_1, y_1$ ) va ( $x_2, y_2$ ) dan o‘tuvchi to‘g‘ri chiziq tenglamasi quyidagicha:  $Y = y_1 + (X - x_1) \cdot (y_2 - y_1) / (x_2 - x_1)$ .

Geometriya kursidan ma’lumki, agar  $x_2 = x_1$  bo‘lsa, u holda to‘g‘ri vertikal bo‘lib, Y ning 0 dan 479 gacha bo‘lgan qiymatida  $X = x_1$  tenglama bilan

aniqlanadi. Agar  $x_2 \neq x_1$  bo'lsa, yuqoridaagi formula o'z kuchini saqlab qoladi.

Dasturi:

```
Uses Graph;
var gd, gm: Integer; x, y: real;
x0, y0, x1, y1, x2, y2: integer;
Begin
gd:= 0; InitGraph(gd, gm, "");
Write('x0= '); Readln(x0);
Write('y0= '); Readln(y0);
Write('x1= '); Readln(x1);
Write('y1= '); Readln(y1);
Write('x2= '); Readln(x2);
Write('y2= '); Readln(y2);
IF x2=x1 THEN
For Y:=0 to 479 do
PutPixel(x1, trunc(Y), 15);
ELSE
BEGIN X:= 0;
While x<=639 do Begin
Y:=y1+(X-x1)*(y2-y1)/(x2-x1);
putpixel(trunc(X), trunc(Y),15);
X:=X+0.01; End;
END;
IF GetPixel(x0,y0)=15 THEN
Write('Tegishli') ELSE
Write('Tegishli emas');
Readln; CloseGraph;
end.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

$$X=x_1$$



$$Y=y_1+(X-x_1)\cdot(y_2-y_1)/(x_2-x_1)$$



$$Y=y_1+(X-x_1)\cdot(y_2-y_1)/(x_2-x_1)$$



**T-3.** Turli rangda 15 ta parallel kesmalar chizuvchi dastur tuzing (yo'llanma: kesma koordinatalarini va rangni oshirish uchun takrorlash operatoridan foydalaning).

Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va parametrali takrorlash operatorlari yordamida kerakli nuqtalar joylashtiriladi. Ranglarni 1 dan 15 gacha parametrali takrorlash operatori yordamida o'zgartirish qulay (kodi 0 bo'lgan rang olinsa kesma ko'rinnmaydi, chunki grafik holatga o'tilganda avtomatik ravishda ekran foni rangi kodi 0 deb belgilanadi).

Dasturi:


Uses Graph;

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

```

var gd, gm, x, y, rang: Integer;
Begin gd:=0;
InitGraph(gd, gm, "");
For rang:=1 to 15 do
For y:=1 to 15 do
For x:=10 to 620 do
PutPixel(x, 10*y, rang);
Readln; CloseGraph;
end.

```



**T-4.** Random funksiyasi yordamida “yulduzli osmon” manzarasini hosil qilish dasturini tuzing.

Bu masalani yechimi avvalgi darsdag'i 4-mashqning yechimi bilan bir xil.

**T-5.** Ekran markazidan o'tuvchi koordinalar o'qi, mos joyda koordinatalar o'qi nomini yozuvchi va  $x \in [-7, 7]$  oraliqda  $y=|x|$  funksiyasining grafigini chizuvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va shart bo'yicha takrorlash operatori (chunki o'zgarish qadamiga haqiqiy son), masalan. While yordamida nuqtalar joylashtiriladi. Nuqtalarni zichroq joylashtirish uchun **X** ni qiymatini  $-7$  dan  $7$  gacha **0.01** qadam bilan o'zgartirib, bu qiymatga mos **Y** ning qiymati  $y:=abs(x)$ ; formula yordamida aniqlanadi. Nuqtalar oq rangda aks etishi uchun rangni White (yoki 15) kabi tanlanadi. Masshtabni katalashtirish uchun  $x$  ni  $30$  ga,  $y$  ni  $20$  ga ko'paytirish kerak. Ma'lumki, grafik ekranda ordinata qiymati yuqorida quyiga o'sadi. Shu sababli to'g'ri chiziq nuqtalari Dekart koordinatalar sistemasidagi kabi aks etishi uchun “—” ishora qo'yilgan. Grafikni ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun birinchi koordinataga  $(640/2)=320$  ni, ikkinchi koordinataga  $(480/2)=240$  ni qo'shish maqsadga muvofiq.

Parametrlri takrorlash operatorlari yordamida qizil rangdagi koordinata o'qlarini ekran markazi  $(320, 240)$  nuqtadan o'tkaziladi. Ekran piksellarda o'chlangani va hisob  $(0,0)$  nuqtadan boshlangani uchun **OuttextXY(A, B, "matn")**: protsedurasi yordamida ekramning chap yuqori burchagidan gorizontal bo'yicha A vertikal bo'yicha B piksel uzoqlikda "matn" chiqariladi.

#### Dasturi:

```

Uses Graph;
var k, gd, gm: Integer; x, y, a, b: real;
Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, "");


```

#### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

```

x:=-7;
While x<=7 do BEGIN y:=abs(x);
a:=30*x+320; b:=-20*y+240;
putpixel(trunc(a), trunc(b),15);
x:=x+0.01; END;
For k:=20 to 460 do PutPixel(320,k,4);
For k:=20 to 620 do PutPixel(k,240,4);
OuttextXY(300,10,'Y');
OuttextXY(620,220,'X');
ReadIn; CloseGraph;
End.

```



**T-6\***. Ichma-ich joylashgan 7 ta aylana chizuvchi dastur tuzing (yo'llanma: radiusni oshirish uchun takrorlash operatoridan foydalaning).

#### Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach radiusi  $R$  ga teng aylana chizish dasturi ni darslikdagi kabi tuzib olinadi. Bunda **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va shart bo'yicha takrorlash operatori (chunki o'zgarish qadami haqiqiy son), masalan, While yordamida nuqtalar joylashtiriladi. Nuqtalarni zichroq joylashtirish uchun **alfa** burchakni qiymati 0 dan  $2\pi$  gacha 0.01 qadam bilan o'zgartiriladi. Nuqtalar sariq rangda aks etishi uchun rangni Yellow (yoki 14) kabi tanlanadi. Grafikni ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun birinchi koordinataga  $(640/2)=320$  ni, ikkinchi koordinataga  $(480/2)=240$  ni qo'shiladi.

Endi aylanalar sonini 7 taga yetkazish uchun shunday o'zgartirish qilinadi: dasturning aylana chizish qismi While yordamida 7 marta takrorlanishi uchun radius o'zgarish qadamini 20 va chegarani 140 kabi tanlanadi( $7 \cdot 20 = 140$ ).


#### Dasturi:

```

Uses Graph;
Var gd, gm: integer;
x, y: Integer; R, alfa: real;
Begin Gd:=0;
InitGraph(Gd, Gm, ""); R:=20;
While R<=140 do BEGIN alfa:=0;
While alfa<=2*pi do begin
x:= 320 +trunc(R*cos(alfa));
y:= 240 +trunc(R*sin(alfa));
putpixel(x,y,14); alfa:=alfa+0.01;
end; R:=R+20; END;
ReadIn; CloseGraph;

```

#### Natijaning ekranidagi ko'rinishi:



**T-7\***. 7 marta o'chib-yonadigan aylana chizuvchi dastur tuzing (yo'llanma: aylana chizing va jarayonni sekinlashtirish uchun bo'sh takrorlash bajaring, avvalgi aylanani fon rangida chizing va jarayonni sekinlashtirish uchun bo'sh takrorlash bajaring, takrorlashni 7 marta bajartiring).

Yechim:

Ekran grafik holatga o'tkazilgach radiusi 50 ga teng aylana chizish das-turi tuzib olinadi. Bunda **PutPixel(X,Y,Rang)** protsedurasi va shart bo'yicha takrorlash operatori (chunki o'zgarish qadami haqiqiy son), masalan, While yordamida nuqtalar joylashtiriladi. Nuqtalarni zichroq joylashtirish uchun **alfa** burchakni qiymati 0 dan  $2\pi$  gacha 0.01 qadam bilan o'zgartiriladi. Nuqtalar sariq rangda aks etishi uchun rangni Yellow (yoki 14) kabi tanlanadi. Grafikni ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun birinchi koordinataga ( $640/2=$ ) 320 ni, ikkinchi koordinataga ( $480/2=$ ) 240 ni qo'shiladi.

Endi yonib o'chishni tashkil etish uchun aylana chizish qismini nusxa-lab qora rang tanlanadi (ekran foni rangi tanlansa fon rangida aylana chizi-ladi, ya'ni aylana ko'rinxmaydi). Paskal dasturlash tili juda katta tezlikda ishlaganini uchun aylana chizilgani va o'chirilganini ko'rishga ulgurilmaydi. Shu sababli vaqtini cho'zish uchun parametrlar takrorlash operatori yordamida bo'sh takrorlanishlar tashkil etiladi. O'chib yonish 7 marta takrorlanishi uchun parametrlar takrorlash operatoridan foydalanish mumkin.

Paskal dasturlash tilida dasturni biror qismida vaqtini sekinlashtirish uchun Crt moduliga tegishli Delay(N) protsedurasi (N word turida) ishlati-ladi. Delay(N) yozilgan joyda dastur N millisekund vaqt kutadi.

Dasturi:

```
uses graph;
var gd, gm, x, y, m, n: integer;
k:byte; alfa: real;
Begin gd:=0; Initgraph(gd, gm, "");
for k:=1 to 7 do BEGIN
  for m:= 1 to 20000 do
    for n:= 1 to 20000 do;
      alfa:=0;
      While alfa<=2*pi do begin
        x:= 320 +trunc(50*cos(alfa));
        y:= 240 +trunc(50*sin(alfa));
        putpixel(x, y, 14);
        alfa:= alfa+0.01; end;
```

Dasturi:

```
uses graph, crt;
var gd, gm, x, y: integer;
k: byte; alfa: real;
Begin gd:=0; initgraph(gd, gm, "");
for k:=1 to 7 do BEGIN
  delay(65000); delay(65000);
  delay(65000); delay(65000);
  alfa:=0;
  While alfa<=2*pi do begin
    x:= 320 +trunc(50*cos(alfa));
    y:= 240 +trunc(50*sin(alfa));
    putpixel(x, y, 14);
    alfa:= alfa+0.01; end;
```

<pre> for m:= 1 to 20000 do for n:= 1 to 30000 do; alfa:=0; While alfa&lt;=2*pi do begin   x:= 320 +trunc(50*cos(alfa));   y:= 240 +trunc(50*sin(alfa));   putpixel(x, y, 0);   alfa:= alfa+0.01; end;   END; readln; closegraph; end. </pre>	<pre> delay(65000); delay(65000); delay(65000); delay(65000); alfa:=0; While alfa&lt;=2*pi do begin   x:= 320 +trunc(50*cos(alfa));   y:= 240 +trunc(50*sin(alfa));   putpixel(x, y, 0);   alfa:= alfa+0.01; end;   END; readln; closegraph; end. </pre>
---	--

## 42 – dars. Paskalda shakllar chizish imkoniyatlari mavzusiga

**M-1.** Ekranni o'rtasidan o'tuvchi gorizontal va vertikal chiziq chizuvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Gorizontal chiziq rangi qizil bo'lishi uchun **Setcolor(red)** va vertikal chiziq rangi sariq bo'lishi uchun **Setcolor(yellow)**: protseduralari qo'llanildi. Ma'lumki, **Line(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi ekranning (X1,Y1) koordinatali nuqtasi bilan (X2,Y2) koordinatali nuqtasini birlashtiruvchi joriy rangli kesma chizadi. Shunga ko'ra gorizontal chiziqni 20 pikseldan 600 pikselgacha chizdirish uchun X1=20, X3=600, ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun ikkinchi va to'rtinchi koordinataga ( $480/2 =$ ) 240 yoziladi. Vertikal chiziqni 20 pikseldan 460 pikselgacha chizdirish uchun X2=20, X4=460, ekran markazidan o'tishni ta'minlash uchun birinchi va uchinchi koordinataga ( $640/2 =$ ) 320 yoziladi.


### Dasturi:

```

Uses Graph;
var gd, gm: Integer;
Begin gd:= 0;
InitGraph(gd, gm, "");
Setcolor(red);
Line(20,240,600,240);
Setcolor(yellow);
Line(320,20,320,460);
Readln; CloseGraph;
end.

```

### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



## M-2. Ekranning o'ttasida radiusi 100 dan kichik sariq rangli 4 ta aylana chizuvchi dastur tuzing.


Yechim:

Aylanalar chizig'i rangi sariq bo'lishi uchun barcha aylanaga bitta **SetColor**(yellow); protsedurasi qo'llaniladi. Ma'lumki, **Circle(X,Y,R)** protsedurasi markazi (X,Y) nuqtada va radiusi R ga teng aylana chizadi. Shuning uchun barcha aylana uchun **Circle(X,Y,R)** protsedurasida markazni X=320, Y=240 kabi tanlanadi. Endi 4 ta radiusni 100 dan kichik bo'lgan sonlar, masalan, 40, 55, 70, 85 kabi tanlash mumkin. Radiusni takrorlash operatori yordamida ham o'zgartirish mumkin.

Dasturi:

```
Uses Graph;
var gd, gm: Integer;
Begin gd:=0; InitGraph(gd,gm, "");
SetColor(yellow);
Circle(320,240,45);
Circle(320,240,60);
Circle(320,240,75);
Circle(320,240,90);
Readln; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



Dasturi (For):

```
Uses Graph;
var gd, gm: Integer; k:byte;
Begin gd:=0; InitGraph(gd,gm, "");
SetColor(yellow);
For k:=1 to 4 do
Circle(320, 240, k*15);
Readln; CloseGraph;
End.
```

Dasturi:

```
Uses Graph;
var gd, gm, k: byte;
Begin gd:= 0; InitGraph(gd, gm, "");
SetColor(yellow); k:= 45;
While k<100 do begin
Circle(320, 240, k); k:=k+15; end;
Readln; CloseGraph;
End.
```

## M-3. Ekranni sariq gorizontal chiziqlar bilan to'ldiring.

Yechim:

Bu masalani turli xil usullarda hal etish mumkin. Masalan:

1) **SetColor**(yellow); protsedurasi yordamida sariq rangli gorizontal to'g'ri chiziqlar **Line(0, 3\*Y, 639; 3\*Y)** protsedurasida Y ni 0 dan 159 gacha bittalab oshirgan holda ( $159 \cdot 3 = 477 < 479$ );

2) To'g'ri to'rtburchak chizib, uning ichini bo'yash uchun rang va usulni **SetLineStyle(usul,rang)**; protsedurasi yordamida tanlash orqali, bu yerda rang – tanlanayotgan rang kodi, usul – bo'yash usuli. **Bar(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi ekranda yuqori chap burchagi (X1,Y1) va quyi o'ng burchagi (X2,Y2)

koordinatali nuqtalarda bo'lgan, ichi joriy rang va joriy usulda bo'yagan to'g'ri to'rtburchak chizadi. Joriy rangni sariq, ya'ni Yellow (kodi 14), bo'yash usulini 2, ya'ni qalin gorizontal chiziqlar bilan to'ldirish, X1=0, Y1=0, X2=639, Y2=479 kabi tanlash masala yechimini beradi;

3) **Bar3D(X1,Y1,X2,Y2,a,b)** protsedurasi joriy rang va joriy usulda bo'yagan parallelepiped chizadi, bu yerda a – parallelepiped yon tomonining uzunligi, b esa mantiqiy ifoda bo'lib, uning qiymati “rost” bo'lsa parallelepipedning yuqori qirrasi chiziladi, “yolg'on” bo'lsa chizilmaydi. Shuning uchun SetFillStyle(2,14); a=0, b=False, X1=0, Y1=0, X2=639, Y2=479 kabi tanlash masala yechimini beradi.

<u>Dasturi (For):</u>	<u>Natijaning ekranidagi ko'rinishi:</u>
<pre>Uses Graph; var gd, gm: Integer; Y:byte; Begin gd:= 0; InitGraph(gd, gm, ""); SetColor(yellow); For Y:=0 to 159 do Line(0, 3*Y, 639; 3*Y); Readln; CloseGraph; End.</pre>	
<u>Dasturi (Bar):</u>	<u>Dasturi (Bar3D):</u>
<pre>uses graph; Var gd, gm: integer; begin gd := 0; InitGraph(gd, gm, ""); setfillstyle(2, yellow); Bar(0,0,639,479); Readln; CloseGraph; end.</pre>	<pre>Uses Graph; var gd, gm: integer; Begin gd:= 0; InitGraph(gd, gm, ""); SetFillStyle(2,14); Bar3D(0,0,639,479,0,False); Readln; CloseGraph; end.</pre>

#### M-4. Svetofor rasmini chizuvchi dastur tuzing.

##### Yechim:

Bu masalani turli xil usullarda hal etish mumkin. Masalan:


1) **Bar(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi yordamida 2 ta to'g'ri to'rtburchak, **FillEllipse(X,Y,XR,YR)** protsedurasi yordamida 3 ta doira chizib (doira chizish uchun XR=YR bo'lishi kerak), ularning ichini bo'yash uchun rang va usulni **SetFillStyle(usul,rang)**; protsedurasi yordamida tanlash orqali. Bo'yash usuli 1 deb olinadi, chunki shakl ichi to'liq bo'yaladi. Ranglar esa doiralar uchun 4 (qizil), 14 (sariq), 2 (yashil) tanlanadi. Dasturda doiralar chegara chizig'i rangi **SetColor(rang)** protsedurasi yordamida tanlanmagani uchun Paskal dasturi chegara rangini oq (kodi 15) rangda chizadi.

2) To'g'ri to'rtiburchaklar chizish uchun **Rectangle(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasidan va doiralar chizish uchun **Circle(X,Y,R)** protsedurasidan foydalanish mumkin. **SetFillStyle(usul,rang)**; protsedurasidan bu shakllarni ichini bo'yash usuli va rangini tanlashda, tanlangan rangni shakl ichiga "quyish" (MS Paint dasturidagi 🖌 kabi) uchun **FloodFill(A,B,D)** protsedurasidan foydalanish mumkin, bu yerda (A,B) shakl ichidagi biror nuqta, D chegara chizig'i rangi. Dasturda chegara chizig'i rangi **SetColor(rang)** protsedurasida yordamida tanlanmagan bo'lsa, u holda Paskal dasturi chegara rangini oq (kodi 15) rangda chizadi. Agar shakl ichini bo'yashda **FloodFill(A,B,D)** protsedurasidan foydalanayotganda (A,B) shakl ichiga tegishli bo'lmasa, u holda rang MS Paint dasturidagi 🖌 yordamida bo'yash kabi "yoyilib" ketadi.

#### Dasturi:

```
Uses graph;
Var gd, gm: Integer;
Begin gd := 0; InitGraph(gd, gm, ""); setfillstyle(1,6); bar(150,10,210,190);
  SetFillStyle(1,red); fillEllipse(180,40,30,30); SetFillStyle(1,14);
  fillEllipse(180,100,30,30); SetFillStyle(1,2); fillEllipse(180,160,30,30);
  setfillstyle(1,6); bar(175,190,185,300); Readln; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekranidagi ko'rinishi:



#### Dasturi (Floodfill):

```
Uses graph;
Var gd, gm: integer;
Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, "");
  Setfillstyle(1,6); rectangle(150,10,210,190); floodfill(160,100,15);
  SetFillStyle(1,4); circle(180,40,25); floodfill(180,40,15);
  SetFillStyle(1,14); circle(180,100,25); floodfill(180,100,15);
  SetFillStyle(1,2); circle(180,160,25); floodfill(180,160,15);
  Setfillstyle(1,6); rectangle(175,190,185,300); floodfill(180,200,15);
```

```
Readln; CloseGraph;  
End.
```

### M-5. Qizil rangli muntazam beshburchak chizuvchi dastur tuzing.


#### Yechim:

Masaladagi muntazam beshburchak uchlari koordinatalarini aniqlash uchun quyidagicha mulohaza o'rinni:

Muntazam beshburchakka tashqi aylana chizish mumkin. Aylanani bir "aylanib" chiqish  $360^{\circ}$  yoki  $2\pi$  ga teng. Bu burchakni 5 ga bo'linsa, aylanani beshta teng yoyga ajratuvchi nuqtalar orasidagi burchak  $2\pi/5$  aniqlanadi. Ekran markazini koordinata boshi hisoblab muntazam beshburchakning yuqori uchi koordinatalarini radiusi 100 ga teng aylanining nuqtasi sifatida

```
x:= 320 +trunc(100*cos(-pi/2)); y:=  
240 +trunc(100*sin(-pi/2));
```

kabi aniqlash mumkin. Muntazam beshburchakning keyingi har bir nuqtasi shu formulada  $-\pi/2$  ga, mos ravishda,  
 $1 \cdot (2\pi/5) = 2\pi/5$ ,       $2 \cdot (2\pi/5) = 4\pi/5$ ,  
 $3 \cdot (2\pi/5) = 6\pi/5$ ,       $4 \cdot (2\pi/5) = 8\pi/5$  ni qo'shish orqali hosil qilinadi.



Endi bu nuqtalarni **Line(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi yoki **FillPoly(BS,KM)** protsedurasi yordamida tutashtirish mumkin. Chiziq rangini tanlash uchun **SetColor(4)**, fon rangini tanlash uchun esa **SetBkColor(14)** protseduralaridan foydalilaniladi.

#### Dasturi (Line):

Uses Graph;

```
Var gd, gm: integer; X1,Y1, X2, Y2: Integer; X3,Y3, X4,Y4, X5,  
Y5:Integer;
```

```
Begin Gd:= 0; InitGraph(Gd, Gm, ""); Setbkcolor(14); Setcolor(4);  
X1:=320+trunc(100*cos(-pi/2)); Y1:=240+trunc(100*sin(-pi/2));  
X2:=320+trunc(100*cos(-pi/2+2*pi/5));  
Y2:=240+trunc(100*sin(-pi/2+2*pi/5));  
X3:=320+trunc(100*cos(-pi/2+4*pi/5));  
Y3:=240+trunc(100*sin(-pi/2+4*pi/5));  
X4:=320+trunc(100*cos(-pi/2+6*pi/5));
```

```

Y4:=240+trunc(100*sin(-pi/2+6*pi/5));
X5:=320+trunc(100*cos(-pi/2+8*pi/5));
Y5:=240+trunc(100*sin(-pi/2+8*pi/5));
Line(X1,Y1,X2,Y2); Line(X2,Y2,X3,Y3); Line(X3,Y3,X4,Y4);
Line(X4,Y4,X5,Y5); Line(X5,Y5,X1,Y1); Readln; CloseGraph;
End.

```

Dasturi (FillPoly):

Uses Graph;

```

Var gd, gm : Integer; km : Array[1..5,1..2] of Integer;
Begin Gd:= 0; InitGraph(Gd, Gm, ""); Setbkcolor(14); Setcolor(4);
    km[1,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2));
    km[1,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2));
    km[2,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+2*pi/5));
    km[2,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+2*pi/5));
    km[3,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+4*pi/5));
    km[3,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+4*pi/5));
    km[4,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+6*pi/5));
    km[4,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+6*pi/5));
    km[5,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+8*pi/5));
    km[5,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+8*pi/5));
    FillPoly(5,km); Readln; CloseGraph;
End.

```

## 43 – dars. Paskalda shakllar chizish imkoniyatlari mavzusini takrorlash mavzusiga

**T-1.** O‘zbekiston bayrog‘i rasmini chizuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bayroq rasmi to‘g‘ri to‘rburchaklar birlashmasi ko‘rinishida tasvirlanadi.

To‘g‘ri to‘rburchaklar chizish uchun **Bar(X1,Y1,X2,Y2);** protsedurasidan, bo‘yash uchun **SetFillStyle(usul,rang);** protsedurasidan foydalananish qulay. Bayroqdagi oy va yulduzlar chizish protseduralar mavzusidan keyin bajarilishi maqsadga nuvofiq.


Dasturi:

```

Uses graph;
Var gd, gm:integer;
Begin gd := 0; InitGraph(gd, gm, ""); setfillstyle(1,LightBlue);
bar(50,50,380,100); setfillstyle(1,Red); bar(50,100,380,103);
setfillstyle(1,White); bar(50,103,380,153); setfillstyle(1,Red);
bar(50,153,380,156); setfillstyle(1,Green); bar(50,156,380,206);
setfillstyle(1,Yellow); bar(40,40,50,350); Readln; CloseGraph;
end.

```

Natijaning ekranligi ko'rinishi:



**T-2.** Ekranning to'rtta burchagida eni 60 va bo'yи 40 ga teng qizil rangli to'rburchaklar chizuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Ekranning o'lchamlari  $0..639 \times 0..479$  bo'lgani uchun to'g'ri to'rburchaklar diagonallari uchlari koordinatalari quyidagicha aniqlanadi: chap yuqori burchakdagi to'g'ri to'rburchakning diagonallari uchlari  $(0,0)$  va  $(60,40)$ ; o'ng yuqori burchakdagi to'g'ri to'rburchakning diagonallari uchlari  $(639-60,0) = (579,0)$  va  $(639,40)$ ; chap quyisi burchakdagi to'g'ri to'rburchakning diagonallari uchlari  $(0,479-40) = (0,439)$  va  $(60,479)$ ; o'ng quyisi burchakdagi to'g'ri to'rburchakning diagonallari uchlari  $(639-60,479-40) = (579,439)$  va  $(639,479)$ .

To'g'ri to'rburchaklar chizish uchun **Bar(X1,Y1,X2,Y2)**; chegarasi rangu belgilash uchun **SetColor(rang)**, ichini bo'yash uchun **SetFillStyle(usul,rang)**; protsedurasidan foydalanish qulay.

Dasturi:

```

Uses graph;
Var gd, gm:integer;
Begin gd := 0; InitGraph(gd, gm, "");
SetColor(4); setfillstyle(1, red);
bar(0,0,60,40); bar(579,0,639,40);


```

Natijaning ekranligi ko'rinishi:

```

bar(0,439,60,479);
bar(579,439,639,479);
ReadIn; CloseGraph;
end.

```



Izoh: Paskal dasturlash tilining ba'zi modullari zamonaviy monitorlarning grafik ekran imkoniyatlarini to'liq aks ettira olmasligi sababli ekranning horizontal yo'naliishdagi piksellari soni  $0.479 \times 0.639$  emas, masalan,  $0..432 \times 0..632$  bo'lishi mumkin. Shuning uchun yuqoridagi kabi dasturlarni tahrirlash zarur bo'ladi.

**T-3.** Ekranni teng to'rt bo'lakka bo'lib, ularni mos ravishda qizil, sariq, yashil va ko'k ranglarga bo'yovchi dastur tuzing.

Yechim:

Ekranning o'lchamlari  $0..639 \times 0..479$  bo'lgani uchun to'g'ri to'rtburchaklar yordamida 4 bo'lakka bo'lish mumkin. To'g'ri to'rtburchaklar diagonallari uchlari koordinatalari quyidagicha aniqlanadi: (0,0) va (320,240); (320,0) va (639,240); (0,240) va (320,479); (320,240) va (639,479).

To'g'ri to'rtburchaklar chizish uchun **Bar(X1,Y1,X2,Y2)**; chegarasi rangu belgilash uchun **SetColor(rang)**, ichini bo'yash uchun **SetFillStyle(usl,rang)**; protsedurasidan foydalanish qulay.


Dasturi:

```

Uses graph;
Var
gd, gm:integer;
Begin gd := 0; InitGraph(gd, gm, "");
setfillstyle(1,red); bar(0,0,320,240);
setfillstyle(1,yellow);
bar(320,0,639,240);
setfillstyle(1,green); bar(0,240,320,479);
setfillstyle(1,blue);
bar(320,240,639,479);
ReadIn; CloseGraph;
end.

```

Natijaning  
ekrandagi ko'rinishi:



**T-4.** Ekranning o'rtaida radiusi 100 ga teng sariq rangli doira chizuvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Markazi ekran markazida va radiusi 100 piksel bo'lgan doira chizish uchun **FillEllipse(320,240,100,100);** chegara chizig'i rangi sariq bo'lishi uchun **SetColor(yellow);** ichini rangi sariq bo'lishi uchun **SetLineStyle(1, yellow);** protseduralari qo'llaniladi.


#### Dasturi:

Uses Graph;

var

```
gd, gm: Integer;
Begin
gd:= 0; InitGraph(gd, gm, "");
SetColor(yellow);
SetLineStyle(1, yellow);
FillEllipse(320,240,100,100);
Readln; CloseGraph;
end.
```

#### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**T-5.** Oy va yulduzlar tasvirlangan kechki osmon manzarasini chizuvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Ekranda oq rangli oy ko'rinishini hosil qilish uchun ichi oqqa bo'yalgan doira bilan ichi fon rangi qoraga bo'yalgan doira kesishtiriladi. Shunda birinchi doiraning kerakmas qismi qora rangda aks etgani uchun ko'rinnmaydi va oy ko'rinishi hosil bo'ladi. Doirani oq gardishi ko'rinnmasligi uchun chegara rangini ham fon rangida olinishi muhim. Turli rangli yulduzlarni hosil qilish avval ko'rigan edi. Yulduzlar sonini ko'paytirish uchun ichma-ich joylashgan parametrlri takrorlash operatoridan foydalanish qulay (50·15=750 ta).


#### Dasturi:

Uses graph;

Var

```
gd, gm: integer; m, n :byte;
Begin
gd:=0; Initgraph(gd,gm,"");
setcolor(0); setfillstyle(1,15); fillellipse(200,200,50,50);
setfillstyle(1,0 ); fillellipse(225,200,45,45);
for m:= 1 to 50 do BEGIN for n:=1 to 15 do begin
putpixel(random(639), random(479), n); end; END;
Readln; CloseGraph;
End.
```

#### Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**T-6.** Dengiz uzra nur taratayotgan Quyosh rasmini chizuvchi das-tur tuzing. Dengizni chizishda yoy chizish operatoridan foydalaning.

Yechim:

Ekran foniga och billur rang (kodi 11) tanlanib, radiusi 50 piksel bo'lgan chegarasi va ichi sariq rangli doira chiziladi: Setcolor(14); Setfillstyle(1,14); Fillellipse(510,100,50,50). Quyosh nurlarini chizish uchun quyosh markazi-dan chiquvchi chiziqlar olinishi hisoblashni osonlashtirgani uchun Line(500,100, X, Y); protsedurasi yordamida X va Y larni tanlash orqali chi-ziladi.

Mavjulanayotgan dengizni chizish uchun **Ellipse(X,Y,BB,OB,XR,YR)** protsedurasidan foydalaniлади, бу yerda markazi (X,Y) nuqtada, x va y o'qlari bo'yicha radiuslari mos ravishda XR va YR ga teng ellipsning BB burchagi-dan OB burchagigacha bo'lgan yoyini chizadi. Burchak gradus o'lchov birli-gida beriladi. Dengizga rang berish uchun **Floodfill** protsedurasidan foydala-niladi.

Dasturi:

Uses graph;

Var gd, gm: integer;

Begin gd:=0; Initgraph(gd, gm, ");

Setbkcolor(11); Setfillstyle(1,yellow);

SetColor(yellow); Fillellipse(510,100,50,50); line(510,100,510,10);

line(510,100,510,190); line(510,100,420,100); line(510,100,600,100);

line(510,100,445,40); line(510,100,575,40); line(510,100,445,150);

line(510,100,575,150); Setcolor(blue); Setfillstyle(1, blue);

ellipse(40,300,22,145,70,45); ellipse(193,265,200,340,95,50);


ellipse(340,307,40,146,70,45); ellipse(455,300,22,148,70,45);

ellipse(608,265,200,340,95,50); Floodfill(40,340,blue);

Readln; CloseGraph;

End.

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**T-7.** Ichi siyrak qizil nuqtalar bilan to'ldirilgan muntazam oltiburchak chizuvchi dastur tuzing.

#### Yechim:

Masaladagi muntazam oltiburchak uchlari koordinatalarini aniqlash uchun quyidagicha mu-lohaza o'rinni:

Muntazam oltiburchakka tashqi aylana chizish mumkin. Aylanani bir "aylanib" chiqish  $360^{\circ}$  yoki  $2\pi$  ga teng. Bu burchakni 6 ga bo'linsa, aylanani oltita teng yoyga ajratuvchi nuqtalar orasidagi burchak  $2\pi/6 = \pi/3$  aniqlanadi. Ekran markazini koordinata boshi hisoblab muntazam oltiburchakning yuqori uchi koordinatalarini radiusi 100 ga teng aylananing nuqtasi sifatida

$$x := 320 + \text{trunc}(100 * \cos(-\pi/2)); y := 240 + \text{trunc}(100 * \sin(-\pi/2));$$

kabi aniqlash mumkin. Muntazam oltiburchakning keyingi har bir nuqtasi shu formulada  $-\pi/2$  ga, mos ravishda,  $1 \cdot (\pi/3) = \pi/3$ ,  $2 \cdot (\pi/3) = 2\pi/3$ ,  $3 \cdot (\pi/3) = \pi$ ,  $4 \cdot (\pi/3) = 4\pi/3$ ,  $5 \cdot (\pi/3) = 5\pi/3$  ni qo'shish orqali hosil qilinadi.

Chiziq rangini tanlash uchun **SetColor(4)**, fon rangini tanlash uchun **SetBkColor(14)**, ichini siyrak qizil nuqtalar bilan to'ldirish uchun **SetFillStyle(10,4)**; protseduralardan foydalilanildi. Agar bu nuqtalar **FillPoly(BS,KM)** protsedurasi yordamida tutashtirilsa, ichi o'zi bo'yaladi. Agar nuqtalarni **Line(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi yordamida tutashtirilsa ichiga bo'yash usulini qo'llash uchun **Floodfill** protsedurasidan foydalilanildi.

#### Dasturi (Line):


Uses Graph;

Var gd, gm, X1,Y1, X2,Y2: integer;

X3,Y3,X4,Y4,X5,Y5,X6,Y6:integer;

Begin Gd:= 0; InitGraph(Gd, Gm, ""); Setbkcolor(14); Setcolor(4);

SetFillStyle(10,4); X1:=320+trunc(100\*cos(-pi/2));



```

Y1:=240+trunc(100*sin(-pi/2)); X2:=320+trunc(100*cos(-pi/2+pi/3));
Y2:=240+trunc(100*sin(-pi/2+pi/3));
X3:=320+trunc(100*cos(-pi/2+2*pi/3));
Y3:=240+trunc(100*sin(-pi/2+2*pi/3));
X4:=320+trunc(100*cos(-pi/2+pi)); Y4:=240+trunc(100*sin(-pi/2+pi));
X5:=320+trunc(100*cos(-pi/2+4*pi/3));
Y5:=240+trunc(100*sin(-pi/2+4*pi/3));
X6:=320+trunc(100*cos(-pi/2+5*pi/3));
Y6:=240+trunc(100*sin(-pi/2+5*pi/3));
Line(X1,Y1,X2,Y2); Line(X2,Y2,X3,Y3); Line(X3,Y3,X4,Y4);
Line(X4,Y4,X5,Y5); Line(X5,Y5,X6,Y6); Line(X6,Y6,X1,Y1);
Floodfill( 320,240, red); Readln; CloseGraph;
End.

```

#### Dasturi (DrawPoly):

Uses Graph;

```

Var gd, gm : Integer; km : Array[1..6,1..2] of Integer;
Begin Gd:= 0; InitGraph(Gd, Gm, ""); Setbkcolor(14); Setcolor(4);
  SetFillStyle(10,4); km[1,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2));
  km[1,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2));
  km[2,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+pi/3));
  km[2,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+pi/3));
  km[3,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+2*pi/3));
  km[3,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+2*pi/3));
  km[4,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+pi));
  km[4,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+pi));
  km[5,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+4*pi/3));
  km[5,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+4*pi/3));
  km[6,1]:=320+trunc(100*cos(-pi/2+5*pi/3));
  km[6,2]:=240+trunc(100*sin(-pi/2+5*pi/3));
  FillPoly(6,km); ReadIn; CloseGraph;
End.

```

**T-8\***. 12 xil bo'yash usulini namoyish etuvchi 40x40 o'chamli 12 ta kvadrat chizuvchi dastur tuzing.

#### Yechim:


Ekran foniga (Setbkcolor(13);) va chegarasiga (SetColor(13);) pushti rang (kodi 13) tanlanib, ichi va bo'yash (Setfillstyle(n,n);) usulini **n** parametr sifatida qaraladi va parametrlı takrorlash operatori yordamida o'zgartiriladi. To'g'ri to'rtburchaklar Bar(x,y, x+40, y+40); protsedurasi yordamida X va Y larni 60 pikselga o'zgartirish orqali chiziladi.

#### Dasturi:

Uses graph;

```
Var gd, gm, x, y: integer; n:byte;
Begin gd:=0; Initgraph(gd, gm, ""); Setbkcolor(13); Setcolor(13);
x:=60; y:=60;
For n:=1 to 3 do begin Setfillstyle(n,n); Bar(x, y, x+40, y+40); x:=x+60; end;
x:=60; y:=120;
For n:=4 to 6 do begin Setfillstyle(n,n); Bar(x, y, x+40, y+40); x:=x+60; end;
x:=60; y:=180;
For n:=7 to 9 do begin Setfillstyle(n,n); Bar(x, y, x+40, y+40); x:=x+60; end;
x:=60; y:=240;
For n:=10 to 12 do begin Setfillstyle(n,n); Bar(x,y,x+40,y+40);x:=x+60;end;
Readln; CloseGraph;
End.
```

Natijanining ekran dag'i ko'rinishi:



**T-9\***. Svetofor chiroqlarini ketma-ket yondiradigan svetofor rasmini chizuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Bu masalani quyidagich hal etish mumkin.

Har bir shakl uchun **SetFillStyle** protsedurasi yordamida rang turlicha tanlanadi, lekin bo'yash usuli kodi 1 (berilgan rang bilan bo'yash) deb olinadi: **SetFillStyle(1, rang)**. Ekran foni chiroli ko'rinishi uchun och siyohrang yoki pushti rang tanlanadi: **Setbkcolor(13)**. Svetofor ramkasi uchun **Bar(X1,Y1,X2,Y2)** protsedurasi yordamida billur rangda to'g'ri to'rtburchak chiziladi.

Qizil, sariq va yashil rangli svetofor chiroqlari uchun **FILLE-  
Lipse(X,Y,XR,YR)** protsedurasi yordamida (1 nishonli protsedura va operatorlar guruhi) 3 ta turli radiusli doira chizib (doira chizish uchun XR=YR bo'lishi kerak), birinchi doira ichidagi rang "yonib turgan", qolgan ikkitasini rangi "o'chib turgan" holga bo'yaladi. Xuddi shu doiralalar nusxalanib ikkinchi (2 nishonli protsedura va operatorlar guruhi), keyin uchinchi (3 nishonli protsedura va operatorlar guruhi) doira ichidagi rang "yonib turgan", qolgan ikkitasi.

sini rangi “o’chib turgan” holga bo’yaladi.


Svetofor yonib o’chishi qizil, sariq, yashil, sariq, qizil va shu kabi rangda bo’lganligi sababli yo’nalish tanlash uchun **n** o’zgaruvchi kiritiladi. Agar  $n=1$  bo’lsa, yo’nalish qizildan yashilga (yuqoridan quyiga),  $n=2$  bo’lsa yashildan qizilga (quyidan yuqoriga) tomon o’tiladi. Agar  $n=3$  bo’lsa dastur o’z ishini yakunlaydi.

Dastur qismlarida vaqtini sekinlashtirish uchun **Crt** moduliga tegishli **Delay(50000)** protsedurasi parametrli takrorlash operatori bilan birgalikda foydalanildi. Dasturda ishni yakunlash uchun bирор klavish bosilganini aniqlaydigan **Crt** moduliga tegishli **Keypressed** mantiqiy funksiyasidan foydalanish qulay.

#### Dasturi:

```
Uses crt, graph;
Label 1,2,3;
Var gd, gm:integer; k, n:byte;
Begin gd:=0; Initgraph (gd,gm,"");
Setbkcolor(13);
SetFillStyle(1,11); Bar(270,5,350,180);
1: SetFillStyle(1,4); FillEllipse(310,40,30,30);
SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,100,25,25);
SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,150,20,20);
n:=1; for k:=1 to 10 do delay(50000);
2: SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,40,30,30);
SetFillStyle(1,14); FillEllipse(310,100,25,25);
SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,150,20,20);
For k:=1 to 10 do delay(50000);
If n=2 then goto 1;
3: SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,40,30,30);
SetFillStyle(1,7); FillEllipse(310,100,25,25);
SetFillStyle(1,2); FillEllipse(310,150,20,20);
For k:=1 to 10 do delay(50000);
If keypressed then n:=3 else n:=2;
If n=2 then goto 2 else CloseGraph;
End.
```

#### Natijaning ekrandagi ko’rinishi:



## 44 – dars. Fayllar bilan ishlash mavzusiga

**M-1.** Hafta kunlarining nomlarini kiritib, ularni “HAFTA.TXT” faylida saqlab qo’ydigan dastur tuzing.

#### Yechim:

Fayl turidagi f. 10 ta belgili satr turidagi **kunlar** va butun turdagи **k**

o‘zgaruvchilar tavsiflanadi. **Assign(f, ‘HAFTA.TXT’);** protsedurasi fayl turidagi **f** o‘zgaruvchi qiymati “HAFTA.TXT” ekanini belgilaydi. **Rewrite(f);** protsedurasi tashqi xotirada “HAFTA.TXT” faylini hosil qiladi va uni yozish uchun ochadi. **Writeln(‘Hafta kunlarini kiriting: ’);** operatori ekranning joriy satrida “Hafta kunlarini kiriting:” yozuvini aks ettiradi va yurgichni yangi satrga o‘tkazadi. **Writeln(f, ‘Hafta kunlari: ’);** operatori “HAFTA.TXT” faylining joriy satriga “Hafta kunlari:” yozuvini yozadi va yurgichni yangi satrga o‘tkazadi. Parametrli takrorlash operatori ishlaganda haftaning 7 ta kuni nomi **Readln(kunlar);** operatori orqali kiritiladi va **Writeln(f, kunlar);** operatori yordamida “HAFTA.TXT” fayliga yangi satrdan yozib boriladi.


Dasturi:

```
Var f: text; kunlar:string[10]; k: byte;
Begin Assign(f, ‘HAFTA.TXT’); Rewrite(f);
Writeln(‘Hafta kunlarini kiriting: ’); Writeln(f, ‘Hafta kunlari: ’);
For k:=1 to 7 do begin Readln(kunlar); Writeln(f, kunlar); end;
Close(f);
End.
```

Dastur ishlashining ekrandagi ko‘rinishi:

```
Turbo Pascal Version 7.0
Hafta kunlarini kiriting:
Dushanba
Seshanba
Chorshanba
Payshanba
Juma
Shanba
Yakshanba
```

“hafta.txt” faylining ekrandagi ko‘rinishi:



**M-2.** 1-mashqdagi “HAFTA.TXT” faylini olib, davomidan hafta kunlarining rus tilidagi nomlarini yozuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Fayl turidagi **f**, 11 ta belgili satr turidagi **kunRus** va butun turdagি **k** o‘zgaruvchilar tavsiflanadi. **Assign(f, ‘HAFTA.TXT’);** protsedurasi fayl turidagi **f** o‘zgaruvchi qiymati “HAFTA.TXT” ekanini belgilaydi. Agar tashqi xotirada “HAFTA.TXT” fayli bo‘lsa, u holda **Append(f);** protsedurasi bu faylini davomiga ma‘lumot yozish uchun ochadi, aks holda xatolik haqida xabar chiqadi. Dasturning qolgan qismining ishi avvalgi mashqda ko‘rilgan.

Dasturi:

```
Var f: text; kunRus: string[11]; k: byte;
Begin Assign(f, ‘HAFTA.TXT’);
Append(f); Writeln(‘Hafta kunlari nomini’)
```

“HAFTA.TXT” ning ekrandagi ko‘rinishi:

```

rus tilida kiriting:');

Writeln(f, 'Hafta kunlari rus tilida:');

For k:=1 to 7 do begin
Readln(kunRus); Writeln(f, kunRus); end;
Close(f);
End.

```

Dastur ishlashining ekrandagi ko'rinishi:

```

Turbo Pascal Version 7.0 Copyright (c)
Hafta kunlari nomini rus tilida kiriting:
Ponedelnik
Vtornik
Sreda
Chetverg
Pyatnitsa
Subbota
Voskresenye_

```

Rus Tilida	Hafta Kunlari
Ponedelnik	Hafta kunlari:
Vtornik	Dushanba
Sreda	Seshanba
Chetverg	Chorshanba
Pyatnitsa	Payshanba
Subbota	Juma
Voskresenye	Shanba
	Yakshanba
	Hafta kunlari rus tilida:
	Ponedelnik
	Vtornik
	Sreda
	Chetverg
	Pyatnitsa
	Subbota
	Voskresenye

**M-3.** "HAFTA.TXT" faylida berilgan hafta kunlarining nomlarini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

Yechim:

Fayl turidagi **f**, satr turidagi **kun** va butun turidagi **k** o'zgaruvchilar tavsiflanadi. Assign(f, 'HAFTA.TXT'); protsedurasi fayl turidagi **f** o'zgaruvchi qiymati "HAFTA.TXT" ekanini belgilaydi. Agar tashqi xotirada "HAFTA.TXT" fayli bo'lsa, u holda Reset(f); protsedurasi bu faylni ma'lumotlarini o'qish uchun ochadi, aks holda xatolik haqida xabar chiqadi. Readln(f, **kun**); operatori matnli "HAFTA.TXT" faylidagi 16 ta satrni navbat bilan **kun** o'zgaruvchisiga parametrli takrorlash operatori yordamida o'qiydi.

Dasturi:

```

Var f: text; kun: string; k: byte;
Begin Assign(f, 'HAFTA.TXT'); Reset(f); Writeln('Hafta kunlari nomi:');
For k:=1 to 16 do begin Readln(f, kun); Writeln(kun); end; Close(f);
End.

```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:

```

Turbo Pascal Version 7.0
Hafta kunlari nomi:
Hafta kunlari:
Dushanba
Seshanba
Chorshanba
Payshanba
Juma
Shanba
Yakshanba
Hafta kunlari rus tilida:
Ponedelnik
Vtornik
Sreda
Chetverg
Pyatnitsa
Subbota
Voskresenye

```

## 45 – dars. Fayllar bilan ishlash mavzusini takrorlash mavzusiga

**T-1.** Sinfdoshlaringizning familiya va ismlaridan tashkil topgan “SINF.TXT” nomli matnli fayl hosil qiluvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Fayl turidagi **f**, satr turidagi **Fam\_ism** va butun turdagisi **k** va **n** o'zgaruvchilar tavsiflanadi. **Assign(f, 'SINF.TXT');** protsedurasi fayl turidagi **f** o'zgaruvchi qiymati “SINF.TXT” ekanini belgilaydi. **Rewrite(f);** protsedurasi tashqi xotirada “SINF.TXT” faylini hosil qiladi va uni yozish uchun ochadi. O'zgaruvchi **n** o'quvchilar sonini aniqlaydi, unga asosan parametrli takrorlash operatori **Readln(Fam\_ism);** va **Writeln(f, Fam\_ism);** operatorlarini takrorlashlar sonini belgilaydi. O'quvchining familiyasi va ismi **Readln(Fam\_ism);** operatori orqali kiritiladi hamda **Writeln(f, Fam\_ism);** operatori yordamida “SINF.TXT” fayliga yangi satrdan yozib boriladi.

### Dasturi:

Var

    f: text; Fam\_ism: string; k, n: byte;

Begin

    Write('Sinfodoshlaringiz sonini kirititing: '); Readln(n);

    Assign(f, 'SINF.TXT'); Rewrite (f);

    Writeln('Sinfodoshingiz familiyasi va ismini kirititing:');


    For k:=1 to n do begin

        Readln(Fam\_ism); Writeln(f, Fam\_ism); end;


    Close(f);

End.

### Dastur ishlashining ekrandagi ko'rinishi:



### “SINF.TXT” ni ekrandagi ko'rinishi:



**T-2.** “sinf.txt” faylida berilgan 9-sinf o'quvchilarning familiyalari ichidan “M” harfi bilan boshlanadiganlarini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.

### Yechim:

Fayl turidagi **f**, satr turidagi **Fam** va butun turdag'i **k** va **n** o'zgaruvchilar tavsiflanadi. Assign(f, 'sinf.txt'); protsedurasi fayl turidagi **f** o'zgaruvchi qiymati "sinf.txt" ekanini belgilaydi. Agar tashqi xotirada "sinf.txt" fayli bo'lsa, u holda **Reset(f)**; protsedurasi bu faylni o'qish uchun ochadi, aks holda xatolik haqida xabar chiqadi.

Tashqi xotiradagi "sinf.txt" fayli necha satrdan iboratligi no'malum. Shuning uchun Paskalning **Eof(f)** funksiyasi shart bo'yicha takrorlash operatori bilan birga qo'llaniladi: **Eof** – mantiqiy funksiya bo'lib, faylda o'qish uchun ma'lumotlar qolmagan bo'lsa "Rost", aks holda "Yolg'on" qiymatini qabul qiladi. ReadLn(f, fam); operatori matnli "sinf.txt" faylidagi satrlarni navbatli bilan **Fam** o'zgaruvchisiga o'qiydi. Tarmoqlanish operatori **Fam** o'zgaruvchisi qiymatining 1-belgisi "M" ga teng bo'lsa, ekranga chiqaradi.

### Dasturi:

Var f: text; Fam: string;

Begin


Assign(f, 'sinf.txt'); Reset(f);

Repeat ReadLn(f, fam); If Fam[1]='M' Then WriteLn(fam); Until Eof(f);

Close(f); Readln;

End.

Dastur ishlashining ekrandagi ko'rinishi:



**T-3.** "sinf.txt" faylida berilgan 9-sinf o'quvchilarning familiyalari ichidan "B" harfi bilan boshlanadiganlarini ajratib olib, ulardan "bsinf.txt" faylini hosil qiluvchi dastur tuzing.

### Yechim:


Fayl turidagi **f** va **fb**, satr turidagi **Fam** o'zgaruvchilar tavsiflanadi. Assign(f, 'sinf.txt'); protsedurasi fayl turidagi **f** o'zgaruvechi qiymati "sinf.txt" ekanini belgilaydi. Agar tashqi xotirada "sinf.txt" fayli bo'lsa, u holda **Reset(f)**; protsedurasi bu faylni o'qish uchun ochadi, aks holda xatolik haqida xabar chiqadi. Assign(fb, 'bsinf.txt'); protsedurasi fayl turidagi **fb** o'zgaruvchi qiymati "bsinf.txt" ekanini belgilaydi. **Rewrite(f)**; protsedurasi "bsinf.txt" faylini hosil qiladi va yozish uchun ochadi. Tarmoqlanish operatori **Fam** o'zgaruvchisi qiymatining 1-belgisi "B" ga teng bo'lsa, WriteLn(fb, Fam); yordamida "bsinf.txt" fayliga yozadi.

Dasturi:

```

Var f, fb: text; Fam: string;
Begin Assign(f, 'sinf.txt'); Reset(f);
Assign(fb, 'bsinf.txt'); Rewrite(fb);
Repeat ReadLn(f, Fam);
If Fam[1]= 'B' Then
WriteLn(fb, Fam);
Until Eof(f);
Close(f); Close(fb); ReadLn;
End.
```

“bsinf.txt” ni ekranligi ko‘rinishi:



**T-4\***.  $y=\sin^2 x$  funksiyasining  $[-\pi, \pi]$  oraliqdagi qiymatlarini 0,01 qadam bilan hisoblang. Natijalarni “sinus.out” faylida saqlab qo‘ying.

Yechim:


Fayl turidagi s, haqiqiy turdag'i x, y o‘zgaruvchilar tavsiflanadi. Assign(s, ‘sinus.out’); protsedurasi fayl turidagi s o‘zgaruvechi qiymati “sinus.out” ekanini belgilaydi. Rewrite(s); protsedurasi “sinus.out” faylini hosil qiladi va yozish uchun ochadi. Shart bo‘yicha takrorlash operatori yordamida x o‘zgaruvchi qiymatini 0,01 qadam bilan o‘zgartirib,  $y=\sin^2 x$  funksiyasi qiymati hisoblanadi va WriteLn(s, ‘y(‘,x, ‘)=‘, y:0:5); yordamida “sinus.out” fayliga yoziladi.

Dasturi:

```

Var s: text; x, y: real;
Begin
Assign(s, 'sinus.out');
Rewrite(s);
WriteLn(s, 'y=sinx*sinx');
x:=-pi;
Repeat
y:=sqr(sin(x));
WriteLn(s, 'y(‘,x, ‘)=‘, y:0:5);
x:=x+0.1;
Until x>pi;
Close(s);
End.
```

“sinus.out” ni ekranligi ko‘rinishi:



**T-5\***. “sinus.out” fayliga izoh qo‘shuvchi dastur tuzing.

Yechim:

Fayl turidagi s, haqiqiy turdag'i x, y o‘zgaruvchilar tavsiflanadi. Assign(s, ‘sinus.out’); protsedurasi fayl turidagi s o‘zgaruvchi qiymati “sinus.out” eka-

nini belgilaydi. Agar tashqi xotirada “sinus.out” fayli bo’lsa, u holda **Append(f);** protsedurasi bu faylni davomiga ma’lumot yozish uchun ochadi, aks holda xatolik haqida xabar chiqadi. WriteLn(s, ‘funksiyani qiymati 0.01 qadam bilan hisoblandi’); yordamida “sinus.out” fayliga izoh qo’shiladi

#### Dasturi:

Var s: text;

Begin Assign(s, ‘sinus.out’); Append(s);

WriteLn(s, ‘funksiyani qiymati 0.01 qadam bilan hisoblandi’); Close(s);

End.

“sinus.out” ni ekrandagi ko’rinishi:

```
Файл Правка Режим Справка 100 %
y(2.358)=0.49779
y(2.458)=0.39858
y(2.558)=0.30325
y(2.658)=0.21586
y(2.758)=0.13978
y(2.858)=0.07807
y(2.958)=0.03318
y(3.058)=0.00690
funksiyani qiymati 0.01 qadam bilan hisoblandi
```

## 46 – dars. Protsedura va funksiyalar mavzusiga

**M-1.** Uchta to’g’ri to’rtburchakning har birining bittadan diagonali uchlarining koordinatalari berilgan: 1) 20,20 va 80,200; 2) 200,97 va 500,156; 3) 300,120 va 400,420. Shu to’g’ri to’rtburchaklarni mos ravishda qizil, sariq va yashil ranglarda chizish dasturini tuzing.

#### Yechim:

Berilgan qiymatlarda to’g’ri to’rtburchaklarni qizil, sariq va yashil ranglarda chizish uchun uch marta chegara rangini belgilovchi Paskalning SetColor(rang); standart protsedurasidan foydalanishga to’g’ri keladi. Masalada berilgan qiymatlarni va rangni parametr sifatida olib, shu parametrlar ishtirokida **Tbch** foydalanuvchi protsedurasidan foydalanib ham yechish mumkin.

Protsedurali dasturda gd va gm global, x1, y1, x2, y2 va rang lokal o’zgaruvchilardir.

#### Dasturi (oddiy):

Uses Graph;

#### Dasturi (protsedurali):

Uses Graph;

<pre> Var gd, gm: Integer; Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, ''); SetColor(4); Rectangle(20,20,80,200); SetColor(14); Rectangle(200,97,500,156); SetColor(2); Rectangle(20,20,80,200); ReadLn; CloseGraph; End. </pre>	<pre> Var gd, gm: Integer; Procedure Tbch(x1,y1,x2,y2,rang:Integer); begin SetColor(rang); Rectangle(x1,y1,x2,y2); end; Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, ''); Tbch (20,20,80,200,4); Tbch (200,97,500,156,14); Tbch (300,120,400,420,2); ReadLn; CloseGraph; End. </pre>
---	--

**M-2.** Berilgan n natural son uchun  $S=1 \cdot 5 + 2 \cdot 6 + 3 \cdot 7 + \dots + n \cdot (n+4)$  yig'indini hisoblash dasturini protsedura yordamida tuzing.

Yechim:

Yig'indidagi ko'paytmalarni hisoblash uchun foydalanuvchi protsedurasi tuzish mumkin. Protsedura parametri sifatida ko'paytuvchilarni olish mumkin. Protsedurali dasturda k, n, S va P gm global, k1 va k2 lokal o'zgaruvchilardir.

Dasturi (oddiy):

```

Var k, n, S, P: word;
Begin
Write('n ni kiriting: '); ReadLn(n);
S:=0; k:=1;
While k<=n do begin
S:=S+k*(k+4); k:=k+1; end;
Writeln('Javob S= ', S);
ReadLn;
End.

```

Dasturi (protsedurali):

```

Var k, n, S, P: word;
Procedure Kup(k1, k2:word);
Begin P:=k1*k2; end;
BEGIN Write('n ni kiriting: ');
ReadLn(n); S:=0; k:=1;
While k<=n do begin Kup(k, k+4);
S:=S+P; k:=k+1; end;
Writeln('Javob S= ', S); ReadLn;
END.

```

**M-3.** Uchta sondan kattasini topish dasturini tuzing. Buning uchun ikkita sondan kattasini topish funksiyasini tuzib, undan foydalaning.

Yechim:

Ikkita sondan kattasini topish uchun foydalanuvchi protsedurasini tuzish mumkin. Protsedurali dasturda A, B, D va Max global, n va m lokal o'zgaruvchilardir.

Dasturi (oddiy):

```

Var A, B, D, Max: real;
Begin Write('A ni kiriting: '); ReadLn(A); Write('B ni kiriting: '); ReadLn(B);
Write('D ni kiriting: '); ReadLn(D); If A>B Then Max:=A Else Max:=B;
If D>Max Then Max:=D; Writeln('Sonlardan kattasi= ', Max:0:5); ReadLn;

```

End.

Dasturi (protsedurali):

```

Var A, B, D, Max: real;
Function Katta(n, m:real):real;
Begin
If n>m Then Katta:=n Else Katta:=m;
End;
BEGIN Write('A ni kriting: '); Readln(A); Write('B ni kriting: '); Readln(B);
Write('D ni kriting: '); Readln(D); Max:=Katta(A,B); Max:=Katta(Max,D);
Writeln('Sonlardan kattasi= ', Max:0:5); ReadLn;
END.

```

## 47 – dars. Protsedura va funksiyalar mavzusini takrorlash mavzusiga

**T-1.** Berilgan matndagi ‘a’ belgini ‘g’ belgiga, ‘m’ belgini ‘s’ belgiga, ‘f’ belgini ‘h’ belgiga almashtiruvchi dasturni protsedura yordamida tuzing.

Yechim:

Satrda birinchi belgini ikkinchi belgiga almashtirish uchun avval belgi o’rnini aniqlanib o’chiriladi, so’ng yangi belgi belgi o’rniga joylashtiriladi. Bu jarayon birinchi belgi tugaguncha davom etadi, shuning uchun shart bo’yicha takrorlash operatoridan foydalanish qulay.

Dasturi (oddiy):

```

Var S: string; k: char;
Begin Write('S ni kriting: '); Readln(S);
While Pos('a', S)>0 do begin
k:= Pos('a', S);
Delete(S, k, 1); Insert('b', S, k); end;
While Pos('m', S)>0 do begin
k:= Pos('m', S);
Delete(S, k, 1); Insert('s', S, k); end;
While Pos('f', S)>0 do begin
k:= Pos('f', S);
Delete(S, k, 1); Insert('h', S, k); end;
Writeln('Javob S= ', S); ReadLn;
End.

```

Dasturi (protsedurali):

```

Var S: string;
Procedure Alm(n, m: char);
Var k: byte;
Begin
While Pos(n, S)>0 do begin
k:= Pos(n, S); Delete(S, k, 1);
Insert(m, S, k); end;
End;
BEGIN
Write('Satrni kriting: '); Readln(S);
Alm('a','b'); Alm('m','s'); Alm('f','h');
Writeln('Javob S= ', S); Readln;
END.

```

**T-2.**  $y = x^5 + 3x$  funksiya qiymatini  $x$  ning  $-9, -5, -2, 2, 5, 7$  qiy-

matlarida hisoblash dasturini tuzing. Darajani ko'paytirish orqali hisoblash uchun funksiya tuzib oling.

Yechim:

Darajani ko'paytirish yordamida hisoblash uchun **Dar** funksiyasini tuzganda avval daraja **d** o'zgaruvchi orqali hisoblab olinadi, so'ng funksiyaga o'zlashtiriladi. Umuman, biror foydalanuvchi funksiyasi o'zlashtirish operatoridagi tenglikni chap tomonida qatnashsa (masalan,  $\text{Dar}:=$ ) uning nomi, o'ng tomonida qatnashsa funksiyaga murojaati (masalan,  $y:=\text{Dar}(x)+5*\text{Dar}(x)+8$ ) yozilishi mumkin.

Dasturi (oddiev):

```
Var
  x, y, d: real; k: byte;
BEGIN
  Write('x ni kiriting: ');
  Readln(x);
  d:=1;
  For k:=1 to 5 do d:=d*x;
  y:=d+3*x;
  Writeln('y(',x:0:2, ')=',y:0:5);
  ReadLn;
END.
```

Dasturi (protsedurali):

```
Var x, y: real;
Function Dar(z: real): real;
Var k: byte; d:real;
Begin
  d:=1; For k:=1 to 5 do d:=d*z; Dar:=d;
End;
BEGIN
  Write('x ni kiriting: ');
  Readln(x);
  y:= Dar(x)+3*x;
  Writeln('y(',x:0:2, ')=',y:0:5);
  ReadLn;
END.
```

**T-3.** Protsedura yordamida ekranning o'rtaida ichma-ich joylashgan har xil rangli 15 ta aylana chizuvchi dastur tuzing.


Yechim:

Protsedura parametrlari sifatida aylanalar radiusi va rangini olish mumkin. Bu holda protsedura tanasida aylana chizig'i rangini aniqlovchi va aylana chizuvchi standart protsedura qatnashadi.

Dasturi:

```
Uses Graph;
Var n, rang, k, gd, gm: Integer;
Procedure aylana(r, rang: Integer);
begin
  Setcolor(rang); Circle(320,225, r);
end;
Begin
  gd:=0; InitGraph(gd, gm, '');
  For k:=1 to 15 do begin
    n:=k*15; Aylana(n,k);
  end;
  ReadLn; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekranidagi ko'rinishi:




## 48 – 49 – dars. Takrorlashga doir topshiriqlar mavzusiga

T-1. Tomonining uzunligi  $a$  ga teng kvadrat va unga ichki chizilgan aylana chizish dasturi tuzilsin.  $a$  ning qiymati klaviaturadan kiritilsin.

Yechim:

Chizmaga asosan  $a=2\cdot R$  yoki  $R=\frac{a}{2}$ . Kvadratning chap yuqori qirrasi koordinatasi  $(x, y)$  bo'lsa, u holda quyi o'ng qirrasi  $(x+a, y+a)$  bo'ladi. Demak, aylana markazi koordinatalari kesmani teng ikkiga bo'lish qoidasiga asosan quyida gicha bo'ladi:

$$\left( \frac{x+x+a}{2}, \frac{y+y+a}{2} \right) = \left( \frac{2 \cdot x + a}{2}, \frac{2 \cdot y + a}{2} \right) = \left( x + \frac{a}{2}, y + \frac{a}{2} \right).$$



Masalan, agar  $a=100$ ,  $x=100$  va  $y=80$  deb olinsa, aylana markazi koordinatalari  $(150, 130)$  kabi bo'ladi. Dasturda  $a$  o'zgeruvchini qiymatini klaviaturadan kiritish uchun ReadLn( $a$ ) operatori yoziladi. Shakllar chizish protsedralari piksellarning butun qiymatlarida ishlagani uchun a o'rniغا trunc( $a$ ) va  $R$  o'rniغا trunc( $R$ ) qaraladi.


Dasturi:

Uses Graph;

Var x, y, gd, gm: Integer; a, R: real;

```
Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, ""); Write('a='); ReadLn(a); R:=a/2;
  WriteLn('Kvadrat chap yuqori qirrasi koordinatalarini kriting:');
  Write('x='); ReadLn(x); Write('y='); ReadLn(y); SetBkcolor(2);
  SetColor(14); Rectangle(x, y, x+trunc(a), y+trunc(a)); SetColor(4);
  Circle(x+trunc(a/2), y+trunc(a/2), trunc(R)); ReadLn; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekranidagi ko'rinishi:



**T-2.** Radiusi  $R$  ga teng aylana va unga tashqi chizilgan kvadrat chizish dasturi tuzilsin.  $R$  ning qiymati klaviaturadan kiritilsin.

Yechim:


Avvalgi masaladagi chizmaga asosan  $a=2 \cdot R$ . Aylana markazi koordinatasi  $(x, y)$  bo'lsa, u holda kvadratning chap yuqori qirrasi koordinatasi  $(x-R, y-R)$  bo'lsa, u holda quyi o'ng qirrasi  $(x+R, y+R)$  bo'ladi. Dasturda  $R$  o'zgaruvchini qiymatini klaviaturadan kiritish uchun `Readln(R)` operatori yozildi. Shakllar chizish protseduralari piksellarning butun qiymatlarida ishlaganligi uchun a o'rniiga `trunc(a)` va  $R$  o'rniiga `trunc(R)` qaraladi.

Dasturi:

Uses Graph;

```
Var x, y, gd, gm: Integer; a, R: real;
Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, '');
  Write('R= '); ReadLn(R); a:=2*R;
  WriteLn('Aylana markazi koordinatasini kriting:');
  Write('x= '); ReadLn(x); Write('y= '); ReadLn(y);
  Setbkcolor(2); Setcolor(14);
  Rectangle(x-trunc(R), y-trunc(R), x+trunc(R), y+trunc(R));
  Setcolor(4); Circle(x, y, trunc(R)); ReadLn; CloseGraph;
End.
```


Natijaning ekranidagi ko'rinishi:



**T-3.** Tomonlarining uzunligi  $a$  va  $b$  bo'lgan to'g'ri to'rtburchak va unga ichki chizilgan ellips chizish dasturi tuzilsin.  $a$  va  $b$  ning qiymati klaviaturadan kiritilsin.

Yechim:

Ma'lumki, `FillEllipse(X,Y,XR,YR)` protsedurasini markazi  $(X, Y)$  koordinatali nuqtada,  $X$  va  $Y$  o'qlari bo'yicha radiuslari (eni va bo'yisi) mos ravishda  $XR$  va  $YR$  ga teng, joriy rang va usulda bo'yalgan ellips chizadi. Chizmaga asosan



$a=2 \cdot XR$ ,  $b=2 \cdot YR$  yoki  $XR=\frac{a}{2}$ ,  $YR=\frac{b}{2}$ . Kvadratning chap yuqori qirrasi

koordinatasi  $(x, y)$  bo'lsa, u holda quyi o'ng qirrasi  $(x+a, y+b)$  bo'ladi. Demak, ellips markazi koordinatalari kesmani teng ikkiga bo'lish qoidasiga asosan quyidagicha bo'ladi:

$$\left( \frac{x+x+a}{2}, \frac{y+y+b}{2} \right) = \left( \frac{2 \cdot x + a}{2}, \frac{2 \cdot y + b}{2} \right) = \left( x + \frac{a}{2}, y + \frac{b}{2} \right).$$

Dasturda a o'zgaruvchini qiymatini klaviaturadan kiritish uchun ReadLn(a) operatori yoziladi. Shakllar chizish protseduralari piksellarning butun qiymatlarida ishlagan uchun a o'rniga trunc(a), b o'rniga trunc(b), XR o'rniga trunc(XR) va YR o'rniga trunc(YR) qaratadi.

#### Dasturi:

Uses Graph;

Var x, y, gd, gm: Integer; a,b, XR, YR: real;

Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, "");

Write('a='); ReadLn(a); XR:=a/2; Write('b='); ReadLn(b); YR:=b/2;

WriteLn('To'rburchakni chap yuqori qirrasi koordinatalarini kriting:');

Write('x='); ReadLn(x); Write('y='); ReadLn(y);


Setbkcolor(2); Setcolor(14); Rectangle(x, y, x+trunc(a), y+trunc(b));

Setcolor(4); Fillellipse(x+trunc(a/2), y+trunc(b/2), trunc(XR), trunc(YR));

ReadLn; CloseGraph;

End.

#### Natijaning ekranagi ko'rinishi:



**T-4.** Ko'k fonli ekranni oralig'i 20 piksel bo'lgan vertikal oq chiziqlar bilan to'ldiring.

#### Yechim:


Ekran foni ko'k bo'lishi uchun SetbkColor(blue), chiziq rangini belgilash uchun SetColor(white) tanlanadi. Ekran to'lguncha vertikal oq chiziqlar chizilishi uchun **Line(k, 0, k, 479)** protsedurasi shart bo'yicha takrorlash operatori yordamida **k** ni qiymati 0 dan 639 bo'lguncha 20 qadam bilan ishlataladi.

Dasturi:

```

Uses Graph;
Var k, gd, gm: Integer;
Begin gd:=0;
InitGraph(gd, gm, "");
Setbkcolor(blue);
SetColor(white); k:=0;
While k<=639 do begin
Line(k, 0, k, 479); k:=k+20; end;
ReadLn; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



**T-5. Har xil rangli 15 ta doira chizing.**

Yechim:


Doiralarga nar xil rang tanlash uchun  $m$  o'zgaruvchi kiritiladi. Har ta doirani markazini 100 dan boshlab 100 pikselga gorizontal bo'yicha surish uchun  $x := 100 * ((m-1) \text{ div } 5 + 1)$  formula o'rinli. Bir vertikalda joylashgan 5 ta doirani vertikal bo'yicha 80 pikselga surish uchun  $y := ((m \bmod 5) + 1) * 80$  formula o'rinli.

Dasturi:

```

Uses Graph;
Var m, x, y, gd, gm: Integer;
Procedure doira(a, b, rang: Integer);
Begin Setfillstyle(1, rang); Fillellipse(a, b, 35, 35); end;
Begin gd:=0; InitGraph(gd, gm, "");
for m:=1 to 15 do begin x:=100*((m-1) div 5+1); y:=((m mod 5)+1)*80;
doira(x, y, m); end; ReadLn; CloseGraph;
End.
```

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



## T-6. Stol rasmini chizing

Yechim:

Stol oyoqlari va stol usti qoplamasini hajmli chizish uchun **Bar3D(...)** protsedurasidan foydalanish qulay.

Dasturi:

Uses Graph;


Var gd,gm:integer;

Begin

```
gd:=0; InitGraph(gd,gm, ""); setbkcolor(15); setcolor(1);
setfillstyle(1,1); bar3d(100,130,115,220,10,true);
bar3d(150,90,165,180,10,true); bar3d(287,130,302,220,10,true);
bar3d(327,90,342,180,10,true); setcolor(13); setfillstyle(1,13);
bar3d(80,120,320,140,60,true); floodfill(200,80,13);setcolor(4);
bar3d(80,120,320,140,60,true); ReadLn; CloseGraph;
```

End.

Natijaning ekrandagi ko'rinishi:



## T-7. Uy rasmini chizing

Dasturi:

Uses Graph;


Var gd,gm:integer; m:array[1..4, 1..2] of integer;

Begin

```
gd:=0; InitGraph(gd,gm, ""); setbkcolor(15); setcolor(3);
m[1,1]:=240;m[1,2]:=10; m[2,1]:=400;m[2,2]:=10;
m[3,1]:=500;m[3,2]:=60; m[4,1]:=140;m[4,2]:=60;
setfillstyle(8, 3); Fillpoly(4,m); setfillstyle(1,7); bar(170,61,470,250);
setcolor(7); rectangle(170,61,470,250); setfillstyle(11,7);
bar(175,65,465,245); setfillstyle(7,12); bar(160,254,480,300);
setcolor(12); rectangle(160,252,480,300); setfillstyle(1,4);
bar(220,100,272,180); bar(360,100,412,180); setfillstyle(1,7);
bar(224,104,268,176); bar(364,104,408,176); setfillstyle(1,4);
bar(220,120,272,130); bar(360,120,412,130); bar(244,120,248,176);
bar(384,120,388,176);
```

```
ReadLn; CloseGraph;  
End.
```

Natijaning ekrandagi ko'rnishi:



УДК: 004.421  
КБК 22.12  
А45

**Algoritmlash va Paskal dasturlash tili bo'yicha Berilgan misol va masalalarни yechish usullari** / B. Boltayev [va boshq.]. – Тошкент: Nihol, 2012. – 164 б.

ISBN 978-9943-23-057-6

УДК: 004.421  
КБК 22.12

**B.BOLTAYEV, A.AZAMATOV, SH.XIDIROV,  
B.XURRAMOV VA K.ISKANDAROV**

**ALGORITMLASH VA PASKAL DASTURLASH TILI  
BO'YICHA BERILGAN MISOL VA  
MASALALARНИ YECHISH  
USULLARI**

Muharrir: A.Usmonov

Muqova dizayneri: *A. Ladina*

Texnik muharrir: *B. Nurmuhamedov*

Litsenziya raqami: AI № 129, sanasi: 12.11.2008 y.

Bosishga ruxsat etilgan sana: 14.12.2011. Ofset bosma.

Bichimi 60x84<sup>1</sup>/16. Bosma tabog'i 10,25. Sharqli bosma tabog'i 9,5.

Ofset qog'oz. Times New Roman garniturasи.

Kegl 11. Adadi: 3000 nusxa.

Buyurtma: № 131. Bahosi kelishilgan narxda.

«Offset print» MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Maxtumquli 1,uy